

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.5:330.341(575.1)**

MAXMUDOVA MUXLISA QODIRJON QIZI

**BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASHUVIDA MOLIYAVIY
INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science)
Ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy maslahatchi: i.f.d., prof. Jumayev N.X.

Toshkent shahri – 2024-yil

MUNDARIJA:

Kirish	3
I BOB. BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASHUVIDA MOLIYAVIY INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	15
1.1. Banklarni transformatsiyalashuvida moliyaviy innovatsiyalarni vujudga kelishi va uning nazariy asoslari	15
1.2. Banklarni transformatsiyalashuvida moliyaviy innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari	31
1.3. Banklarni transformatsiyalashuvida moliyaviy innovatsiyalardan foydalanishning me‘yoriy-huquqiy asoslari	49
Birinchi bob bo‘yicha xulosa	66
II BOB. BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA MOLIYAVIY INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	69
2.1. Banklarni transformatsiya qilishda moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish amaliyoti	69
2.2. Banklarni raqamli transformatsiya qilish sharoitida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish tendensiyalari	79
2.3. Banklarni raqamli transformatsiya qilishda moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari	95
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	123
III BOB. BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASHUVIDA MOLIYAVIY INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHGA TA’SIR QILUVCHI OMILLARNING EMPIRIK TAHLILI	126
3.1. Banklarda moliyaviy innovatsiyalardan foydalanishning amaldagi holati tahlili.	126
3.2. Yirik tijorat banklarida moliyaviy innovatsiyalardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning empirik tahlili.	136
3.3. Kichik tijorat banklarida moliyaviy innovatsiyalardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning empirik tahlili.	150
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa	174
IV BOB. TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY INNOVATSION XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI	177

TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	
4.1.	Banklarining moliyaviy innovatsion xizmatlaridan foydalanishini ilg‘or xorij tajribasi 177
4.2.	Banklarining moliyaviy innovatsiyalardan foydalanish bilan bog‘liq muammolar 198
4.3.	Tijorat banklarida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishni takomillashtirish istiqbollari 212
	To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa 232
	Xulosa va takliflar 234
	Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 227

Kirish

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda iqtisodiyotni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, barqaror to'lov tizimini shakllantirish va raqamli pullarning samarali aylanishini ta'minlash kabi masalalarda aholining bo'sh mablag'larini jalb qilish orqali iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan bank tizimining roli ortib bormoqda. Oxirgi yillardagi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bank tizimida to'lovlarni juda qulay bo'lgan raqamli to'lovlardan foydalanib amalga oshirishni kuchaytirib yubordi. Xususan, "2014-yilda dunyo aholisining o'rtacha 44 foizi raqamli to'lovlardan foydalangan bo'lsa, 2021-yilga kelib 64 foiz aholi aynan raqamli to'lovlardan foydalangan. Shuningdek, innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyasidan kelib chiqib, 2025-yilgacha raqamli bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2,5 mlrd. kishidan ham ortishi prognoz qilinmoqda". Shu asosda, tijorat banklari faoliyatida raqamli bank xizmatlarini kengaytirish, aholiga qulay xizmatlarni taklif qilish va ularni bank tizimiga joriy etish imkoniyatlarini har tomonlama o'rganish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jahon mamlakatlarida bank tizimida raqobatni kuchaytirish, banklarda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish, hamda tijorat banklarida innovatsion xizmatlarning hajmi va sifatini rivojlantirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tijorat banklari onlayn va mobil platformalar orqali xizmatlarni raqamlashtirish, fintex kompaniyalari bilan hamkorlik qilish, mobil to'lovlar, QR-kodlar yordamida to'lovlar, kontaktsiz kartalar va NFC texnologiyalari asosida to'lovlarni amalga oshirish, kriptovalyuta va raqamli aktivlar bilan ishlash bo'yicha yechimlar ishlab chiqish, sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari yordamida kredit xavfini baholash, moliyaviy firibgarlikning oldini olish, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish, mijozlar ehtiyojlariga moslashtirilgan mahsulotlar taklif etish, ularning ma'lumotlarini himoya qilish va kiberxavfsizlik choralarini qo'llash kabi innovatsiyalarga ustuvorlik berilmoqda.

Yangi O'zbekistonda banklarning transformatsiyalashuvida moliyaviy

innovatsiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bank sektori iste'molchi arxetipining tipik namunasi bo'lgani uchun innovatsiyalarga bo'lgan talab asosan iste'molchilar tomonidan qo'zg'atiladi. Ularning asosiy talablari bank operatsiyalari uchun vaqtni qisqartirish, ularni 24/7 rejimida amalga oshirish imkoniyatidir. Bank mahsulotlari va xizmatlarini yanada qulayroq qilish, yagona interfeys orqali bank xizmatlari bilan birga boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga bo'lgan yuqori talab banklarni moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishni tezlashtirishga undamoqda. Shunday ekan, yangi g'oyalar, texnologiyalar va biznes modellarining rivojlanish sur'ati juda tezdir, shu sababli raqobatbardoshlik va mijoz sodiqligini ta'minlashda mahsulotlarni bozorga tez olib chiqish hamda ularning sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lmagan fuqarolar uchun tanlov imkoniyati bu sohada ba'zi qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo'lidagi keng ko'lamlı o'zgarishlar, islohotlar maqsadi va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida batafsil yoritilgan. Ushbu maqsadlarga erishishda ilg'or xalqaro tajribalardan foydalanib, raqamli bank xizmatlarini ommalashtirish, aholini kengroq qamrab olish va ularning bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa mamlakatimizda tijorat banklarida innovatsion bank mahsulotlarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish masalalarini ilmiy tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 9-yanvardagi PF-5296-son "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-

son “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda shu kabi bir qator sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlani-shining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Tijorat banklarining innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish, aholi uchun qulay xizmatlar yaratish va natijada banklarning daromadlarini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Federal Reserve System, Federal Deposit Insurance corporation, Office of the Comptroller of the Currency, Development Research Group, World Bank, Office of Financial Research, International Monetary Fund (AQSH), Bank of England (Buyuk Britaniya), Central Bank of Switzerland, Bank for International Settlements (Shveysariya), Central Bank of Canada (Kanada), European Central Bank (Germaniya), Bank of Japan (Yaponiya), Columbia University (AQSH), Bank Rossii, Institut Ekonomicheskoy politiki, Finansoviy universitet pri Pravitelstve Rossiyskoy Federatsii (Rossiya), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jahon miqyosida banklarning transformatsiyalashuvida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslarini takomillashtirishga oid amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: World Bank tomonidan olib borilgan “Household Financial Assesst in the Process of

Development” tadqiqoti natijalariga ko’ra moliyaviy istisnoga qaratilgan innovatsiyalar moliyaviy tizimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Yevropa moliyaviy menejment assotsatsiyasi (EFMA) tomonidan olib borilgan tahlil natijalariga ko’ra, so’nggi yillarda dunyoda Yevropa banklari innovatsion rivojlanish bo’yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Germaniyaning Statista kompaniyasi bank sektorida amalga oshadigan raqamli tranzaksiyalarning 10 yillik statistikasi 2017-yilda bank tranzaksiyalari 7.161 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo’lsa, joriy yilga kelib bu ko’rsatkich 1358 mln. AQSH dollariga yetdi. Statistaning prognoziga qaraganda, 2027-yilga kelib, 2026 mln. dollarni tashkil etishi kutilmoqda.

Dunyoning yetakchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, shuningdek, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan banklarning transformatsiyalashuvida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo’yicha quyidagi yo’nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: Bularga Ispaniyaning yetakchi universitetlaridan biri bo’lgan University of Granadada o’tkazilgan “Financial Innovations In Banking: Impact on Regional Growth” nomli tadqiqot natijasiga ko’ra mahsulot va xizmatlar ko’rsatish sohasidagi innovatsiyalar mintaqaviy YaIM, investitsiyalar va yalpi jamg’armalarning o’sishiga ijobiy hissa qo’shadi deya xulosa qilinadi. Xalqaro HKIMRning “Financial Innovation: The Bright and Dark Sides” nomli tadqiqoti natijalariga ko’ra moliyaviy innovatsiyalar tashqi moliyalashtirishga ko’proq bog’liq bo’lgan tarmoqlar o’rtasida o’zgaruvchanlikning oshishi bilan, shuningdek, banklarning yuqori beqarorligi, bank daromadlarining yuqori o’zgaruvchanligi va banklarning yo’qotishlari ortib borishini ilmiy asoslab berdi.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirishga oid ilmiy-amaliy va metodologik jihatlar Antunes Jorge, Haralayya Bhadrappa, Harker T. Patrick, Khalifaturafiah Sholikha, Lee Chi-Chuan, Xinrui Li, Chin-Hsien Yu, Lee Chien-Chiang, Chih-Wei Wang, Nguen Thanh Pham Thien, Son Hong Nghiem, Eduardo

Roca, Oluwaseyi Ebenezer, Wahyudi Setyo Tri, Kartika Sari, Zhao Jinsong, Xinghao Li, Chin-Hsien Yu, Zhao Kun, Jiaming Pi, Zhong Kaiyang, Chenglin Li, Allen N. Berger, Yener Altunbas, David Humphrey, Philip Molyneux, Joseph P. Hughes, Loretta J. Mester, Subal S. Kumbhakar, Albert Assaf, John O.S. Wilson, Yizhe Dong, Steven Fries, Anita Taci, John H. Leusner, John J. Mingo, Anatoliy Peresetsky va Veronika Belousova kabi xalqaro iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar Sh. Abdullayeva, N. Jumayev, O. Iminov, E. Xoshimov, N. Karimov, F. Mirzayev, X. Raxmatov, O. Sattarov, Z. Mamadiyarov, M. Mo‘minova, Sh. Ubayeva, N. Jiyanova, Sh. Xannayev, A. Gulyamova va boshqalar banklar samaradorligi, bank faoliyatini tahlil qilish usullari va tijorat banklari samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Biroq, alohida qayd etish joizki, tijorat banklariga moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish masalasi o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan mustaqil tadqiqot sifatida hali chuqur o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Tijorat banklari xizmatlarini umumlashtirishga xizmat qiluvchi yagona “Uzcombankbox” mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatida innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish va ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

moliyaviy innovatsiyalarning iqtisodiy mohiyati hamda asosiy vazifalarini o‘rganish;

banklarda moliyaviy innovatsiyalarni tadbiq etish bo‘yicha nazariy yondashuvlarni tahlil etish;

raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarga moliyaviy innovatsiyalarni tadbiq etish

uchun empirik statistik tadqiqotlar metodologiyasini chuqur o'rganish;

rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyasini tahlil qilish;

O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning taraqqiyot tendensiyasini o'rganish;

tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlari daromadiga ta'sir qiluvchi omillarni identifikatsiya va tahlil qilish;

yirik va kichik tijorat banklari faoliyatidagi masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni empirik tahlil qilish;

O'zbekistonda tijorat banklarining innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish yo'llarini o'rganish hamda umumlashtirish natijasida muhim taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida bank tizimi faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlaridan foydalanish hamda moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish metodologiyasini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraktsiya, ekonometrik tahlil, trend modul prognozlash, iqtisodiy-statistik, ekspert baholash, qiyosiy va tarkibiy tahlil hamda ekonometrik tahlil usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "moliyaviy innovatsiyalar" tushunchasining iqtisodiy mazmuni fan-texnika taraqqiyotiga muvofiq ravishda yangi moliyaviy operatsiyalar, vositalar, texnologiyalar, biznes modellari, institutlar yordamida moliyaviy bozorlarni nisbatan ko'proq samarali, xavfsiz va moslashuvchan qiluvchi va moliya bozori samaradorligiga hissa qo'shuvchi iqtisodiy va moliyaviy tizim nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

tijorat banklarida biznes uchun korporativ kartalarni chiqarish (KK), mobil-

ekvayring (ME), internet-ekvayring (IE) va boshqa moliyaviy innovatsiyalar (MI)dan foydalanish o'rtasidagi maqbul nisbatni ($KK:ME:MI:IE=0,45;0,21;0,19;0,15$) ta'minlash orqali innovatsion xizmatlar ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish taklifi asoslangan;

tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan innovatsion mahsulotlarni umumlashtirgan holda mijozlarga taqdim etish orqali "optimal mijoz – optimal bank" konsepsiyasiga muvofiq ishlash hajmini 65-70 foizga yetkazish orqali banklar daromadini barqarorlashuviga erishish asoslangan;

"O'zmilliybank" AJda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining oshishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida innovatsion bank xizmatlaridan olinadigan daromadlarning 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

O'zbekistonda tijorat banklarini transformatsiyalashuvida masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga monetar omillarning ta'sirini baholash orqali endogen risklarning bank daromadiga ta'sirining regression modeli asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tijorat banklari tomonidan mobil-ekvayring hamda internet-ekvayring va biznes uchun korporativ kartalarni chiqarish amaliyotlarini Turon mobayl ilovasiga ulash imkoniyati yaratish taklifi asoslangan;

davlat ulushi mavjud banklar tomonidan chiqarilgan har bir plastik kartaga to'g'ri keladigan to'lov miqdori hamda o'rnatilgan to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lov miqdori xususiy banklarga nisbatan sezilarli darajada past ekani aniqlangan.;

kichik banklarda o'rnatilgan to'lov terminallari va bankomatlar, infokiosklar soni va bankning mobil ilovalaridan foydalanuvchilar sonining o'sishi masofaviy bank xizmatlaridan olinadigan daromad darajasiga butun bank tizimidagi o'rtacha ko'rsatkich va yirik banklar ko'rsatkichlariga qaraganda yuqori ta'sir ko'rsatayotgani

kuzatilgan;

tijorat banklari faoliyatida masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga va kapitalga ko'ra rentabelligi kamayishi aniqlandi. Shuningdek, masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga nisbatan rentabelligi yirik banklarda past bo'lgan bo'lsa, kichik banklarda bu ko'rsatkich yuqoriligi hamda kichik banklarda masofaviy xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi o'zgarish chastotasi kengligi aniqlangan;

iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining bir foizga ko'tarilishi keyingi ATB Turonbankning masofaviy bank xizmatlaridan ko'radigan daromadini 0,06 foizga oshirishi hamda pul massasi o'zgarishining bank faoliyatida innovatsion mahsulotlaridan oladigan daromadiga ta'siri yo'qligi isbotlangan;

ATB Turonbank tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokiosklar sonining bir foizga oshishi esa bir oylik bankning masofaviy xizmatlaridan oladigan daromadlarini 1,23 foizga oshirsa, O'zmilliybank AJ tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokiosklar sonining bir foizga oshishi esa daromadlarini 1,79 foizga oshirishi ekonometrik strukturaviy vektorli avtoregressiya (SVAR) model orqali aniqlangan;

O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining bir foizga oshishi keyingi oyda bankning innovatsion bank xizmatlaridan oladigan daromadlarini 0,21 foizga oshirishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo'llanilayotgan yondashuv va metodlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarni rasmiy manbalardan, xususan, Qo'llanilayotgan yondashuv va metodlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarni rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligidan olinganligi, bank tizimiga doir me'yoriy hujjatlar, mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ekspert baholari va ilmiy natijalaridan foydalanilganligi, shu bilan birga tegishli xulosa va takliflarning O'zmilliybank AJ va ATB Turonbank tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy

ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy va uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni mamlakatimiz bank tizimida innovatsion mahsulotlar ko‘lamini kengaytirishga, innovatsion bank xizmatlaridan keladigan risklarni qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda, shuningdek, 2022-2026-yillarda yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida va “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasida ko‘rsatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish va ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “moliyaviy innovatsiyalar” tushunchasining iqtisodiy mazmunini fan-texnika taraqqiyotiga muvofiq ravishda yangi moliyaviy operatsiyalar, vositalar, texnologiyalar, biznes modellari, institutlar yordamida moliyaviy bozorlarni nisbatan ko‘proq samarali, xavfsiz va moslashuvchan qiluvchi va moliya bozori samaradorligiga hissa qo‘shuvchi iqtisodiy va moliyaviy tizim nuqtayi nazaridan takomillashtirish yuzasidan nazariy va uslubiy ma’lumotlardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Bank ishi va audit” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda moliyaviy bozorlarni nisbatan ko‘proq samarali, xavfsiz va moslashuvchan qiluvchi va moliya bozori samaradorligiga hissa qo‘shuvchi iqtisodiy va moliyaviy tizim nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan “moliyaviy innovatsiyalar” tushunchasiga oid nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

tijorat banklarida biznes uchun korporativ kartalarni chiqarish (KK), mobil-

ekvayring (ME), internet-ekvayring (IE) va boshqa moliyaviy innovatsiyalar (MI)dan foydalanish o'rtasidagi maqbul nisbatni ($KK:ME:MI:IE=0,45;0,21;0,19;0,15$) ta'minlash orqali innovatsion xizmatlar ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish taklifi "O'zmilliybank" AJ tomonidan ishlab chiqilgan, 2021-2025-yillarga mo'ljallangan asosiy Bank strategiyasiga kiritilgan (O'zmilliybank AJning 2023-yil 10-oktyabrdagi 02/2-6725/02-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ilg'or tajriba va texnologiyalarni jalb qilish orqali jozibador bank mahsulotlari to'plami va uzluksiz raqamli mijozlar tajribasini yaratishga hamda individual, yuqori sifatli xizmat ko'rsatish orqali "tayyor" bank xizmatlarining to'liq ko'lamini taqdim etishga, pirovardida universal bank uchun zarur bo'lgan keng mijozlar bazasi va kuchli bozor pozitsiyasini egallashga olib keladi;

tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan innovatsion mahsulotlarni umumlashtirgan holda mijozlarga taqdim etish orqali "optimal mijoz – optimal bank" konsepsiyasiga muvofiq ishlash hajmini 65-70 foizga yetkazish orqali banklar daromadini barqarorlashuviga erishishga doir taklifi O'zmilliybank AJ va ATB Turonbank faoliyatiga joriy etilgan (O'zmilliybank AJning 2023-yil 10 oktyabrdagi 02/2-6725/02-son, ATB Turonbankning 2023-yil 30-oktyabrdagi 23/03-381-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "O'zmilliybank" AJda Standard z-score ko'rsatkichini 95% ehtimollik bilan 2021-yilda 1,678 dan 2022-yilda 2,145 ga oshirish hamda ATB Turonbankda 2021-yilda 2,145 dan 2022-yilda 2,452 ga oshirish orqali bankda risk darajasi kamaytirishga erishilgan;

"O'zmilliybank" AJda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining oshishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida innovatsion bank xizmatlaridan olinadigan daromadlarning 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan №DGU 36337-sonli "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazasi" uchun guvohnomasi asosida yaratilgan Uzcombankbox mobil ilovasidan foydalanish taklifi O'zmilliybank AJ faoliyatiga joriy

etilgan (O‘zmilliybank AJning 2023-yil 10-oktyabrdagi 02/2-6725/02-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining bir foizga oshishi keyingi oyda bankning masofaviy bank xizmatlaridan oladigan daromadlarini 0,21 foizga oshirishi ekonometrik strukturaviy vektorli avtoregressiya model orqali aniqlangan va asoslab berilgan;

O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiyalashuvida masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga monetar omillarning ta’sirini baholash orqali endogen risklarning bank daromadiga ta’sirining regression modeli asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanishga doir taklifi ATB Turonbank faoliyatiga joriy etilgan (ATB Turonbankning 2023-yil 30-oktyabrdagi 23/03-381-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining bir foizga oshishi keyingi bankning masofaviy bank xizmatlaridan ko‘radigan daromadini 0,06 foizga oshirishi hamda pul massasi o‘zgarishining bankning innovatsion mahsulotlaridan oladigan daromadiga ta’siri yo‘qligi ekonometrik strukturaviy vektorli avtoregressiya model orqali aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan 5 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda **12 ta maqola, jumladan, 10 ta respublika va 2 ta** xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalarni o‘z ichiga olgan holda 224 betdan iborat.

1-BOB. BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASHUVIDA MOLIYAVIY INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Banklarni transformatsiyalashuvida moliyaviy innovatsiyalarni vujudga kelishi va uning nazariy asoslari

Bank tizimida innovatsion axborot texnologiyalarini keng joriy etish mamlakatda milliy to'lov tizimini qisqa vaqt ichida yaratish imkonini bermoqda. Bu tizim xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida hisob-kitoblarni aniq va o'z vaqtida amalga oshirishni ta'minlab, moliya bozorimiz barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, u davlatimiz pul-kredit siyosatini samarali yuritish, milliy va xalqaro to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish hamda pul oqimlarini boshqarishda sezilarli ahamiyat kasb etadi. Markaziy bankning veb-sayti orqali davlat interaktiv xizmatlari taqdim etilmoqda, bu esa aholiga qo'shimcha qulaylik yaratmoqda. Mobil telefonlardan keng foydalanish sababli banklar mobil-banking (wap-banking) va sms-banking xizmatlarini ham yo'lga qo'ydi. Bugungi kunda bank mijozlarining 85 %i ushbu xizmatlardan foydalanmoqda.

Bank sektoridagi raqamli transformatsiya iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli davrda biznes bozorining barcha subyektlari, jumladan, banklar ham yangicha sharoitda faoliyat olib bormoqda. Yangi bank mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish jarayoni bir qator omillar bilan bog'liq: innovatsion bank texnologiyalarini rivojlantirish, avtomatlashtirish va telekommunikatsiya jarayonlarining globallasuvi hamda bank xizmatlarida menejment va marketing texnologiyalarini qo'llash. Biroq, mutlaqo yangi mahsulot yoki xizmatni yaratish uzoq va murakkab jarayon bo'lib, asosan, mavjud biznes modellarining raqamli transformatsiyalar orqali takomillashtirilishi ustuvorlik kasb etmoqda.

Tijorat banklari o'z asosiy maqsadlariga muvofiq beshta asosiy funksiyani bajarishga e'tibor qaratadi: to'lovlarni amalga oshirish, to'lovlarni qabul qilish, amaliy ma'lumotlarni olish, qarz mablag'larini jalb qilish va mablag'larni investitsiya qilish.

Ushbu xizmatlar orqali bank mijozlarni jalb qilish va ularni ushlab qolishga intiladi. Huddi chakana banklar singari, tijorat banklari ham mijozlarga real qiymat qo‘shuvchi, foydalanishga qulay xizmatlarni taklif etishi zarur. Tijorat banklari chakana bank xizmatlaridan, ayniqsa, raqamlashtirish bo‘yicha, ko‘p narsalarni o‘rganishi mumkin, chunki chakana banklar odatda bu sohada ancha rivojlangan.

Raqamli transformatsiya bank xizmatlarini ko‘rsatishda zamonaviy usullarni keng tatbiq etishni o‘z nazarda tutadi. Natijada, onlayn xizmatlar ko‘proq keng tarqalmoqda, shu bilan filiallarni siqib chiqarib, ularni kamaytirmoqda. Bank xizmatlarini bunday o‘zgartirish o‘zining kamchiliklari va amalga oshirishdagi muammolarga ega. Bu muammo ayniqsa, rivojlanayotgan iqtisodiy tizim sifatida O‘zbekiston Respublikasi uchun dolzarbdir.

Ta’kidlash joizki, shu yilning birinchi choragida banklarning ushbu xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 50 %ga oshdi. Elektron tijorat, kredit va debet kartalari, depozitlar va boshqa qulayliklar bo‘yicha zamonaviy bank xizmatlarini takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan izlanishlar miqyosi tobora kengayib bormoqda. Innovatsiya mohiyatiga oid iqtisodiy qarashlarning kelib chiqishini qadimdan ko‘rish mumkin. Davrlar o‘zgarishi bilan moliya bozori va umuman iqtisodiyot faoliyatida innovatsiyalarning ro‘li oshdi. Ilmiy adabiyotlarda “innovatsiya” tushunchasining turli xil izohlari mavjud. Ko‘plab manbalarda innovatsiya yangi mahsulot, xizmat yoki jarayonning amaliy rivojlanishi natijasida amalga oshirilgan sarmoya sifatida ko‘rib chiqiladi. Lotin tilidagi “novation” so‘zidan kelib chiqqan innovatsiya ilgari mavjud bo‘lmagan yangiliklar, masalan, turli sohalardagi ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar yoki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning yangi usullari sifatida izohlanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda “innovatsiya” atamasiga yagona ta’rif berilmagan. Ammo bu tushunchani izohlashda ikki yondashuv ajratib ko‘rsatiladi: tor va keng. Tor yondashuvda innovatsiya texnik yangiliklar va sanoat ishlab chiqarishiga (masalan, yangi texnologiyalar) qaratiladi. Keng yondashuvda esa innovatsiya yangi mahsulot

yoki xizmat, ishlab chiqarish usuli, shuningdek, moliyaviy, tashkiliy va ilmiy-texnikaviy kabi turli sohalarda yangi kashfiyotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotimizda biz keng yondashuvga e’tibor qaratamiz.

Iqtisodchilar orasida innovatsiyalarning paydo bo‘lishi odamlar va tashkilotlarning o‘z manfaatlarini maksimal darajada oshirish istagidan kelib chiqadi, degan fikr keng tarqalgan.

Fikrimizcha, “innovatsiya” atamasi shunchaki innovatsiyadan nisbatan chuqurroq tushunchadir, chunki yakuniy mahsulotni yaratish (tijoratlashtirish) bosqichini ham o‘z ichiga qamrab oladi. 1998-2000-yillarda Xalqaro innovatsion siyosat konsepsiyasida bu atamaga quyidagi ta’rif berilgan: “innovatsiya (yangilik kiritish) - bu bozorda sotiladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda ishlatiladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon shaklida amalga oshirilgan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasidir¹.

Ba’zi tadqiqotchilar innovatsiyalarning yuzaga kelishini ikki asosiy sabab bilan izohlaydilar. Birinchisi — “texnologik turtki”, ya’ni innovatsiyalar ishlab chiqarishning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqadi; ikkinchisi esa innovatsiyalarni yaratishga bo‘lgan “talab” bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonga rag‘bat beradi. Innovatsiyalarning asosiy manbalari orasida o‘sib borayotgan ehtiyojlarni qondirishdagi cheklovlar hamda jamiyat tomonidan to‘plangan ilmiy va intellektual salohiyat muhim rol o‘ynaydi.

Innovatsiyalar mohiyatini o‘rgangan dastlabki tadqiqotchilardan biri N.D.Kondratyev bo‘lib, u ixtirolar paydo bo‘lganidan so‘ng innovatsiyalar oqimi sifatida shakllangan uzun to‘lqinlar yoki katta sikllar konsepsiyasini ilgari surgan. N.D.Kondratiev ayirboshlash va ishlab chiqarish texnologiyasining sezilarli o‘zgarishida namoyon bo‘ladigan katta siklning yuqori to‘lqini boshlanishidan oldin

¹ Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 1998 yil 24 iyuldagi 832-sonli “Rossiya Federatsiyasining 1998-2000 yillarga mo‘ljallangan innovatsion siyosati kontsepsiyasi to‘g‘risida” qarori. [Elektron resurs] - Kirish tartibi: <https://base.garant.ru/179112/> (murojaat etilgan sana: 25.03.2019).

jamiyat sharoitida sezilarli o'zgarishlarni aniqladi².

Kondratyev tomonidan taklif qilingan iqtisodiyotning tizimli rivojlanishi g'oyalari avstriyalik iqtisodchi J.Y.Shumpeter (1883-1950) tomonidan qo'llanilgan va keyingina "innovatsiya" tushunchasini shakllantirgan. Shumpeter 1930-yilda birinchi marta "innovatsiya" atamasini qo'llagan va bu bilan yangi tovar va xizmatlarni joriy etish hamda ulardan foydalanishni nazarda tutuvchi o'zgarishlarni anglatgan³. O'z tadqiqotlarida u innovatsiyalarning turli kombinatsiyalarini tavsiflab, innovatsion jarayonning xususiyatlarini ochib bergan. Shumpeter innovatsiyani turli resurslarning biznes bilan birlashtirilgan nostandart kombinatsiyalari natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar yig'indisi sifatida ta'riflagan, bu jarayon natijasida mazkur resurslar innovatsiyalarga aylanadi⁴.

Shumpeterning fikricha, kapitalizm doimo harakatda bo'lgan va hech qachon turg'un qolmaydigan tizimdir. U yangilik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi mustahkam bog'liqlikni asoslaydigan nazariyani yaratdi, bunda texnologik taraqqiyot kapitalizmning ishsizlik, ijtimoiy tengsizlik va inflyatsiya kabi muammolarini yechishda muhim rol o'ynaydi. Shumpeter va uning izdoshlari texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy o'sish imkoniyatlariga optimistik qarashadi. Biroq, faqat texnologiya mavjudligi o'z-o'zicha iqtisodiy o'sishni ta'minlay olmaydi. Buning uchun texnologik imkoniyatlar va ulardan foydalanish o'rtasidagi farqni tushunish zarur.

Shumpeterning yondashuvi asosida Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) innovatsiyalarni quyidagi toifalarga ajratishni taklif qildi⁵:

innovatsion mahsulotlar;

² N.D.Kondratiev, Katta konyuktura sikllari va bashorat nazariyasi: tanlangan asarlar / N.D.Kondratiev. - M.: Akademik loyiha, Alma Mater, 2015. - 642 b.

³ Schumpeter J. Business Cycles: A Theoretical, Historical, and Statistical Analysis of the Capitalist Process / J. Schumpeter

⁴ I.A.Shumpeter Kapitalizm, sotsializm va demokratiya / I. A. Shumpeter. - M.: Iqtisodiyot, 1995. - 540 b.

⁵ Oslo qo'llanma. Innovatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar uchinchi nashri, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Ye vropa hamjamiyatlari statistika boshqarmasi, Moskva, 2006. - 192b.

innovatsion jarayonlar;

innovatsion marketing;

innovatsion usullar.

Bu toifalardagi har qanday yangi ishlanma innovatsiya sifatida qabul qilinadi, agar uni amalga oshirgan subyekt tomonidan yangilik deb qabul qilinsa va shu bilan birga bu yechimlar boshqa tashkilotlar tomonidan ham qo'llanilishi mumkin bo'lsa.

E.Rojers ta'rifiga ko'ra⁶, innovatsiya — bu o'ziga xos yangilik sifatida qabul qilingan g'oya bo'lib, asosiy omil bu yangilikning obyektiv yangi ekanligida emas, balki uni individual darajada qanday qabul qilinishida. Shu nuqtayi nazardan, innovatsiyalar, birinchi navbatda, ularning funksiyalari va imkoniyatlaridan ko'ra, foydalanuvchilarning idrokiga asoslanadi. Shundan kelib chiqadiki, mahsulot va xizmatlar o'z-o'zicha innovatsiya hisoblanmaydi.

Bizningcha, bu ta'rif munozaralidir, lekin amaliy jihatdan qaraganda, iste'molchi o'ziga mos imkoniyatlarga ega bo'lgan yakuniy mahsulot yoki xizmatni qadrlaydi, bu esa funktsiyalar va imkoniyatlarning belgisi hisoblanadi.

Innovatsiyalarni tasniflash bo'yicha mavjud pozitsiyalarga qaramay, tadqiqotchilar o'rtasidagi asosiy qarama-qarshiliklar yakuniy natija va jarayon bo'yicha yuzaga kelmoqda. Ko'plab xorijiy va mahalliy ilmiy ishlar innovatsiyani ma'lum natijaga ega bo'lgan yangi mahsulot yoki xizmatni yaratish va joriy etish jarayoni sifatida ko'rib chiqadi.

J.Shumpeter nazariyasining izdoshlari – D. Gelbreyt, J. Klark, J. Bernal, K. Friman va boshqalar – texnologik yangiliklarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini o'rganib, bu nazariyaning to'g'riligini isbotladilar. J. Styuart Mill esa innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning ta'sirini o'rgandi.

Axborot jamiyati konsepsiyasini ishlab chiqqan va menejment nazariyasining⁷ asoschilaridan biri P.Druker innovatsiyalar nazariyasini shakllantirishda katta hissa

⁶ Federal Reserve Bank of Atlanta, Economic Review. At1gt1st, 1983, P .

⁷ P.Druker , Biznes va innovatsiyalar / P.Druker // M.: Uilyams , 2007 - 423 b.

qo‘shgan. U bozor liderlari jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar davrida yangi texnologiyalarga tezda moslashishi, eski va tanish usullardan voz kechib omon qolishi mumkinligini isbotladi. Druker o‘zining “innovatsiya intizomi”⁸ ma’ruzasida innovatsiya jarayonini uch asosiy ustunga bog‘laydi:

- tashkilotning vazifasini to‘g‘ri tushunish;
- natijalarga e’tibor qaratish;
- texnologiyalarga tanqidiy yondashish.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, innovatsiya deganda mavjud ehtiyojlarni samarali qondirish yoki yangi ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan, ijobiy iqtisodiy va ilmiy-texnik ta’sirga ega, innovatsion g‘oya va taraqqiyotning kombinatsiyasiga asoslangan modernizatsiyalangan mahsulot (xizmat, jarayon, texnologiya, institut) yaratish natijasi tushuniladi.

Moliya bozorida va pul asosida amalga oshiriladigan innovatsiyalar “moliyaviy innovatsiyalar” deb ataladi. Ba’zi yondashuvlarda moliyaviy innovatsiyalar moliyaviy-kredit sohasidagi⁹ o‘zgarishlarni, moliyaviy vositalar va moliya sektoridagi yangi amaliyotlarni ham o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy innovatsiyaning ta’rifi, “innovatsiya” talqinidan farqli bo‘lib, yangi moliyaviy institutlarni yaratish imkoniyatini nazarda tutadi.

Garvard biznes maktabi professorlari J. Lerner va P. Tufanotga ko‘ra, moliyaviy innovatsiyalar — bu yangi moliyaviy texnologiyalar, vositalar, institutlar va bozorlarni yaratish va ularni ommalashtirish jarayonidir. Ular moliyaviy innovatsiyalarni mahsulot innovatsiyalari (qimmatli qog‘ozlar, investitsiya mahsulotlari, derivativlar) va texnologik innovatsiyalar (qimmatli qog‘ozlarni tarqatishning yangi usullari, ishlov berish va narxlash jarayonlariga xos jarayonlar)¹⁰ sifatida tasniflaydilar. Shu bilan

⁸ B.Mejuev , P.Druker va uning innovatsiya nazariyasi / B.Mejuev // [Elektron resurs] - Kirish tartibi : <http://WWW.v.archipelag.ru/geoecono-mics/osnovi/leader/theory> (murojaat etilgan sana : 18.10.2018).

⁹ V.I.Suslov, M.V.Lychagin, Moliyaviy innovatsiyalar: Xorijiy tajriba. - Novosibirsk: Fan, 1997.-160 b.

¹⁰ Lerner, J. The Consequences of Financial Innovation: A Counterfactual Research Agenda / J. Lerner, P. Tufano //

Annual Review of Financial Economics. - 2011. - Vol. 3. - P. 41-85 (Elektron resurs) - Режим доступа : <https://ssrn.com/abstract=1981825> (дата обращения : 04/12/2018).

birga, innovatsiya jarayoni va innovatsion mahsulot ko‘pincha bir-biriga uzviy bog‘langan bo‘ladi. Moliyaviy innovatsiyalarni yaratish va tarqatish ham bir-biriga chambarchas bog‘liq, chunki ko‘p hollarda moliyaviy innovatsiyalar avvalgi mahsulotlarning evolyutsion moslashuvidir.

E.Shurenbergning fikricha, moliyaviy innovatsiyalar moliyaviy tizimni takomillashtirishga yordam beradigan innovatsiyalardir¹¹. I.T.Balabanov ta‘rifiga ko‘ra: “Moliyaviy innovatsiyalar moliyaviy resurslardan unumli foydalanish, risklar rentabelligi, likvidlik va shu sharoitda yetarlicha baholanmagan ma‘lumotlarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan moliyaviy mahsulotdir”¹².

A.V.Andreevaning fikricha, moliyaviy innovatsiya - bu kreditorlar, investorlar, qarz oluvchilar va moliya bozorining boshqa ishtirokchilari ehtiyojlariga mos keladigan ma‘lum darajadagi xavflar, likvidlik va rentabellikni o‘z ichiga olgan pul resurslarini qayta taqsimlash shakli sifatida yangi moliyaviy vositalar yaratishdir¹³.

Moliyaviy innovatsiyalarning quyidagi ko‘rinishdagi ta‘riflari mavjud:

foyda olish va risklar darajasini pasaytirish uchun yangi moliyaviy vositalar va moliyaviy texnologiyalarni yaratish¹⁴. Ba‘zi manbalarda ular “moliya institutlari, moliyaviy vositalar yoki moliyaviy xizmatlar sohasida biznes amaliyotidagi o‘zgarishlar” deb talqin qilinadi¹⁵.

E.Rojers innovatsion jarayonni yangi g‘oyalar, mahsulot va xizmatlarni ixtiro qilish va ularni tarqatish bosqichlaridan iborat deb hisoblaydi¹⁶.

B.A.Raizbergning zamonaviy iqtisodiy lug‘atida esa quyidagicha ta‘rif berilgan:

“Moliyaviy innovatsiyalar - zamonaviy texnik va axborot vositalari, kompyuterlar, internetdan foydalangan holda pul o‘tkazish, kredit berish va olish

¹¹ Schurenberg, E. Eight financial Innovations to believe n. (Elektron resurs) – Kirish tartibi: <https://WWW.cbsnews.com/news/eight-financial-innovations-to-believe-in/> (murojaat etilgan sana: 17.05.2018).

¹² I.T.Balabanov, Innovatsiyalarni boshqarish: darslik / I.T.Balabanov. - Sankt-Peterburg.: Piter, 2008. - 340 b.

¹³ A.V.Andreeva, Bank xizmatlari bozorini rivojlantirishda moliyaviy innovatsiyalarning o‘rni / A.V.Andreeva // Bank xizmatlari. - 2010. - No 6. - 32b.

¹⁴ Ilmiy va innovatsion faoliyat federal portali (Elektron resurs) - Kirish tartibi: http://WWW.sci-innov.ru/law/base_terms (murojaat etilgan sana 18.10.2018).

¹⁵ Iqtisodiyot. Izohli lug‘at / umumiy nashr: prof. I. M. Osadchaya. - M.: INFRA-M, Butun dunyo. 2000. – 15b.

¹⁶ Rogers, E. M. The Diffusion of Innovations /E.M.Rogers // New York. Free Press, 1983. - 576 p.

uchun moliya institutlari tomonidan ishlab chiqilgan yangi moliyaviy mahsulotlar va jarayonlar”¹⁷.

Iqtisodiyot bo‘yicha qo‘llanmalarda moliyaviy innovatsiyalar moliya institutlari tomonidan yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish deb tushuniladi. Ayrim iqtisodiy lug‘atlar moliyaviy innovatsiyalarni moliya sohasida sodir bo‘layotgan va yangi vositalar hamda jarayonlarga olib keluvchi o‘zgarishlar majmui sifatida tavsiflaydi.

E.F.Jukovning fikriga ko‘ra, moliya institutlari moliya bozorining boshqa segmentlarida paydo bo‘layotgan mahsulotlar, operatsiyalar va vositalarga tobora ko‘proq e‘tibor qaratib, ularni qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish manbasi sifatida ko‘radi¹⁸.

A.G.Gryaznova tahriri ostidagi moliyaviy-kredit ensiklopedik lug‘atda moliyaviy innovatsiyalar yangi moliyaviy mahsulot yoki vosita sifatida ta’riflanadi¹⁹.

Bizningcha, moliyaviy innovatsiyalarni moliya bozorining har qanday segmentida amalga oshiriladigan barcha innovatsiyalar sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Palgrave fikriga ko‘ra, moliyaviy innovatsiya “ijodiy agentlar moliyaviy bozorlardagi nomukammalliklarni bartaraf etganliklari uchun mukofotlanganda”, shuningdek, “moliyaviy vazifani arzonroq yoki samaraliroq bajarishi uchun eskilarini yangilariga o‘zgartirganda”²⁰ paydo bo‘lishi mumkin deya ta’rif beradi. Amerikalik iqtisodchi J.Van Xorn moliyaviy innovatsiyalarni moliyaviy tizimning asosiy ustunlaridan biri, shuningdek, moslashuvchan va samarali kapital bozorlarining qon

¹⁷ B.A.Raizberg, Zamonaviy iqtisodiy lug‘at / B.A.Raizberg, L.Sh.Lofovskiy, E.B.Starodubtseva. - 6-nashr, tahrirlangan va qo‘shimcha qilingan - M.: INFRA-M, 2011. [Elektron resurs] - Kirish tartibi: [http://WWW.consultant.ru/document /cons_doc_LAW_67315/c151b760696d665265187501c51f38cd84503634/](http://WWW.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_67315/c151b760696d665265187501c51f38cd84503634/) (murojaat etilgan sana 10.05.2019).

¹⁸ E.F.Jukov, Qimmatli qog‘ozlar bozori. Darslik . - 3-nashr, tahrirlangan va qo‘shimcha qilingan / E. F. Jukov / - M. : Unity-Dana. 2009 - 566 b.

¹⁹ Moliyaviy va kredit ensiklopedik lug‘ati / A. G. Gryaznova bosh tahririyati ostida . - M. : Moliya va statistika , 2004. – 367b.

²⁰ Newman, P. The New Palgrave Dictionary of Money and Finance, 3 Volume Set / P. Newman, M. Millgate, J. Eatwell. - London: MacMillan, 1992. - 860 p.

tomiri deb ta'riflaydi. U moliyaviy innovatsiyalarni xarajatlar va risklarni kamaytirish yoki mahsulot, xizmat va vositalarni yaxshilashga qaratilgan yangilik sifatida izohlaydi.

Turli mamlakatlarning yetakchi olimlari tomonidan taklif etilgan moliyaviy innovatsiyalar mohiyatini o'rganish va ularga tayangan holda shuni aytish mumkinki, moliyaviy innovatsiyalarning yagona ta'rifi yo'q. Bu holat moliyaviy innovatsiyalarning murakkab tabiati va unga ta'sir etuvchi ko'plab omillar bilan izohlanadi.

Tijorat banklarida innovatsiyalarni qo'llash va ularni joriy etishning nazariy asoslari turli tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Masalan, Z. Mamadiyarov ta'kidlashicha, bank mahsulotlarini raqamlashtirish bank-moliya tizimini tubdan o'zgartirish salohiyatiga ega, ammo bu jarayon muvaffaqiyatli bo'lishi uchun strategik va yaxlit yondashuv talab qilinadi. Innovatsiyalar, hamkorlik va doimiy takomillashtirishni o'z ichiga olgan holda, banklar o'z mijozlari, manfaatdor tomonlar va umuman jamiyat uchun qiymat yaratish imkoniyatiga ega bo'lib, raqamli asrda bank faoliyatining kelajagini shakllantirish uchun moliyaviy texnologiyalarning kuchidan foydalana oladilar²¹. Iqtisodchi S.Ne'matova esa iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirish sharoitida moliya bozorining funksiyalarini takomillashtirish va uning asosiy ishtirokchisi bo'lgan bank tizimi uchun muqobil ishlash strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Shuningdek, tijorat banklarining asosiy vazifalaridan biri sifatida innovatsion moliyaviy xizmat turlarini mijozlarga taqdim etish va ularning ommabopligini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi²². Ushbu tadqiqotlar tijorat banklarida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishning nazariy asoslarini to'g'ridan-to'g'ri ochib bermagan bo'lsada mavzuni yoritishga qisman yordam beradi.

²¹ Newman, P. The New Palgrave Dictionary of Money and Finance, 3 Volume Set / P. Newman, M. Millgate, J. Eatwell. - London: MacMillan, 1992. - 860 p.

²² Ne'matova Sh (2024). O'zbekistonda bankni rivojlantirishda innovatsion xizmat turlarini joriy etish yo'llari, Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | 2023.

D.Kurbanova ilmiy maqolasida iqtisodiyotning innovatsion tarmoqlarini rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlash esa davlat iqtisodiy siyosatining strategik vazifalaridan biri ekanligini ta‘kidlaydi. Tijorat banklarining innovatsiyalarni faoliyatiga joriy etishi mamlakatning iqtisodiy o‘shishiga, jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirishga va iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga, shu jumladan, moliyaviy tarmoqlar rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Kurbanovaning fikricha, banklarning innovatsion faoliyati murakkab jarayon bo‘lib, unda yangi g‘oyalar va mahsulotlar bank hamda mijoz manfaatlariga mos kelib, uzluksiz davom etishi orqali bank muvaffaqiyati ta‘minlanadi. Shu sababli, banklarning raqobatbardoshligi va ularning samaradorligi turli vositalar — axborot texnologiyalari, boshqaruv va marketing orqali yangi xizmatlarni taqdim etish bilan bevosita bog‘liqdir²³.

Xususan, M.M.Abduraxmonova bank innovatsiyalari sifatida bank moliyaviy texnologiyalarga urg‘u berib, ular moliya xizmatlardan foydalanish imkonini oshirganligi sababli bank tizimi inklyuziyasi darajasini ko‘taradi deb hisoblaydi²⁴. Jumladan, F.Yuldashvning fikricha, bank innovatsiyalari quyidagi bir qator xususiyatlarga ega:

- innovatsiyalar qisqa hayot sikliga ega bo‘ladi;
- bank sohasidagi eng muvaffaqiyatli innovatsiyalar tez ommalashish xususiyatiga ega;
- minimal xarajatlar bilan bank innovatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, ayniqsa nazariy tadqiqotlarni olib borish imkoniyati mavjud;
- innovatsiyalarning zanjirli tabiati mavjud bo‘lib, bunda bir innovatsiya

²³ Kurbanova D. «Tijorat bank biznesini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish» Global dunyoda ilm-fan va ta‘limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari 15 dekabr, 2022-yil.

²⁴ Абдурахманова, М. (2023). Банковские инновации как элемент формирования и развития цифрового банкинга в современной банковской системе Узбекистана. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(4), 83–87. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp83-87>;

mijozlarning ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish uchun boshqa innovatsiyalarni yaratishga zarurat va imkoniyat yaratadi²⁵.

Iqtisodchi olim N.Akramova o'zining ilmiy ishida "Innovatsion texnika va texnologiyalarni yaratish ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan riskni kamaytiradi, uzoq muddatga mo'ljallangan tadqiqot va ishlab chiqarish sikllari moliyalashtirilishi takomillashadi hamda xorijiy firmalar bilan strategik hamkorlik rivojlanadi"²⁶ deb innovatsiya mohiyatini tushuntirib bergan. A.Utayevning "Bank tizimida innovatsiyalar orqali raqamli transformatsiyani amalga oshirish va zamonaviy bank menejmentini rivojlantirish" mavzusidagi maqolasida bank tizimida innovatsiyalar orqali raqamli transformatsiyani amalga oshirish va uning tashkiliy jihatlarini o'rganish natijasida tijorat banklarida transformatsiya jarayonini samarali tashkil etish nafaqat bank faoliyatida, balki bank sohasida yuzaga kelayotgan bir qator muammolarni hal qilishda ham foyda keltirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Utayevning fikricha, bu jarayon bank tizimining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, shuningdek, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega investorlarga tanlov asosida sotish imkoniyatini yaratadi²⁷.

Amaliyotchi olim H.Qayumova o'zining "Fintech kompaniyalari va an'anaviy banklar o'rtasidagi raqobat va hamkorlik" nomli maqolasida, "Fintech va an'anaviy banklar o'rtasidagi munosabatlar dinamik rivojlanmoqda. Kelajakda bu ikki sektor o'rtasidagi chegaralar yanada xiralashishi, integratsiyalashgan moliyaviy ekotizimlar shakllanishi kutilmoqda. Bu esa o'z navbatida moliyaviy xizmatlar sifatining oshishi va innovatsiyalarning jadallashuviga olib kelishi mumkin"- deya xulosa qilgan²⁸.

Professor K. Mirzayev tomonidan yozilgan "Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank

²⁵ Юлдашев Ф.А. Управления рисками в инновациях банков Узбекистана//Современные технологии управления – Киров, 2012. –№6 (18). – С.35-40.

²⁶ Akramova N. O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini tatbiq etish va rivojlantirish. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, may-iyun, 3/2022. – 12 b.

²⁷ Utayev A. Bank tizimida innovatsiyalar orqali raqamli transformatsiyani amalga oshirish va zamonaviy bank menejmentini rivojlantirish // International Journal of Finance and Digitalization www.ijfd.uz ISSN: 2181-3957 Vol. 3 Issue 02, 2024

²⁸ Qayumova H.. Fintech kompaniyalari va an'anaviy banklar o'rtasidagi raqobat va hamkorlik // Journal of Economy, Tourism and Service Vol. 3, No. 08, 2024 ISSN:2181-435X.

va moliyaviy texnologiyalarning rivojlanishi” mavzusidagi ilmiy ishda tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida faoliyat olib borishga o‘tishi yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi va butun dunyo bo‘ylab keng tarqalishiga javob sifatida ko‘riladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish bilan birga, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish imkonini berishi ta’kidlanadi²⁹. M.Holov tomonidan yozilgan “Bank innovatsiyalari va raqamli iqtisodiyot sharoitida kredit skoringining takomillashuvi” mavzusidagi ilmiy ishda O‘zbekistonda zamonaviy banklarning innovatsion samaradorligini oshirish masalasi o‘rganilgan³⁰.

Bank tizimi turli sohalarga mablag‘lar oqimini osonlashtirish orqali iqtisodiyotda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq, iqtisodiyotni raqamlashuvi hamda banklarni virtuallashuvi zaruriyati mazkur sohada jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan mahalliy olimlardan E.Asqarovning ishlarida muammoli kredit - bu qarz oluvchi to‘lay olmaydigan ssudadir. Bunday qarz oluvchilar aksariyat o‘zlarining moliyaviy imkoniyatlarini inobatga olmasdan bir nechta kredit oladilar, natijada ular uchun qarzlarning hech bo‘lmaganda bir qismini qaytarish majburiyatini bajarish qiyinlashib qoladi³¹.

G‘.Safarova va Z. Bohodirovning tadqiqotida banklar, nobank moliya institutlari, birjalar, brokerlik va dilerlik kompaniyalari, depozitariylar kabi tashkilotlar tashqi va ichki tahdidlardan himoyalaniishi kerak bo‘lgan qimmatli va maxfiy ma’lumotlar bilan ishlashi ta’kidlangan. Shuningdek, ularga joriy etilgan innovatsiyalarning samaradorligini o‘rganish bilan birga, bu tashkilotlar duch kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni tahlil qilish va o‘rganish zarurligi qayd etilgan³².

²⁹ Mirzayev K. «Tijorat banklarining chakana kreditlash amaliyotini takomillashtirish» mavzusidagi iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati T.: – 2023. 25 b.

³⁰ Holov M. Bank innovatsiyalari va raqamli iqtisodiyot sharoitida kredit skoringining takomillashuvi. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya

³¹ Asqarov E. "Moliyaviy xizmatlarda fintechning qo‘llanilishi va muhimligi." Yosh Tadqiqotchi Jurnal scientific journal impact factor 4.7 Vol. 1 No. 5 (2022).

³² Safarov G‘., & Bohodirov Z. (2022). Tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlar. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va tadqiqotlar jurnali 17-son 2023-yil, 5(5), 56-65.

Mahalliy olimlarimizning ko‘plab ilmiy ishlarida tijorat banklarining raqamlashtirilishi, ularni an’anaviy tizimdan zamonaviy tizimga o‘tkazish hamda bank mijozlariga oson, tez va qulay xizmat va mahsulotlar taklif etish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Ular banklardagi moliyaviy innovatsiyalarga turlicha yondoshishgan bo‘lib, professor Z.Mamadiyarov bank xizmatlarini masofadan ko‘rsatish bugungi zamon talabi ekanligini ta’kidlagan bo‘lsa, iqtisod fanlari dokroti M.Mo‘minova bank ko‘rsatadigan barcha xizmatlarni innovatsion amalga oshirish hamda ularni xavfsizligini ta’minlash maslalariga ko‘proq e’tibor berganini kuzatish mumkin.

Bizning fikrimizcha, banklardagi moliyaviy innovatsiyalar faqat yangi moliyaviy vositalar, mahsulotlar yoki texnologiyalarni yaratish bilan cheklanmaydi. Unga yangi moliyaviy hisobot tartib-qoidalari, kredit reytinglari va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlarni ham qo‘shish mumkin. Innovatsiyani moliyaviy innovatsiyaga aylantiruvchi asosiy omil — innovatsion siklning yakuniy bosqichi bo‘lib, bu bosqichda yakuniy moliyaviy mahsulot yaratiladi. Bizningcha, innovatsiya — bu joriy etilayotgan sohada ijobiy o‘zgarishlar, sifat yoki miqdoriy yaxshilanishlar hamda taraqqiyotga olib keladigan yangilikni amaliyotga joriy etishning tugallangan jarayonidir.

1.1-jadval

Moliyaviy innovatsiyalarning turlicha talqinlari³³

Muallif	Ta’rif	Manba
J. Lerner va P. Tufanot	Yangi moliyaviy texnologiyalar, vositalar, institutlar va bozorlarni yaratish va yanada ommalashtirish.	Leraer, J. The Consequences of Financial Innovation: A Counterfactual Research Agenda / J. Lerner, P. Tufano // Annual Review of Financial Economics. 2011. - Vol. 3. - P. 41-85 [Elektron resurs] - Kirish tartibi: https://ssrn.com/abstract=1981825 (murojaat etilgan sana: 04/12/2018).
E. Rojers	Yangi g‘oyalar, mahsulot va xizmatlarni ixtiro qilish hamda ularni tarqatish bosqichlaridan iborat.	Rogers, E. M. The Diffusion of Innovations / E. M. Rogers. - New York : Free Press, 1983.

³³ muallif tomonidan tuzilgan.

E. Shurenberg	Innovatsion jarayon yangi g'oyalar, mahsulot hamda xizmatlarni ixtiro qilish va tarqatish bosqichlaridan iborat.	Schurenberg, E. Eight financial Innovations to believe in / E. Schurenberg [Elektron resurs] - Kirish tartibi: https://www.cbsnews.com/news/eight-financial-innovations-to-believe-in/ (murojaat etilgan sana: 17.05.2018).
J. Van Xorn	Xarajatlarni, risklarni kamaytiradigan yoki ishtirokchilarning talablarini yaxshiroq qondiradigan yaxshilanishni ta'minlaydigan yangi mahsulot / xizmat / vosita.	Van Horn, J. C. Of Financial Innovations and Excesses / J. C. Van Horn // Journal of Finance. - 1985. - P. 622.
B.A. Reysberg	Zamonaviy texnik va axborot vositalari, kompyuterlar hamda internetdan foydalangan holda pul o'tkazish, kredit berish va olish uchun moliya institutlari tomonidan ishlab chiqilgan yangi moliyaviy mahsulotlar va jarayonlar.	B.A.Raizberg, Zamonaviy iqtisodiy lug'at / B.A.Raizberg, L.Sh. Lozovskiy, E. B. Starodubtseva. - 6-nashr, tahrirlangan va qo'shimcha qilingan - M.: INFRA-M, 2011 yil. [Elektron resurs] - Kirish tartibi: http://www.consultant.ru/document/cons-doc-LAW-67315/c151b760696d665265187501c51f38cd84503634/ (murojaat etilgan sana: 10.05.2019).
I. T. Balabanov	Resurslardan, foydadan, likvidlikdan, risklardan va mavjud bozor voqeligida yetarlicha baholanmagan ma'lumotlardan samarali foydalanish uchun yaratilgan moliyaviy mahsulot.	I.T.Balabanov, Innovatsiyalarni boshqarish: darslik / I.T.Balabanov. - Sankt-Peterburg. : Piter. 2001. – 15b.
E. F. Jukov	Qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish manbalari sifatida mahsulotlar, operatsiyalarva vositalar	E.F.Jukov Qimmatli qog'ozlar bozori. Darslik. - 3-nashr, tahrirlangan va qo'shimcha qilingan / E. F. Jukov / - M. : Unity Lana. 2009 - 566 b.
L.V.Kox	Mijozlarga yetkazilgan va ular tomonidan qabul qilingan yangi yoki tubdan o'zgartirilgan bank mahsulotlari, yangi bank xizmatlari yoki zamonaviy infokommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida taqdim etiladigan yuqori sifatli xizmatlar, shuningdek bank jarayoniga joriy etilgan tashkiliy va axborot texnologiyalari bankka bevosita yoki o'rtacha ravishda iqtisodiy yoki ijtimoiy samara olish imkonini beradi.	L.V.Kokh Innovatsiyalardan foydalanish asosida bank faoliyati samaradorligini oshirish tamoyillari va mexanizmlari: Dissertatsiya avtoreferati. ... Iqtisodiyot fanlari doktori. - Ivanovo, 2010. – 8b.
Iqtisodiyotning izohli lug'ati	Moliyaviy institutlar, moliyaviy vositalar yoki moliyaviy xizmatlar sohasida biznes amaliyotidagi o'zgarishlar	Iqtisodiyot. Izohli lug'at / umumiy nashr: Prof. I.M.Osadchaya. - M.: INFRA-M, Butun dunyo. 2000. - 15b.
A. G. Gryaznova tomonidan tahrirlangan moliyaviy va kredit entsiklopedik	Yangi moliyaviy mahsulot yoki vosita	Moliyaviy va kredit entsiklopedik lug'ati / A. G. Gryaznova bosh tahririyati ostida. - M. : Moliya va statistika, 2004. - 367b.

lug'at		
Xalqaroilmiy va innovatsion faoliyat portali	Foyda olish va risklarni kamaytirish maqsadida yangi moliyaviy vositalar va moliyaviy texnologiyalarni yaratish.	[Elektron resurs] - Kirish tartibi: http://www.sci-innov.ru/law/base_terms/#08 (murojaat etilgan sana: 25.02.2019).

Bizningcha, moliyaviy innovatsiyalar — bu fan-texnika taraqqiyotining rivojlanishi natijasida paydo bo‘ladigan va moliya bozori samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi moliyaviy operatsiyalar, vositalar, texnologiyalar, biznes modellari va institutlar ko‘rinishidagi yangiliklardir.

So‘nggi o‘n yillikda moliyaviy bozorlarni tartibga solish va globallashtirish tendensiyalari fonida bank sektori jiddiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirishning ahamiyati oshdi, shuningdek, turli moliyaviy institutlar o‘rtasidagi aloqalar to‘la onlayn rejimda amalga oshiriladigan holga keldi. Axborot texnologiyalaridagi sezilarli yutuqlar va moliyaviy tuzilmadagi o‘zgarishlar yangi moliyaviy vositalar va moliyaviy texnologiyalar (Fintech) rivojlanishiga turtki bo‘ldi, bu esa ko‘plab banklarni o‘z mahsulot va xizmat turlarini kengaytirishga va faoliyatlarini transformatsiyalashga yo‘naltirdi.

XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida iqtisodiy adabiyotlarda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish va makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashda raqamli iqtisodiyot tizimiga o‘tish muhim omil sifatida qayd etilmoqda.

Banklar bugungi kundagi zamonaviy moliya tizimini eng asosiy drayveri hisoblanadi. Asosan bank sektori butun iqtisodiyotning raqamlashtirilishini ta’minlashda, ishlab chiqaruvchi va iste’molchilar ehtiyojlariga moslashgan holda faoliyat yuritishda, shuningdek, savdo-sanoat, qishloq xo‘jaligi va aholining ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashda asosiy rol o‘ynaydi. Banklarda innovatsiyalarning vujudga kelishi tarixi bir necha asrlar davom etadi va bir qancha muhim bosqichlardan iborat:

1-bosqich. Erta davrlar. Tijorat banklarining paydo bo'lishi: 15-asrda, Italiyada, tijorat banklari tashkil etila boshladi. Ular asosan savdo operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun xizmat qilgan.

2-bosqich. 19-asr. Qog'oz pulning joriy etilishi. 18-19-asrlarda qog'oz pul va bank notalari keng tarqaldi. Bu banklarda hisob-kitoblarni yengillashtirdi va tijorat faoliyatini rag'batlantirdi.

3-bosqich. 20-asr Avtomatlashtirish. 1950-yillarda birinchi bankomatlar (ATM) paydo bo'ldi, bu mijozlarga pul olish va boshqa xizmatlardan foydalanishni osonlashtirdi. Onlayn banking: 1990-yillarda internetning rivojlanishi bilan onlayn banking xizmatlari paydo bo'ldi. Bu mijozlarga hisoblaridan onlayn tarzda foydalanish imkonini berdi.

4-bosqich. 21-asrdan boshlab mobil banking: 2000-yillarning boshlarida mobil banking xizmatlari joriy etila boshlandi, bu esa foydalanuvchilarga istalgan joy va vaqtda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etdi.

Fintech inqilobi: 2010-yillarda fintech kompaniyalari bank xizmatlarini yangilashda va raqobatni kuchaytirishda muhim rol o'ynadi. Kripto-valyutalar va blokcheyn texnologiyasi ham bank tizimlarida innovatsiyalarni keltirib chiqardi.

5-bosqich. Hozirgi davr.

Sun'iy intellekt va big data: Hozirgi kunda banklar mijozlar ma'lumotlarini tahlil qilishda sun'iy intellekt va big data texnologiyalaridan foydalanmoqda, bu esa shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif etishga imkon yaratadi. Ushbu jarayonlar bank xizmatlarini yanada qulay va samarali qilib, mijozlar ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman olganda, banklarda innovatsiyalarni vujudga kelishi bir necha omillarga bog'liq bo'ladi. Bu omillarga esa quyidagilarini misol qilib keltirish mumkin:

Texnologik rivojlanish: Innovatsiyalar, yangi texnologiyalar, ilmiy tadqiqot natijasi asosida yaratilgan algoritmlarni yaratilishi. (Mobayl banking, onlayn to'lovlar, blokcheyn texnologiyalari).

Mijozlar talabining o'zgarishi: Texnologiya asri adoamlari tez va sifatli mahsulot va xizmatlardan foydalanishni kutishadi, ularni ehtiyojiga monand bank xizmatlari va mahsulotlarini taklif etish zarurati paydo bo'ladi.

Raqobat: Bank sektorida doimiy mavjud bo'lgan raqobat izchil tus olib bormoqda, ya'ni an'anaviy banklardan farqli o'laroq raqamli banklarning paydo bo'lishi va ular o'rtasidagi raqobat kuchaymoqda.

Regulyator va qonunchilik: Davlat organlari tomonidan yangi qonunlar va talablarni ishlab chiqilishi. Bu bilan banklar o'zlari uchun qulay faoliyatni yaratish maqsadida yangiliklarga, nou haularga intiladilar.

Ma'lumotlar tahlili: Big data va sun'iy intellekt kabi texnologiyalar mijozlarga individual yondashuv imkoniyatini taqdim etib, shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif qilish zaruratini yaratmoqda.

Hamkorlik va sheriklik: Fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilish banklar uchun yangi texnologiyalarni joriy etish orqali moliyaviy munosabatlarni qulay va oson shaklda taqdim etish imkoniyatini beradi. Shuningdek, moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish orqali banklar zamonaviy raqamlashtirish elementlarini amaliyotga joriy etishga erishishlari mumkin.

1.2. Banklarning transformatsiyalashuvida moliyaviy innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari

Zamonaviy dunyoda moliya tizimi, ayniqsa bank sektori, raqamli iqtisodiyot talablari asosida rivojlanmoqda. Raqamli transformatsiya natijasida bank sektorini rivojlantirishning biznes modellari va konsepsiyalari takomillashtirilmoqda. Banklar faoliyati bank sektorining chegaralaridan chiqib, moddiy va nomoddiy xizmatlar sohalariga kirib bormoqda. "Raqamli" bank modeliga o'tish jarayonida asosiy yo'nalishlarni tahlil qilish va mahalliy bank institutlarining imkoniyatlarini baholash quyidagi xarakterli tendensiyalarni ko'rsatmoqda:

- sun'iy intellekt texnologiyalariga sarmoya kiritish;

- masofaviy xizmatlarga e'tibor qaratish;
- kiberxavflarni kamaytirish.

Raqamli o'zgarishlar jarayonida banklar deyarli barcha korporativ jarayonlarni moslashtirishni talab qiluvchi innovatsiyalarga duch kelmoqda.

Texnologiyaning tezkor rivojlanishi va jahon bozoridagi o'zgarishlar kooperativ moslashuv jarayonining kuchayishiga olib kelgan. Davom etayotgan raqamli transformatsiya va yangi texnologiyalarning joriy etilishi an'anaviy kompaniyalar uchun katta o'zgarishlar zaruratini tug'diradi. Raqamli texnologiyalardan foydalanib, innovatsion biznes modellarini yaratish yoki mavjud modellarga o'zgartirishlar va takomillashtirishlar kiritish zarurati tug'iladi. Zamonaviy banklarning muhim jihatlaridan biri – yangi texnologiyalarni joriy etish orqali biznes samaradorligini oshirishdir. Shuningdek, turli sohalardagi an'anaviy biznes modellar nafaqat o'zaro, balki innovatsion modellar bilan ham raqobatlashmoqda. Bozor o'zgarishlariga moslashish uchun banklar an'anaviy texnik bazani moslashtirish, qayta ko'rib chiqish va isloh qilishlari kerak bo'ladi. Shunday ekan, moliyaviy innovatsiyalarning funksiyalarini hamda ular bajaradigan vazifalarni aniqlashtirish muhim hisoblanadi.

Moliyaviy innovatsiyalarning iqtisodiy mohiyati ularning bajaradigan vazifalarida ko'rinadi. Kanada Iqtisodiy Kengashining ma'lumotlariga ko'ra, moliyaviy innovatsiyalar uchta asosiy funktsiyaga ega: bozorni kengaytirish, risklarni boshqarish va foyda olish.

Banklarda moliyaviy innovatsiyalarning asosiy vazifasi banklarning likvidligini oshirish, mablag'larning mavjudligini yaxshilash va yangi investitsiya imkoniyatlaridan foydalanishni ta'minlashdan iborat. Moliyaviy innovatsiyalarning keying funksiyasi moliyaviy risklarni bank mijozlari o'rtasida qayta taqsimlash imkonini beradi. Moliyaviy innovatsiyalarning uchinchi funksiyasi bank mijozlariga xarajatlar va daromadlardagi farqlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy innovatsiyalar funksiyalarining tasnifiga ko'ra, moliyaviy innovatsiyalar quyidagi

funksiyalarni bajaradi: narx riskini o'tkazish, kredit riskini o'tkazish, likvidlikni shakllantirish, kredit yaratish va o'z kapitalini yaratish vositalari.

Moliyaviy innovatsiyalarning birinchi guruhi bozor ishtirokchilariga narx yoki valyuta riskini samaraliroq boshqarish uchun vositalar taqdim etadi. Kredit riskini o'tkazish vositalari qarzni to'lamaslik riskini qayta taqsimlash uchun mo'ljallangan. Likvidlikni shakllantirish vositalari esa uch xil ta'sir ko'rsatishi mumkin: ular bozor likvidligini oshiradi, resurs tanqis bo'lgan bo'linmalar uchun qo'shimcha mablag' manbalarini topishga imkon beradi va bozor ishtirokchilariga salbiy huquqiy cheklovlardan qochish imkonini yaratadi. Kredit yaratuvchi vositalar tanqis bo'lgan bo'linmalar uchun qarz miqdorini oshiradi, nihoyat, o'z kapitalini yaratish vositalari aksiyadorlik asosida qo'shimcha kapital manbalariga kirishni ta'minlaydi.

Keyinchalik, BIS metodologiyasi kengaytirilgan va shu asosda moliyaviy innovatsiyalarning quyidagi funksiyalari ajratilgan:

- riskni o'tkazish – sekyuritizatsiya jarayoni yoki garovni qo'llash orqali riskni kamaytirish yoki bozor risklaridan himoya qilish.

- risk qiymati – moliyaviy vositada aks ettirilgan risklarni boshqa risklardan alohida qilib yo'q qilish, baholash, saqlash yoki sotish imkoniyati (masalan, ikkilamchi bozorlardagi bitimlar bilan CDO yoki ABS uchun).

- likvidlikni oshirish – aktivlar yoki vositalarning likvidligini oshirish (masalan, sekyuritizatsiya orqali kreditlarning ikkilamchi bozorlarda sotilishi va kredit tashkilotlari aktivlarini yaxshilash).

- kreditlashni kengaytirish – kredit bozorlariga kirishni kengaytirish yoki qarz oluvchilar va kreditorlarning kredit layoqatligini oshirish (masalan, CDO yoki CDS orqali).

- aksiyalarni yaratish – kapital tuzilmasini yanada moslashuvchan qilish va o'z kapitalini moliyalashtirish narxini oshirish (masalan, qarz almashinuvi yoki konvertatsiya qilinadigan aktivlar orqali).

- sug'urta – mukofot to'lovi evaziga risklarni sug'urtalash imkoniyatlarini

kengaytirish (masalan, kredit riskini CDS orqali sug'urtalash).

- aktivlar va passivlarni boshqarish – aktivlar va passivlarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish (masalan, sekyuritizatsiya, CDS, CDO orqali).

- moliya institutlarini moliyalashtirish - moliya institutlarini moliyalashtirish manbalarini kengaytirish (masalan, sekyuritizatsiya moliya institutlarining o'z faoliyatini moliyalashtirish uchun foydalanadigan mablag'lar manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi)³⁴.

1995-yilda R. Merton moliyaviy innovatsiyalarning quyidagi asosiy funksiyalarini ajratib ko'rsatdi:

- savdo jarayonlarini yengillashtirish uchun kliring va hisob-kitob usullarini taqdim etish (masalan, kredit va debet kartalari, PayPal, fond birjalari orqali);

- resurslarni birlashtirish va korxonalar o'rtasida ulushlarni taqsimlash mexanizmlarini yaratish (masalan, investitsiya fondlari va sekuritizatsiya);

- iqtisodiy resurslarni milliy chegaralar va tarmoqlararo vaqtda o'tkazishni ta'minlash (masalan, jamg'arma hisobvaraqlari va kreditlar);

- risklarni boshqarish uchun sug'urta va qimmatli qog'ozlar kabi usullarni taklif etish;

- shuningdek, turli iqtisodiy sohalarda markazlashmagan qarorlar qabul qilish jarayonini muvofiqlashtirishga yordam beradigan narx ma'lumotlarini taqdim etish.

Bundan ko'rinadiki, 20-asr oxirlarida innovatsiyalarga aniq bir texnik qurilma yoki ishlab chiqilgan algoritm sifatida qaralgan. Moliyaviy innovatsiyalarning asosiy vazifalari etib, inson omilisiz paydo bo'lishi mumkin bo'lgan turli risklarni hisoblash, sug'urtalash bo'yicha aniq belgilangan yondoshuv asosida xulosa qilish uchun foydalanilgan. Shu bilan bir birga moliyaviy innovatsiyalar funksiyalarini tasniflash bilan bog'liq turli yondashuvlar qo'llaniladi.

³⁴ Llewellyn, D. T. Financial innovation and the economics of banking and the financial system / D. T. Llewellyn // Anderloni L., Llewellyn DT, Schmidt R (eds) Financial innovation in retail and corporate banking. - Edward Elgar, 2009. - 339 p.

Agar global iqtisodiyot “mukammal bozorlar” asosida faoliyat yuritayotganida, bozorlar to‘liq samarali, axborot teng bo‘lib, hech qanday risk mavjud bo‘lmagan taqdirda, moliyaviy innovatsiyalar zaruriyatga aylanmagan bo‘lardir. Biroq, moliya tizimidagi turli kamchiliklar moliya institutlarini iqtisodiy sharoitlarga yanada moslashish uchun moliyaviy innovatsiyalarni ishlab chiqish va qo‘llashga undaydi. Moliyaviy innovatsiyalar esa, xavflarni oldini olish yoki kamaytirish bilan bog‘liq muammolar va o‘zgarishlarga eng samarali yechim bo‘lib, banklarga daromadlarini maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Pyotr Tyufanov o‘z tadqiqotida moliyaviy innovatsiyalarning quyidagi funksiyalarini belgilaydi:

1.2-jadval

Moliyaviy innovatsiyalar funksiyalarining talqini³⁵

Moliyaviy innovatsiyalarning paydo bo‘lish sabablari	Ta’rif
Bozor nomukammalligini tekshirish	O‘ziga xos nomukammalligi tufayli bozor ishtirokchilari vaqt va makonda mablag‘larni erkin o‘tkaza olmaydi
Tug‘ma agentlik manfaatlariga va axborot nosimmetrikligiga javob berish	Tadqiqotchilar turli tomonlarning manfaatlarini yaxshiroq qondirish yoki menejerlarni shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilishga undash uchun qanday qilib shartnomalar tuzish mumkinligini o‘rganmoqda.
Tranzaksiyani qisqartmasi	Tranzaksiya xarajatlari moliyaviy vositachilar uchun muhim ro‘l o‘ynaydi. Moliyaviy vositachilar, tranzaksiya xarajatlari uchun kelgan uy xo‘jaliklariga iste‘mol va investitsiya rejalari bo‘yicha optimal natijalarga erishishda yordam beradi. Masalan, R. Merton birja savdosi ko‘p millatli investorlar uchun daromad olishning samarali yo‘li bo‘lishi mumkinligini aynan shu sabab bilan izohlagan. Zamonaviy texnologik innovatsiyalar yordamida tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradigan to‘lov tizimlari rivojlanmoqda. Bankomatlar, smart-kartalar, avtomatlashtirilgan hisob-kitob markazi (ACH) texnologiyalari, elektron dasturlar va boshqa yangi biznes modellar tranzaksiyalarni qayta ishlash xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirishga yo‘naltirilgan moliyaviy innovatsiyalardir.
Soliqlar, siyosat va tartiblardagi o‘zgarishlarga javob berish	Nol kuponli obligatsiyalar, yevrodollar, yevroobligatsiyalar va boshqalar soliqlar va davlat tartib-qoidalarining o‘zgarishi sababli ochiq. Ushbu yangi vositalar joriy kapital daromadlari bo‘yicha soliq majburiyatlarini qo‘zg‘atmasdan aktivlarni

³⁵ muallif tomonidan tuzilgan.

	monetizatsiya qilish uchun ishlatiladi.
Yuqori riskka olib keladigan iqtisodiyotning globallashuvi	Globalashuvning kuchayib borishi bilan bozor o'zgaruvchanligi va tebranishlari kuchayib bormoqda. Bu kabi noaniq vaziyatda moliyaviy risklarni boshqarish uchun bozorda moliyaviy yangiliklar paydo bo'lmoqda.
Zamonaviy ilg'or texnologiyalar	IT sektori har doim moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish va tezlashtirishga hissa qo'shdi va ko'plab moliyaviy yangiliklarni keltirib chiqardi (masalan, qimmatli qog'ozlarning yangi bozorlari va ular bilan savdo qilish imkoniyati, andarrayting usullari (OpenIPO), aksiyadorlik portfellari).

Keng ma'noda, moliyaviy innovatsiyalarning asosiy vazifasi bank faoliyatidagi nomukammalliklarni kamaytirishga qaratilgan qobiliyat sifatida ta'riflanishi mumkin.

Yevropa Markaziy banki (ECB) ma'lumotlariga ko'ra, moliyaviy innovatsiyalarning vazifasi uy xo'jaliklari, korxonalar va davlatlar uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, optimal investitsiya imkoniyatlarini topish hamda o'zaro manfaatli shartlarda riskni boshqarishni ta'minlash orqali yanada samarali moliyaviy bozorlarni yaratishdan iborat³⁶.

Biz quyida moliyaviy innovatsiyalarni o'rganuvchi xorijiy adabiyotlarni umumlashtirib, ilmiy tadqiqotning asosiy yo'nalishlarini aniqlashimiz mumkin:

- moliyaviy yangiliklarni qabul qilish va uning motivlari;
- moliyaviy innovatsiyalarning tabiati va dizayni;
- moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantiradigan iqtisodiy muhit sharoitlari;
- moliyaviy innovatsiyalarning rentabellik hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri;
- moliyaviy innovatsiyalarni taqsimlash (diffuziya);
- moliyaviy innovatsiyalarni ko'rib chiqish.

So'nggi o'ttiz yil mobaynida bank sektoridagi innovatsion jarayonlar banklarga ko'plab yangi mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarni taklif qildi, bu esa bozor ishtirokchilari uchun tanlov imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shdi. Bugungi bosqichda esa xalqaro sharoit o'zgarib bormoqda, moliyaviy

³⁶ European Central Bank. The Role of Financial Markets and Innovation in Productivity and Growth in Europe. Occasional Paper Series, N 72 [Elektron resurs] - Режим доступа: <http://www.ecb.int/pub/pdf/scpops/ecbocp72.pdf> (murojaat etilgan sana: 14.07.2018).

xizmatlar sohasidagi raqobat kuchaymoqda va bozor ishtirokchilari o'z faoliyatlarini optimallashtirishning yangi usullarini izlamoqda hamda ularni tadbiq etish orqali korxonalar barqarorligini uzoq vaqt ta'minlashga intilmoqda.

1.4-jadval

Moliyaviy innovatsiyalar bo'yicha tadqiqotning asosiy yo'nalishlari³⁷

Tadqiqotning yo'nalishlari	Izoh	Mualliflar
Moliyaviy innovatsiyalarning tabiati va dizayni	Olimlar uchun, ayniqsa 1990-yillarda tadqiqot mavzusi	<ul style="list-style-type: none"> - Wojnilower (1980) - Silber (1975; 1978; 1981) - Friedman et al (1981) - Miller (1986) - Allen & Gale (1991) - Ireland (1995) - Duffie & Rahi (1995) - Charupat & Prisman (1997) - Allen & Gale (1989); Madan & Soubra (1991); - Boot & T'hakor (1993); DeMarzo & Duffie (1999) - Cuny (1993); Hara (1995); Ohashi (1995). - Demange & Laroque (1995).
		<ul style="list-style-type: none"> - Lately, Tadesse (2006) - Lately, Plosser (2009)
Moliyaviy innovatsiyalarni qabul qilish va uning motivlari	Moliyaviy innovatsiyalar tarafdorlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular moliyaviy xizmatlar sektoridan tashqarida faoliyat yurituvchi kengroq iste'molchilar guruhini o'z ichiga olishi mumkin. Hozirgi nisbiy adabiyotda moliyaviy innovatsiyalardan samarali foydalanuvchilarning ikki turiga e'tibor qaratilgan: 1) elektron banking mahsulotlari (bankomatlar, debet kartalari, kredit kartalari, elektron to'lov xizmatlari) foydalanuvchilari va 2) banklar va kichik biznes kredit hisobvaraqlari tomonidan internet-bankingni joriy qilish (SBC)	<ul style="list-style-type: none"> - Carrow (1999) - Sullivan (2000) - Bhargava & Fraser (1998); Field & Fraser (1999); Grande et al. (1999); Cornett et al. (2002). - Frame, Srinivasan & Woosley (2001) - Mantel & McHugh (2001) - Lang et al. (2003) - Hayashi & Klee (2003)
Moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantirishga undovchi iqtisodiy muhit	Tadqiqotning asosiy e'tibori moliyaviy innovatsiyalarning yaratilishi, rivojlanishi va keng tarqalishiga ta'sir qiluvchi iqtisodiy muhitdagi o'zgaruvchan omillar va sharoitlarni o'rganishga qaratilgan. Horrie & Silber (1987) 1952- va 1970-yillar orasida yashirin depozit narxlarining xatti-harakatlarini tushuntirish uchun bank bozori uchun chiziqli dasturlash modelini taqdim etdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bu omonat turi ayniqsa 1961 va 1969-yillarda rivojlangan, chunki bu yillarda ikkita muhim moliyaviy yangilik paydo bo'ldi: mos ravishda depozit sertifikatlari va bank krediti mahsulotlari.	<ul style="list-style-type: none"> - Van Horne (1984) - Horib & Silber (1987) - Ross (1989) - Merton (1992) - Lerner (2002, 2005) - Citanna & Schmedders (2005)

³⁷ Muallif tomonidan tuzildi

Moliyaviy innovatsiyalarning rentabellik va iqtisodiy farovonlikka ta'siri	Adabiyotning ko'p qismi moliyaviy innovatsiyalarni amalga oshiruvchi kompaniya yoki vositachining moliyaviy farovonligining rentabellik oqibatlarini va uni qabul qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga qanday ta'sir qilishini o'rganishga bag'ishlangan.	<ul style="list-style-type: none"> - Sylla (1982) - Tufaru (1989) - Varma & Chambers (1990) - Flood (1992) - Merton. (1992) - McCormell & Schwartz (1992) - Levine (1997) - Persons & Warther (1997) - Dow (1998) - Grinblatt & Longstaff (2000) - Calvet et al. (2004)
		<ul style="list-style-type: none"> - An.g & Cheng (2005) - DeYoung (2002; 2005) - Dynan et al. (2006) - The Bank of England (2008) - BIS (2008) - Gerardi et al. (2010) - Calomiris (2009)
Moliyaviy innovatsiyalarning tarqalishi (diffuziyasi)	Ushbu sohadagi tadqiqotlar moliyaviy innovatsiyalar bozor yoki sanoat ishtirokchilari yoki iste'molchilar guruhi tomonidan qanday usulda va qanday tezlikda moslashtirilganligi bilan bog'liq.	<ul style="list-style-type: none"> - Hannan & McDowell (1984; 1987) - Saloner & Shepard (1995) - Molyneux & Shamroukh (1996) - Gowrisankaran & Stavins (2004)
		<ul style="list-style-type: none"> - Frame & White (2005) - Frame et al. (2001) - Berger et al. (2001) - DeYoung et al. (2007)
Moliyaviy innovatsiyalar haqidat umumiy ma'lumot	Moliyaviy innovatsiyalarning ahamiyati ba'zi tadqiqotchilarni moliyaviy innovatsiyalar bo'yicha mavjud adabiyotlarni har safar turli mezonlarni joriy qilgan holda ko'rib chiqishga majbur qildi. Quyida eng muhim tadqiqotlar keltirilgan.	<ul style="list-style-type: none"> - Finnerty (1992) - Alcorta (1999) Allen & Gale (1994) Frame & White (2004)

Moliyaviy innovatsiyalarga oid adabiyotlar tor ko'lamli bo'lib, mazmuni murakkab va ahamiyati nisbatan cheklangan. Ushbu adabiyotlarni o'rganishdan ma'lum bo'ladiki, so'nggi yillarda mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlar sohasida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lgan. Moliyaviy innovatsiyalarni qabul qilish va ularning bank faoliyatiga ta'sirini anglash uchun sezilarli darajada tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, bu innovatsiyalarning rivojlanish sabablarini to'liq tushunish hali ham murakkab. Shu bilan birga, moliyaviy innovatsiyalar orasidagi o'zaro bog'liqlik haqidagi ma'lumotlar ham yetarli emas. Moliyaviy innovatsiyalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni aniqlash zarur bo'lsa-da, bu innovatsiyalarning rivojlanish vaqti hamda ularni amaliyotga moslashtirish bir xil bo'lmasligi aniq ko'rinmoqda, bu esa ularning keng tarqalishini yanada qiyinlashtiradi.

Tadqiqotimiz asosiy obyekti, ya'ni bank sektorida foydalaniladigan moliyaviy innovatsiyalarning funksiyalariga oid turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish va baholash. asosida ushbu sohadagi pozitsiyamizni 1.3-jadvalda taklif qildik.

1.3-jadval

Bank sektorida joriy etiladigan moliyaviy innovatsiyalarning funksiyalari³⁸

Funksiyalar	Ta'rif
Reproduktiv	Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni moliyalashtirish manbai
Sarmoyaviy	Investitsiyalar uchun innovatsiyalardan olingan foydadan foydalanish
Rag'batlantiruvchi	Innovatsiyalarni joriy etishdan olingan foyda yangi innovatsiyalarni rag'batlantirishi
Himoyali	Risklarni kamaytirish, raqobatchilarni himoya qilish strategiyalari

Moliyaviy innovatsiyalardan foydalanish banklar, davlat va potensial mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash imkonini beradi. Raqamli transformatsiya bank xizmatlarini taqdim etishning zamonaviy usullarini keng joriy etishni o'z ichiga oladi. Bank filiallari soni qisqarib, ko'plab xizmatlar, jumladan, kreditlash va investitsiya (masalan, birja savdosi kabi onlayn investitsiya turlari) to'liq raqamlashtirilmoqda. Shu bois, innovatsion texnologiyalardan foydalanish bank faoliyatining samaradorligini oshirish uchun asosiy imkoniyat bo'lib qolmoqda.

Bugungi iqtisodiy sharoitda kapital bozoridagi ishtirokchilar ehtiyoj va talablari tez o'zgarib bormoqda. Moliyaviy innovatsiyalar arzonroq va moslashuvchan moliyaviy vositalar hamda risklarni boshqarishning samarali usullarini qo'llash orqali bank tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi, chunki ular ishtirokchilarning kapital tarkibini qayta shakllantirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy innovatsiyalar banklarning tuzilmasiga, kompaniyalarning mikroiqtisodiy faoliyatiga, xalqaro bank tizimining raqobatbardoshlikka asoslangan operatsiyalariga, milliy iqtisodiy va moliya siyosatiga hamda davlatning pul-kredit siyosatiga ta'sir ko'rsatdi. Bu yangi vosita va usullarni taklif etgan moliyaviy muhandislik natijasi bo'lib, kompaniyani moliyalashtirish samaradorligini oshirish va risklarni boshqarishni rivojlantirish imkonini beradi.

³⁸ muallif tomonidan tuzilgan.

Moliyaviy innovatsion texnologiyalarning asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tashkilotlarga pul oqimlarini boshqarishda yoki moliyaviy qiyinchiliklarni yengishda yordam beradigan yangi moliyaviy siyosat qarorlari, shakllar yoki institutlar. Bunga naqd pul strategiyalari, qarzlarni boshqarishning innovatsion strategiyalari, mijozlar va muassasalarni moliyalashtirishning turli usullari, qo‘shilishlar va boshqa moliyaviy yechimlar kiradi. 1.7-jadvalda bank sektori tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy innovatsion klasterlar va ularning tahliliy guruhlarini keltirilgan.

1.5-jadval

Moliyaviy innovatsiyalar klasterlari³⁹

Moliyaviy innovatsiyalar klasterlari	Bank moliyaviy innovatsiyalari klasterlari
Iste'molchi aktivlari	Yangi mahsulotlar va xizmatlarni yetkazib berish
Iste'mol krediti va ipoteka	Tashkiliy funktsiyalar jarayoni
Biznes uchun bank kreditlari	Funksional jarayon va umumiy xizmatlarning afzalliklari
Hosilaviy aktivlar	Bank moliyaviy innovatsiyalarining har xil turlari
Soliqdan ozod qilingan qimmatli qog'ozlar	Miqdoriy yengillashtirish
Korporativ obligatsiyalar	Pul-kredit vositalari hamda pul-kredit siyosati
Hosila moliyaviy vositalar (fyuchers va opsiyonlar)	Inflyatsiyani prognozlash
Aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar	Sekyuritizatsiya

Tijorat mahsulotlari va xizmatlaridagi ko‘plab moliyaviy yangiliklar texnologiya, internet va sanoat mahsulotlari sohasidagi ishlanmalar bilan uyg‘unlashgan. Ushbu mahsulotlar, asosan, yangi to‘lov va hisob-kitob tizimlari bo‘lib, iste’molchilarning talablariga mos keladi, bank va umuman moliya bozorini o‘zgartiradi va masofadan ulanish orqali turli operatsiyalarni taqdim etib, naqd pul operatsiyalarini almashtiradi. Bunga misol sifatida bankomatlar, kredit va debet kartalari, onlayn-banking va boshqa xizmatlarni keltirish mumkin.

Yangi innovatsion bank mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy qilish uchun zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi, shuningdek, bank xizmatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri sotishga

³⁹ muallif tomonidan tuzilgan.

qodir bo'lgan malakali kadrlar tayyorlanishi lozim. Bank faoliyatining ushbu yo'nalishi tijorat bankining qo'shimcha moliyaviy resurslarini shakllantirishga yordam beradi va bankning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatiga hamda uning kelgusi rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kredit kartasi, sodiqlik kartasi va transport kartasini, shuningdek, milliy to'lov tizimlarining rivojlanishini mujassam etadigan murakkab plastik kartalar ulushining ortishi mijozlarga yo'naltirilgan innovatsion strategiya ishlab chiqish va amalga oshirishning dastlabki shart-sharoitlari hisoblanadi. Bundan tashqari, taklif etilayotgan strategiyani joriy qilish onlayn o'tkazgan holda depozitlarni kupyuralab qabul qiladigan texnika joriy qilishga, shtrix-kodlarni o'qiydigan va avtomatik ravishda kodlangan to'lov hujjatlari bo'yicha to'lovlarni bajaradigan texnologiyalar qo'llashga, internet-banking, SMS-banking va h.k. rivojlanishiga bog'liq. Tabiiyki, personal taklif qilish va distributsiyani har bir mijozga individual yetkazish uchun nafaqat bankning, balki mijozning o'zida ham axborot texnologiyalari rivojlangan bo'lishi talab etiladi. Mijoz, bankka ishonar ekan, texnik qurilmalarga ega bo'lishi va ular orqali muloqotni jonli va qiziqarli deb hisoblashi lozim.

Bizningcha, mijozlarga yo'naltirilgan innovatsion strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish, bir tomondan, innovatsion texnologiyalarning rivojlanish darajasi va ularning tijorat bankida qo'llanish darajasiga, boshqa tomondan esa, mijozlarning taklif etilayotgan innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni qabul qilishga tayyorligi, qobiliyati va imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Bank sektori raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biridir. Bugungi kunda (FinTech) yordamida moliyaviy xizmatlar tizimini raqamli transformatsiya qilish zaruriyati paydo bo'ldi. Ko'plab banklar tomonidan zamonaviy raqamli xizmatlarni tezkor qabul qilish, fintechlarning o'sishi bilan birga an'anaviy bank amaliyotlarini yangi innovatsion yutuqlar bilan almashtirish juda muhim hisoblanadi.

Bank sohasidagi raqobat kuchaygani va innovatsion texnologiyalar joriy qilinishi

natijasida bank xizmatlari bozori tez sur'atlarda kengaymoqda. Bu esa har bir mijozning o'ziga xos ehtiyojlarini aniqlash va qondirishga qaratilgan individual yondashuvni amalga oshirishni tijorat banklari rivojlanishining asosiy yo'nalishiga aylantiradi. Mijoz o'z xususiyatlarini yo'qotgan reprezentativ obyekt sifatida emas, o'ziga xos kontragent sifatida ko'rib chiqilgan hollarda u bank xizmatlari ko'rsatish jaaryoniga maksimal tarzda jalb qilinadi, xizmatlar yaratish va taqdim etishning asosiy jihatlari ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalarning dunyoning yetakchi mamlakatlarida qo'llanilishi nazariya va amaliyot nuqtayi nazaridan zamonaviy bank tizimining faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu texnologiyalar biznes modelini o'zgartirish, shuningdek, yangi daromad manbalari va qiymat yaratish imkoniyatlarini taqdim etishga yo'l ochadi. Ushbu jarayon rivojlangan mamlakatlarga ham, rivojlanayotgan mamlakatlarga ham xosdir, bu esa turli olimlarning tahliliy sharhlari va fundamental tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Xususan, S. Karbo-Valverde va K. Kan Amerika va Yevropa to'lov tizimlarining samaradorligini tahlil qilib, onlayn-banking mahsulotlarining rolini ta'kidlab, ular uchun kriptovalyutalar tahdid solishi mumkinligini ko'rsatgan. A.Omarini esa bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasi doirasida O'rta yer dengizi mamlakatlarida yangi texnologik platformalarning ahamiyatini asoslagan. T.Ahisar va K.Tunay elektron bank xizmatlarining samaradorligi oshib borayotganini qayd etishgan. Ispaniyada esa F.Libana-Kabanillas tomonidan olib borilgan tadqiqot biznes va aholi orasida ushbu segmentga qiziqish ortayotganini ko'rsatmoqda.

Banklarning raqamli transformatsiyasi raqamli strategiyani ishlab chiqish va qo'llashga asoslangan kompleks yondashuvni talab qiladi. Raqamli transformatsiya moliya-kredit faoliyatining barcha jabhalarini, shu jumladan bank boshqaruvi mexanizmlarini ham qamrab oladi. Shuning uchun maksimal samaradorlikka erishish uchun bank sektoridagi raqamli o'zgarishlar boshqa rivojlanish strategiyalari bilan muvofiqlashtirilishi zarur. Raqamli strategiya to'rtta asosiy vazifani qamrab olishi kerak: raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar tannarxini shakllantirish

jarayonini qayta ko‘rib chiqish, raqamlashtirishning moliyaviy jihatlarini o‘rganish va tashkiliy tuzilmani moslashtirish.

Moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘p jihatdan bankning ish modeliga bog‘liq bo‘lib, ushbu rivojlanish yo‘nalishlarini bir-biriga moslashtirishni talab etadi. Barcha banklar uchun universal operatsion model mavjud emas. Har bir bankning muddatlari, tuzilmasi va xizmatlari turlicha bo‘lgani sababli, raqamli strategiyani amalga oshirish uchun turli xil modellardan foydalaniladi.

Konfederativ model. Ushbu operatsion model, asosan, faoliyatining turli sohalarida raqamli transformatsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirayotgan yirik banklar uchun qo‘llanadi. Bu holatda ayrim bo‘limlar raqamli strategiyani joriy qilishda ishtirok etadi, moliyaviy innovatsiyalarga sarflanadigan xarajatlarni mustaqil boshqaradi va xodimlarga yangi malaka talablarini qo‘yadi, lekin boshqa bo‘limlar raqamli transformatsiyada ishtirok etmaydi. Kelajakda bankning barcha xodimlari raqamli transformatsiyaning afzalliklarini o‘rganishlari kerak bo‘ladi. Bunga misol sifatida elektron hujjat aylanishiga o‘tishni ko‘rsatish mumkin: innovatsiyalar asta-sekin bo‘limdan bo‘limga tarqaladi va oxir-oqibat bank faoliyatiga muntazam kiritiladi. Masalan, ijro.uz, banklarda EAPS, va Colvir kabi dasturlar.

Umumiy xizmat modeli. Agar bank raqamli transformatsiyaning ahamiyatini tan olib, raqamli strategiyani amalga oshirishning dastlabki bosqichlarini bajargan bo‘lsa, nisbatan yirik banklar umumiy xizmat modeli deb ataladigan yondashuvdan foydalanishi mumkin. Bu modelda ma’lum operatsiyalar uchun mas’ul bo‘lim umumiy xizmat markaziga aylanadi. Ushbu model outsorsingga o‘xshab, ayrim funksiyalarni tashqi kontragent bajarishi mumkin. Asosiy maqsad — bank ichidagi jarayonlarni muvofiqlashtirishni yaxshilash va oddiy takrorlanuvchi faoliyatlarni bartaraf etish orqali biznes jarayonlarini optimallashtirish va natijada bank operatsiyalari xarajatlarini kamaytirishdan iborat.

Strategik vakolatlar markazlari modeli. Raqamli transformatsiya sharoitida bank ish modelini rivojlantirishning keyingi bosqichi — bu ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil

qilish va ulardan maksimal darajada samarali foydalanishni ta'minlash uchun axborot tizimlari va biznes-jarayonlarini boshqaruvchi kompetensiya markazlari, ya'ni maxsus tarkibiy tashkilot bo'linmalarini shakllantirishdir. Ushbu tashkilot elementi raqamli strategiyani amalga oshirishni muvofiqlashtiradi, bozor tendensiyalarini prognozlashga imkon beradi va bankni ushbu bozor segmentida raqobatbardosh qilishga yordam beradi.

Raqamli operatsion model. Ushbu model raqamli transformatsiyaning yakuniy bosqichiga yetgan banklar tomonidan qo'llanilishi mumkin va asosan, yagona sanoat tashkilotlari uchun mos keladigan "tarmoq o'yinchilari" uchun mos keladi. Raqamli operatsion modelning asosiy xususiyati – operatsiyalarni raqamli platforma asosida boshqarishdir. Bugungi kunda bu model mobil to'lov xizmatlari ko'rsatuvchi kompaniyalar yoki zamonaviy onlayn-banking tizimlari asosida faoliyat yurituvchi banklar tomonidan qo'llanilmoqda. Bugungi kunda deyarli respublikamizda barcha banklarni mobil ilovalari orqali to'lov qilish imkoniyati yaratilgan. Bundan tashqari, to'lov uchun mo'ljallangan yirik zamonaviy Payme, Click kabi fintechlar ham ushbu model asosida faoliyat yuritishadi.

Umuman olganda, bank sektori operatsion modellarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lib, bu jarayon vaqt o'tishi bilan mijozlar sonining ortishi va ularning bank filialiga tashrif buyurmasdan, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turli bank mahsulotlari va xizmatlariga kirish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan. Iqtisodiyotning bank sektoriga raqamli moliyaviy innovatsiyalarni tatbiq etilishi bank faoliyatini raqamli muhit bilan integratsiya qilish orqali yagona tizimli makon yaratish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Bank sektorida raqamli transformatsiyalash jarayoniga uchta asosiy yondashuvlarni ko'rsatish mumkin.

Birinchi yondashuv, uzoq muddatli rejalashtirish va pilot loyihalarni amalga oshirish asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bu yondashuvdan jahon banklarining to'rtidan bir qismi foydalanib, raqamli texnologiyalarni alohida loyiha

sifatida joriy etishadi. Faoliyatning qolgan qismi an'anaviy tarzda davom etaveradi.

Ikkinchi yondashuv dastlab raqamli iqtisodiyot talablarini qondirish maqsadida maxsus sho'ba korxonalar tashkil etish orqali amalga oshirilgan. Bu raqamli transformatsiya usuli dunyo banklarining 42 % tomonidan qo'llanilib, eng keng tarqalgan usul sifatida tan olingan. Ushbu yondashuvning asosiy ustunligi — uzoq muddatli istiqbolda mijoz ehtiyojlariga maksimal e'tibor qaratish imkoniyatini yaratishdir. Bu yondashuv turli soha mutaxassislarini (axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot, tahlil, marketing) birlashtirib, tashkilot ichida yuqori darajadagi moslashuvchanlikka ega jamoalarni shakllantiradi va mavjud yo'nalishlarni buzmasdan yangi biznes yo'nalishlarini sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Bunga misol sifatida Kapital bankning "Aplestin" loyihasining keyinchalik "Uzum" marketplace sifatida kengayishi keltirilishi mumkin.

Uchinchi yondashuvning mohiyati banklarda moliyaviy innovatsiyalarni tatbiq etishda raqamli texnologiyalarni bank faoliyatining asosiy elementi sifatida tan olishga asoslanadi.

Ushbu usul boshqa yondashuvlar bilan birlashtirilishi mumkin, ammo u bankning barcha ichki va tashqi jarayonlarini o'zgartirish orqali raqamli strategiyani yanada to'liqroq amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Banklarning 32 foizi ushbu yondashuvdan foydalangan holda raqamli transformatsiyani amalga oshirishni boshladi. Bunga misol tariqasida butunlay raqamli virtual bank Anorbank hamda TBC banklarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Bank sohasida raqamli innovatsiyalarni joriy etishni besh asosiy bosqichda amalga oshirilishi mumkin.

I bosqich. Raqamli kanallarning paydo bo'lishi: internet-banking, mobil banking va chatbotlar orqali mijozlarga istalgan vaqt va mavjud kanallar orqali bank bilan muloqot qilish imkoniyati yaratiladi.

II bosqich. Raqamli mahsulotlarning shakllanishi: katta hajmdagi ma'lumotlar, kontaktsiz to'lovlar, virtual kartalar va sun'iy intellekt kabi texnologiyalar yordamida

zamonaviy dasturiy ta'minot asosida 24 soat davomida mijozlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan E2E mahsulotlar ishlab chiqiladi.

III bosqich. Raqamli xizmatlarning to'liq siklini shakllantirish: banklar raqamli xizmatlarni an'anaviy mahsulotlarga qo'shishdan tashqari, yangi raqamli biznes yo'nalishlarini yaratadi, biznes modellarini tubdan o'zgartiradi va faoliyat chegaralarini kengaytiradi.

IV bosqich. "Raqamli miya" yaratish: raqamli miya bankning barcha biznes segmentlari, bo'limlari, mahsulot liniyalari va xizmatlari bo'yicha ma'lumotlarni doimiy va avtomatik ravishda tahlil qiladi, bu esa tashkilotga o'z imkoniyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

V bosqich. "Raqamli DNK" yaratish: bankning butun faoliyat sikli davomida strategik qarorlar qabul qilish uchun yangi koordinatalar tizimini ta'minlaydi.

Yangi texnologiyalar banklarga xarajatlarni kamaytirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini muntazam yaxshilash va yangi ta'sir sohalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Xorijiy tajribani tahlil qilish asosida bank sohasida moliyaviy texnologiyalardan foydalanishning asosiy istiqbolli yo'nalishlari quyidagicha belgilanishi mumkin:

Kreditlashda aqlli aktivlar va aqlli shartnomalardan foydalanish. Aqlli aktivlar (blockchain 2.0) shaklida blokcheyn texnologiyasini joriy etish moddiy va nomoddiy aktivlar, jumladan moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda qo'llanishi mumkin. Blokcheynga ro'yxatga olingan aktivlar, egalik huquqi va ular bo'yicha bitimlar aqlli shartnomalar yordamida boshqariladi.

Kredit tarixini boshqarishda blokcheyn texnologiyasi. "Kredit byurosi" blokcheyn platformasi kredit oluvchilarning kredit tarixini to'plash va saqlash, shuningdek, manfaatdor foydalanuvchilar uchun vositachisiz ma'lumot almashinuvini ta'minlashga mo'ljallangan.

Bank kafolatlarini qo'llashda blokcheyn platformalari.

Savdoni moliyalashtirishda blokcheyn texnologiyalari. Faktoring operatsiyalari

va akkreditivlar bo'yicha naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirish uchun blokcheyn platformalaridan foydalanish.

Banklararo xabar almashinuvi uchun blokcheyn texnologiyalari. Ichki va xalqaro darajadagi banklararo xabar almashinuvini ta'minlashda blokcheyn platformalarining qo'llanilishi.

Raqamlashtirish katta salohiyatga ega bo'lsa-da, u bilan birga yangi xavf va tahdidlar ham paydo bo'lishi mumkin. Moliyaviy texnologiyalar banklarda risklarni boshqarish vositasi sifatida ham foydalanilishi mumkin, masalan, katta ma'lumotlar kredit riskini minimallashtirish, ichki audit va nazoratda qo'llanilishi mumkin. Shu sababli, banklarni transformatsiya qilish jarayonida zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish yuzasidan izlanishlar va tadqiqotlar olib borish zarur.

Transformatsiyalashuv jarayonida moliyaviy innovatsiyalar asosida raqamlashtirish mijozlarning banklar bilan munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, ular yangicha sifat bosqichiga ko'tarilmoqda. Hozirda internetga ulangan bankning istalgan mijoz u bilan samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega, uning xizmatlaridan ofislarga bormasdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Koronavirus pandemiyasi davrida ko'plab davlatlarda aholi harakati va faolligini kamaytirish choralari ko'rilayotgan, turli korxonalar inqirozga uchrayotgan bir vaqtda bu texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etdi. Pandemiya sharoitida aksariyat banklar raqamli texnologiyalarning rivojlanishi orqali mijozlar bilan samarali ishlashda davom etdilar.

Bank industriyasining raqamli transformatsiyasi jarayonida tijorat banklarining faoliyat samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar mijozlar va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikni soddalashtirish imkonini yaratdi. Raqamli transformatsiya bilan jismoniy va yuridik shaxslarga bank xizmatlarini ko'rsatishning innovatsion vositalarini faol joriy etish rejalashtirilgan. Ularning aksariyati onlayn-sferaga o'tkazilmoqda (kredit olish uchun ariza berish va ularni berish, pul o'tkazmalarini amalga oshirish, depozitlarni ochish).

Shuningdek, bank sektorini moliyaviy innovatsiyalar bilan boyitishning ayrim

kamchiliklari ham mavjud:

1) texnologiyalarni rivojlantirish va innovatsion yechimlarni joriy etish uchun katta miqdorda investitsiya talab qilinishi;

2) an'anaviy ravishda yangi texnologiyalarni tushunishda qiynaladigan, ularga ishonchsizlik bildiradigan odamlarning ayrim toifalari mavjud (odatda keksa avlod), bu fuqarolarning mavjudligi an'anaviy xizmatlar ko'rsatishdan butunlay voz kechishga imkon bermaydi;

3) xavfsizlik masalalariga, ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasiga katta e'tibor berishning ahamiyati.

Shunga qaramay, bank sohasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning afzalliklari juda ko'p. Raqamli texnologiyalardan foydalanish mijozlarga bank operatsiyalarini 24 soat davomida amalga oshirish, turli masalalar bo'yicha axborot yordamini olish, ko'proq iste'molchilarni jalb qilish, filiallar ochish zaruratini kamaytirish, xodimlar bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirish va boshqa ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Ko'p jihatdan aynan mijozlar bilan o'zaro hamkorlik jarayoni samaradorligini oshirish imkoniyati banklardagi raqamlashtirish jarayonlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

1.3. Banklarni transformatsiyalashuvida moliyaviy innovatsiyalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari

Mamlakatimizda hozirgi kunda ulkan o'zgarishlar va yangiliklar deyarli har kuni sodir bo'lmoqda, bu esa taraqqiyot sur'atlarining sezilarli darajada tezlashib, ularning natijadorligi oshayotganini ko'rsatadi. Eng asosiysi, ushbu keng ko'lamli islohotlar va yangilanishlar "Yangi O'zbekiston"ning rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqish hamda xalq farovonligini oshirish kabi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan.

Zamonaviy texnologiyalar bir joyda to'xtab turmaydi. Ular doimiy takomillashib borgani sari, tabiiyki, sohaning me'yoriy qonunchilik asoslari ham mustahkamlanib boradi, jumladan, 2030-yilga qadar "Raqamli O'zbekiston" konsepsiyasini ishlab

chiqish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.

Innovatsion texnologiyalar mamlakatning iqtisodiy sohasiga tadbiriq etilganda ushbu sektor faoliyatini takomillashtirish uchun xizmat qiladi. Bunda banklarni transformatsiyalshuvi hukumat darajasidagi holat bo‘lganligi sababli ham raqamlashuv jarayonlari juda intensiv darajada amalga oshayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bu jarayonda banklar mijozlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni kuchaytirish, xizmat ko‘rsatishni soddalashtirish va qulayliklar yaratish, moliyaviy hisob-kitoblarni to‘liq avtomatlashtirish kabi keng imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar yordamida banklar xavfsizlik va himoya sohasida ham yangi va samarali usullardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bank mijozlari ma‘lumotlarini muhofazasi, kiberxavflardan himoyalanih choralari borasida ham aniq metodlarni ishlab chiqish hamda ulardan keng foydalanish bo‘yicha izlanishlar olib boorish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoniga muvofiq, barqaror iqtisodiy o‘sinh orqali aholi farovonligini ta‘minlash bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar orasida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini ikki barobarga oshirish va mamlakatni “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kiritish vazifasi yuklangan. Ushbu vazifani amalga oshirishda banklar faoliyatini raqamlashtirish va zamonaviy raqamli mahsulot hamda xizmatlarni taklif etuvchi banklar sonini ko‘paytirish zarurligi ko‘rinadi. Ushbu vazifani bajarish uchun pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar borasida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohatlarni davom ettirish orqali 2030-yilga borib yillik inflyatsiyani 5-6 foiz darajasiga tushirish maqsad qilib qo‘yilgan. Iqtisodiyotda transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, shuningdek, mamlakatda qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini ta‘minlash zarurligi ta‘kidlangan.

Ushbu strategiya doirasida bank sektorini rivojlantirish bo‘yicha maxsus konsepsiya ishlab chiqilgan bo‘lib, unda bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank

xizmatlari bozorini kengaytirish va sohada raqobatni rivojlantirish zarurligi qayd etilgan:

- bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish;

- bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish;

- banklarni xususiylashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish;

- bank bozoriga eng kamida 4 ta nufuzli yirik chet el banklarini jalb qilish;

- bank faoliyatiga xalqaro miqyosda tan olingan minimal talab va standartlarni tadbiq qilish orqali me'yoriy normalar va nazorat bazalarini doimiy takomillashtirish;

- kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish.

Oxirgi yillarda mamlakatimiz bank tizimida ko'plab ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning katta qismi bank tizimi xizmatlarining ommabopligi va qulayliklarini kengaytirish, aholini va iqtisodiyotni ko'p yillar davomida qiynagan naqdsiz hisob-kitoblardagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4400-sonli "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 19-sentyabrdagi PF-3945-sonli "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 7-maydagi PF-3698-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda boshqa ushbu yo'nalishdagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma'lum darajada xizmat qildi.

Yuqorida chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish, banklarning innovatsion mahsulotlarining kengayishi, aholi talablariga mos naqd pullarning iqtisodiyotda mavjudligi borasida rivojlanishlar kuzatildi. Tahlilimizning asosiy maqsadlaridan biri tijorat banklari tomonidan chiqarilayotgan plastik kartalar, o'rnatilayotgan terminallar, bankomatlar va infokiosklarning samaradorligini baholashdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari transformatsiyalshuv jarayonida bo'lib, qisqa davr mobaynida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish va amalga oshirishga asos bo'luvchi qonunchilik bazasi yaratilib, yil sayin takomillashtirilib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarini transformatsiyalashuvi hamda moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish hamda qo'llashda quyidagi me'yoriy hujjatlar asosiy o'rin tutadi. Bularga:

-1996 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi;

-1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni;

-1996-yil 25-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni;

-2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni;

-2004-yil 29-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjatlar aylanishi to'g'risida"gi Qonuni;

-2005-yil 2-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasining "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi Qonuni;

-2015-yil 22-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni;

-2006-yil 4-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni;

-Adliya Vazirligidan 13.02.2008 yilda ro'yxatdan o'tgan №1767 sonli "Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarini qo'llagan holda to'lov tizimini

tashkil qilish qoidalari to‘g‘risida”gi;

-Adliya Vazirligidan 14.02.2006 yilda ro‘yxatdan o‘tgan №1545 sonli “Markaziy bankning banklararo to‘lov tizimi orqali elektron to‘lovlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom;

-Adliya Vazirligidan 19.11.2010 yilda ro‘yxatdan o‘tgan №2155 sonli “Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlarida ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 7-noyabrdagi PQ-726-sonli “Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo‘sh pul mablag‘larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

-Shu bilan birga, banklarda moliyaviy innovatsiyalarni tadbiq etish, raqamlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me‘yoriy hujjatlari va boshqa hujjatlari mamlakatimizda juda tez rivojlanib borayotgan bank xizmatlarini innovatsion tashkil etish uchun asos hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida bank xizmatlarini innovatsion tarzda amalga oshirish hamda to‘lov jarayonlarini raqamlashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi birinchi o‘rinda turadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 44-bobi bank hisobvarag‘iga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra banklar tomonidan bank hisobraqamlarini ochish, bank hisobvarag‘i shartnomasini imzolash, bank hisobraqamidagi pul mablag‘laridan foydalanish, pul mablag‘larini tasarruf qilish, bank hisob raqamlariga mablag‘larini kiritish, bank hisobvarag‘i shartnomasi tuzish shakli, bank hisobvarag‘i bo‘yicha bank tomonidan bajariladigan operatsiyalar, hisobvaraqa bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish muddatlari, hisobvaraqlarni kreditlash tartibi, bank tomonidan bank hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha undiriladigan xizmat haqlarini undirish tartibi, bank tomonidan hisobraqamlarda turgan mablag‘lardan foydalanganlik uchun foiz to‘lash tartibi, bankning mijoz

hisobraqamida turgan mablag'larini o'chirish asoslari, hisobvaraqdan pul mablag'larini o'chirish navbati, hisobvaraq bo'yicha operatsiyalar o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi va pul mablag'lari asossiz o'chirilganligi uchun bankning javobgarligi, bank siri, hisobvaraqni tasarruf qilishning cheklanishiga yul qo'yilmasligi, bank hisobvarag'i shartnomasini bekor qilish tartiblari, banklarning o'ziga tegishli bo'lgan hisobvaraqlar haqida ma'lumotlar hamda munosabatlar tartibi keltirilgan.

Bank to'lovlarini banklarning mobil ilovalari yoki turli to'lov fintechlari orqali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan naqd pulsiz hisob-kitoblar aylanishini tashkil etish va takomillashtirishda asosiy hujjatlardan biri – O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi qonuni sanaladi. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga naqd pulsiz hisob-kitoblarni yo'lga qo'yish va ularni tartibga solishda boshqaruv, yetakchilik va nazorat funksiyalarini amalga oshirish vakolatini beradi. Shuningdek, Markaziy bank O'zbekistonda hisob-kitoblar tizimining samarali faoliyatini tashkil etish va uni ta'minlash vazifasini ham bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va banklar faoliyati to'g'risida"gi qonuni banklar tomonidan masofadan turib amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblarni yo'lga qo'yish va tartibga solishda muhim o'rin tutadi. Mazkur qonun mamlakatdagi barcha banklar faoliyatining asosiy tartib-qoidalarini belgilaydi. Unda bankning tashkilot sifatida qanday faoliyat yuritishi, qaysi operatsiyalarni amalga oshirishi mumkinligi, ularning tashkil etilishi va tugatilishi jarayonlari, banklarning huquq va majburiyatlari, hisobot yuritish talablari va bank faoliyatini nazorat qilish hamda tartibga solish bilan bog'liq boshqa masalalar o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasida "Elektron raqamli imzo to'g'risida", "Elektron to'lovlar to'g'risida", "Elektron hujjatlar aylanishi to'g'risida", "Elektron tijorat to'g'risida" hamda "Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar orqali mamlakatda qo'llanilayotgan va foydalanishga ruxsat etilgan fintech mahsulotlari va moliyaviy innovatsiyalarni amalga oshirish uchun

huquqiy asos yaratilgan. Ushbu qonunlar hisob ochish, shaxsni tasdiqlash kabi jarayonlarda fintech mahsulotlari va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Ushbu me'yoriy hujjatlar orqali elektron munosabatlar tartibga solinadi. Yuqoridagi qonun hujjatlariga muvofiq elektron tarzda to'ldirilgan pul-hisob-kitob hujjati elektron imzo (e-Imzo) bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonunida quyidagicha ta'rif berilgan: elektron raqamli imzo – bu elektron hujjat ma'lumotlarini elektron raqamli imzoning yopiq kaliti yordamida maxsus o'zgartirish orqali yaratilgan hamda ochiq kalit yordamida ushbu hujjatdagi ma'lumotlarning o'zgarmaganligini tasdiqlash va yopiq kalit egasini aniqlash imkonini beradigan imzo hisoblanadi.

Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti – bu faqat imzo egasiga ma'lum bo'lgan va elektron hujjatga imzo qo'yish uchun yaratilgan belgilar ketma-ketligidir. Elektron raqamli imzoning ochiq kaliti esa, elektron raqamli imzoni tekshirish va haqiqiyligini tasdiqlash uchun ochiq foydalanishga mo'ljallangan, yopiq kalitga mos keluvchi belgilar ketma-ketligidan iborat bo'lib, axborot tizimining istalgan foydalanuvchisi undan foydalanishi mumkin.

03.06.2013 yilda Adliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tgan №2465 sonli "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizom O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni yuritish uchun asosiy me'yoriy hujjatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu nizom talablari respublikamizda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar uchun tatbiq etiladi. Ushbu Nizomda to'lovlarni an'anaviy va innovatsion usullar orqali amalga oshirish, shuningdek, to'lov hujjatlarining turlari, ularni rasmiylashtirish va bajarish tartibi bo'yicha qoidalar belgilangan.

Nizomning birinchi bobida naqd pulsiz hisob-kitoblarga oid umumiy qoidalar, naqd pulsiz hisob-kitob shakllari va unda qo'llaniladigan to'lov hujjatlari turlari, shuningdek, mablag' oluvchi va to'lovchi o'rtasidagi hisob-kitoblarda to'lov hujjatlarini tanlash tartibi bayon etilgan. Shu bilan birga, bank tomonidan mablag'larni

mijozning hisobraqamiga kirim va chiqim qilish tartibi, hisob-raqam bo'yicha operatsiyalarni to'xtatish yoki amalga oshirish masalalari, to'lovchining hisobida mablag' yetarli bo'lmagan taqdirda mablag'larni chiqarish asosi, mijozning hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha murojaatlari kabi boshqa umumiy qoidalar ham ko'rsatilgan.


Ikkinchi bob hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish va ularni ijrosini amalga oshirish bo'yicha munosabatlarga qaratilgan bo'lib, ushbu nizom asosida bank xizmatlarini innovatsion amalga oshirishga mo'ljallangan qurilmalarda ko'zrsatilish zarur bo'lgan elektron blankalar joylashtirilgan.

2008-yil 13-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining №1767-sonli "Umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlarini qo'llagan holda to'lov tizimini tashkil qilish qoidalari to'g'risida"gi Qarori, telekommunikatsiya tarmoqlari orqali to'lov tizimini tashkil etish qoidalarini belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi. Ushbu qarorda to'lov tizimlarining axborot tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash tartiblari, shuningdek, to'lov tizimi ishtirokchilari o'rtasida moliyaviy ma'lumotlarni almashish jarayonidagi rekvizitlarga qo'yiladigan talablar ko'rsatilgan.

№1545-sonli "Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi 14.02.2006 yildagi Nizomda esa banklararo va bankning ichki to'lov tizimida qo'llaniladigan hamda bank hisobvaraqlariga masofadan faol xizmat ko'rsatish tizimlarida shakllantiriladigan bank elektron to'lov hujjatlari rekvizitlari shuningdek Markaziy bank XKKM ning banklararo to'lov tizimi orqali hisob kitoblarni amalga oshirish talablari belgilab berilgan.

2010-yil 19-noyabrda qabul qilingan №2155-sonli "Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarida ishlash tartibi to'g'risida"gi Nizom bank hisobvaraqlaridan masofaviy xizmatlar yordamida foydalanish tartibini belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi. Ushbu Nizomda bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat

ko'rsatish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar sifatida belgilangan:



Ushbu Nizomga ko'ra mijoz tizimda faqatgina to'lov topshiriqnomasidan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshira oladi. Mijoz to'lov hujjatlarining boshqa turlaridan (to'lov talabnomasi, akkreditivga ariza) foydalanishga zarurat bo'lsa, banklarning an'anaviy xizmat turlaridan foydalanishi ham mumkin bo'ladi.

Nizomning 13-bandida tizim orqali yuborilgan pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari bankka taqdim qilinmasligi va mijozda saqlanishi belgilangan bo'lib, bu orqali mijozni ortiqcha ovoragarchiliklardan saqlaydi. Bundan tashqari, pul hisob-kitob hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi hamda ularning elektron va qog'oz shakllari o'rtasidagi muvofiqlik uchun javobgarlikning mijoz zimmasiga yuklatilishi, banklarni operatsion xatarlardan himoyalashga yordam beradi.

Nizomning 19-bandiga muvofiq, mijoz tomonidan elektron raqamli imzo kaliti yo'qotilganda yoki identifikatsiya va autentifikatsiya ma'lumotlari uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lib qolganligi haqida shubha tug'ilganda, mijoz bankni darhol xabardor qilib, tizim orqali xizmat ko'rsatishni to'xtatish talab qilinadi. Shundan so'ng, tizim orqali mijoz hisobvaraqlaridan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha javobgarlik

bank zimmasiga yuklatiladi. Bu bank ham mijozni himoyalash maqsadida kiritilgan bo‘lib, bankning o‘z mijozni mablag‘larini saqlash borasidagi mas’uliyatini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi №4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida bank plastik kartalari orqali hisob raqamlarga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlaridan (masalan, “SMS-banking”, “Internet-banking”, “Mobil-banking”) foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, plastik kartalardagi mablag‘larni boshqa kartalarga o‘tkazish uchun xizmat tariflarining 1 foizdan 0,5 foizga kamaytirilishi, bu kabi bank xizmatlarini ommalashtirishga qaratilgan e‘tiborni aks ettiradi. Shuningdek, ushbu farmon bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha beshta ustuvor yo‘nalishdan iborat Harakatlar strategiyasi qabul qilingan. Ushbu strategiyaga muvofiq, bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, shuningdek, moliyaviy barqarorlik va ishonchlilikni mustahkamlash, istiqbolli investitsion loyihalar va kichik biznes hamda tadbirkorlik subyektlarini kreditlashtirishni kengaytirish vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-fevraldagi PQ-2777-sonli “Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining asosiy maqsadi chakana savdo va aholiga pullik xizmatlar ko‘rsatish sohasida naqdsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirish, naqd pul mablag‘larining to‘liq hisobga olinishi va bank aylanmasiga jalb etilishini ta‘minlash, shuningdek, iste‘molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida tasdiqlangan chora-tadbirlar Dasturining ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Banklar assotsiatsiyasi tijorat banklari bilan

birgalikda amaldagi bank xizmatlari tariflarini o'zgartirish va innovatsion yondoshuvlarni joriy etishga qaratilgan choralarni ko'rmoqda. Bunda, bankning ratsional daromadlilikini saqlab qolgan holda tijorat banklarining tarif siyosatini optimallashtirishga, bu orqali bank xizmatlarini jozibadorligini oshirish va yangi mijozlarni jalb qilishga, eng asosiysi, mijozlar bilan yaqin hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli Qarorida so'nggi paytlarda innovatsion o'zgarishlar natijasida bank tizimida xizmat ko'rsatish bozor mexanizmlari joriy etilayotganligi va xizmat turlarining kengayib borayotganligi ta'kidlangan. Shuningdek, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy ochiqlikning oshishi kuzatilmoqda.

Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etish, ayniqsa, hududlarda moliyaviy ochiqlikni kengaytirish va xizmat ko'rsatish madaniyatini yaxshilashda bir qator muammolar mavjud. 2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida bir qator maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan. Ular jumlasiga bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlari ulushini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish, banklar majburiyatlarining umumiy hajmida xususiy sektor oldidagi majburiyatlar ulushini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish, shuningdek, davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitallariga zarur tajriba, bilim va obro'ga ega strategik xorijiy investorlarni jalb qilish ko'zda tutilgan.

Xalqaro moliya institutlari ko'magida "Ipotekabank" ATIB, "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "Asaka" ATB, AT "Aloqabank", "Qishloq qurilish bank" ATB va "Turonbank" ATBdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, birinchi bosqichda institutsional o'zgartirish (faoliyatni transformatsiya qilish), ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalari paketini sotishni

nazarda tutadi. Shuningdek, bank tizimini isloh qilish jarayonida aholining moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabini qondirish, investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmini keng joriy qilish va bank xizmatlarining hududiy qamrovini ta‘minlash maqsadida “Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ, “Agrobank” ATB va “Mikrokreditbank” ATB ustav kapitallarida davlat ulushini saqlab qolish belgilangan. Ayrim banklarning faoliyatini diagnostika qilish va moliyaviy holatini baholash asosida, me‘yoriy talablar va ularni qayta tashkil etishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligidan kelib chiqib, qonun hujjatlariga muvofiq konsolidatsiyalash rejalashtirilgan⁴⁰.

Moliya bozorida teng raqobat muhitini yaratish, kreditlash jarayonlarini faqat bozor shartlari asosida tashkil etish, banklarning davlat resurslariga bo‘lgan qaramligini kamaytirish va bank xizmatlarini modernizatsiya qilish zarur. Banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar uchun o‘zlariga xos bo‘lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo‘tadil o‘sishini ta‘minlash va muvozanatli makroiqtisodiy siyosat yuritishga e‘tibor qaratish, shuningdek, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro tajribaga ega menejerlarni jalb qilish ham zarur. Moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish va bank tizimining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish zarur. Davlat aksiyalari paketini tajribali va bilimga ega investorlarga tanlov asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarini bir vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektoridagi davlat ulushini kamaytirish ham muhim hisoblanadi. Yetarlicha xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif

⁴⁰ A. Utayev, M. Sharipova “Bank tizimida innovatsiyalar orqali raqamli transformatsiyani amalga oshirish va zamonaviy bank menejmentini rivojlantirish” International Journal of Finance and Digitalization

qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish, aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni kengaytirish, kamxarj xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'ini rivojlantirish va respublika yagona moliya tizimining o'zaro to'ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish moliyaviy xizmatlar ommabopligi va sifatini oshirishda muhim masalalar hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalarini joriy qilish bank faoliyatining asosiy institutsional va tashkiliy shakllarini o'zgartiradigan innovatsion jarayon hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotda istiqboldagi banklar faoliyatining ilmiy talqini yetarli darajada emasligi va amaliy talqin qilish sharoitida, ushbu jarayonni sifatli qayta ko'rib chiqish vazifalari juda muhim bo'lib turibdi. Natijada, zamonaviy bank yangiliklari va bank infratuzilmasi rivojlanmoqda, bu jarayonda esa skoring metodlarini takomillashtirishning roli oshib bormoqda. Mavjud muammolarni hal qilish esa bank sektorining institutsional bazasini mustahkamlashga va uni rivojlantirishning samarali strategiyasini shakllantirishga yordam beradi. Bu jarayonda bank boshqaruvining yangi shakllarini izlash, zamonaviy bank texnologiyalarini yaratish, bank kapitalini oshirish, bank faoliyatidagi risklarni minimallashtirish va ularni aniq prognozlash masalalari hamon muhimligini saqlaydi, ilmiy yondashuv esa yanada ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, bank innovatsiyalari va raqamli iqtisodiyot sharoitida ularni joriy etish va takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish juda muhim sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa manfaatdor idoralar bilan hamkorlikda 2019-yil 1-yanvardan boshlab jismoniy shaxslarning mulki va olgan daromadlari, shuningdek, yuridik shaxslarning moliyaviy holati haqida axborotlarni olish imkonini beruvchi davlat organlari va kredit byurosi o'rtasida ma'lumotlarni qayta ishlash va elektron almashish uchun Yagona idoralararo axborot tizimini tashkil etdi. Fuqarolar o'zlari tanlagan bank xizmatlaridan real vaqt rejimida, bankka tashrif buyurmasdan ma'lumot olishlari hamda ushbu xizmatlardan

foydalanishlari mumkin. Bu bilan mijoz vaqti hamda xarajatlari tejalishiga erishiladi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot sharoitida butun dunyoda biror ishlab chiqilgan loyiha yoki satratap bir yildan ortiq ishlatilishi kuzatilmayapti. Ya'ni, ishlab chiqilgan har qanday innovatsion yechim doimiy ravishda yangilanishlar va qo'shimcha qulayliklar bilan to'ldirilmoqda. Iste'molchilar tanlagan mahsulot va xizmatlarga eng qisqa vaqt ichida, eng qulay sharoitlarda va sifatli ravishda kirish imkoniyati har qanday smart qurilma, wallet yoki gadjet orqali amalga oshirilmoqda. Natijada, iqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida tan olingan bank sektori o'z xizmatlarining deyarli 60%ini zamonaviy va yangi fintech yechimlariga yo'qotib qo'ydi. Jahon miqyosida bank orqali amalga oshiriladigan to'lovlar yangi QR kod, har kunda yuzdan ortiq yangidan yaratilgan mobil ilovalar, tezkor to'lov va o'tkazmalarni minimal foiz evaziga onlayn rejimda ishlaydigan platforma va saytlarga 45,5 foizni tashkil etishi ham fintex loyihalar banklarning daromadli operatsiyalari uchun haqiqiy raqobatchiga aylanganidan dalolat beradi. Shunday ekan, banklar hamda fintex tashkilot o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish talab etiladi. Hozirgi vaqtda Markaziy bank tomonidan banklar uchun mavjud innovatsion mahsulotlar ro'yxati, shuningdek, ulardan foydalanish bo'yicha cheklovlar va imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot beruvchi tavsiyaviy xarakterdagi materiallar ishlab chiqilmoqda. Bu tavsiyalar banklarga innovatsion xizmatlarni qo'llashda to'g'ri yo'l tutish va ularni samarali ishlatishda yordam beradi, shuningdek, bank tizimining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

2019-yilda paydo bo'lgan Covid-19 pandemiyasi insonlarni raqamli bank xizmatlaridan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirib yubordi. Biroq bu raqamli texnologiyalarni bank sohasiga joriy etishini tezlashtirishi bilan birga yuqori riskni ham boshqarish zarurligini ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan bank tizimini isloh qilishning keng ko'lamlı yo'nalishlari belgilandi. Ushbu qaror qabul qilinishidan oldin bir qator tijorat banklari

bank xizmatlarining bir tomonlama bo'lishi, mijozlar bilan munosabatlarning nomuvofiqligi, shuningdek, yetarli infratuzilma va moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichlarining pastligi bu sohaning intensiv rivojlanishiga to'siq bo'lganligini ta'kidlash mumkin. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi moliyaviy savodxonligi ko'rsatkichi bevosita yalpi ichki mahsulot hajmigi, iqtisodiy jinoyatlar salmog'iga hamda kiberhujumlar hamda kiberjinoyatlar sonini ortishiga olib keladi. Shu sababli ham banklarda turli zamonaviy moliyaviy innovatsiyalarni qo'llash ortidan biz aholi o'rtasida ko'rinmas jarlik paydo qilishimiz turgan gap. Sababi, aholi moliyaviy ongi o'smas ekan zamonaviy raqamlashuv elementlarini joriy qilishdan ma'no bo'lmaydi.

Insoniyat har kuniga ko'plab axborotlarni qabul qiladi. Bu jarayon mobil telefonlar, internet va smartfonlarning doimiy ravishda o'sib borayotgan texnik imkoniyatlari, shuningdek, insonlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinishi va internet tezligining oshishi bilan bog'liq.

Prezidentning "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni imzolangach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatildi.

Darhaqiqat, "raqamli bank" tushunchasi Yevropa davlatlarida 2015-2020-yillar davomida tez sur'atlarda rivojlandi. Raqamli banklar o'z mijozlariga yanada qulay va foydali xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil PF-5296-sonli "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan, Markaziy bankda chakana xizmatlarga ixtisoslashgan raqamli banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish, shuningdek, innovatsion bank texnologiyalaridan faol foydalanib masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish

maqsadida ushbu jarayonni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish vazifasi belgilandi. Shundan kelib chiqib, 2020-yilda Anorbank va TBC Bank raqamli banklari, 2021-yilda esa Bank Apelsin (hozirgi nomi Uzum) raqamli banki ro‘yxatga olindi.

TBC Bank, Anorbank va Bank Uzum raqamli banklari o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yganidan so‘ng, boshqa tijorat banklari ham mobil ilovalari orqali taqdim etilayotgan bank xizmatlarining ko‘lamini kengaytirishga kirishdi. Bu esa tijorat banklari o‘rtasida, tom ma‘noda, raqobat yuzaga kelganligidan dalolat beradi.

Hozirda mijozlar bank mobil ilovalari orqali har qanday bankka omonatlar qo‘yish va ularni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, ular sanoqli daqiqalar ichida onlayn kredit olish va ularni qaytarish jarayonlarini ham amalga oshirishlari mumkin.

Raqamlashtirishni rivojlantirishning huquqiy asoslari ham doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrda imzolangan PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston –2030” strategiyasi doirasida mijozlarni masofadan identifikatsiya qilishga ruxsat berildi. Bu esa bankka borishdan, shartnomaga imzo chekmasdan, bank xizmatlari va mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatini yaratdi.

Bank xizmatlarini raqamlashtirish nafaqat pul aylanmalarining shaffofligini ta‘minlaydi, balki yashirin iqtisodiyotning qisqarishiga ham yordam beradi. Bu jarayon iqtisodiyotning jadal sur‘atlarda o‘shishiga xizmat qiladi. Raqamlashtirish, shuningdek, yashirin iqtisodiyotni qisqartirib, soliq tushumlarini oshirishga, natijada yangi ish o‘rinlari yaratishga va yalpi ichki mahsulotning o‘shishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Raqamlashtirishga katta e‘tibor berib, uni rivojlantirishga qattiq sarmoya kiritayotgan banklar an‘anaviy xizmat ko‘rsatuvchi banklarga nisbatan ko‘proq mijozlarni jalb qilib, qo‘shilgan qiymatning sezilarli darajada oshishiga erishmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to‘liq nazoratida bo‘lgan qonuniy to‘lov vositasi hisoblanganpullar o‘rinini raqamli valyutalar, xususan, kriptovalyutalar egallashi ehtimoli mavjud. Naqd valyutasiz jamiyat qurish bo‘yicha davlatlar o‘rtasida

o‘zaro raqobatlashish avj olgan. Bu jarayon tezkor va kam xarajatli transaksiyalarni amalga oshirish uchun imkon yaratish bilan bir paytda taxallus ortiga bekingan tomonlarning noqonuniy faoliyatni moliyalashtirishda ishtirok etish xavfini kuchaytiradi.

Bank tizimini raqamlashtirishdagi asosiy muammolar bu –malakali IT mutaxassislarining yetishmasligi, internet tezligi va qamrovining pastligi hisoblanadi. Lekin yurtimizda IT mutaxassislarini yetishtirish, ularning malakasini oshirishga alohida e‘tibor qaratilib kelinmoqda, masalan, tashkil etilayotgan texnoparklarda ish olib boruvchi kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha BAAdan kelgan mutaxassislar bilan hamkorlikda Respublika bo‘ylab “1 million dasturchilar” (Million Uzbek Coders) loyihasi e‘lon qilindi. Mazkur loyihada ishtirok etish uchun jami 20000 ishtirokchi ro‘yxatdan o‘tgan, 2000 ga yaqin ishtirokchi sertifikat olgan va 650 nafar ishtirokchi ushbu kurs bitiruvchilari bo‘lgan.

Bank sektorida raqamlashtirish sohalarini rivojlantirishning asosiy cheklovi yangi ishlanmalarning yuqori narxidir. Hozirgi iqtisodiy vaziyatni barqaror deb atash mumkin emasligi sababi, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish bilan bog‘liq risklarni ba‘zan to‘liq hisobga olish qiyin.

Hozirgi kunda raqamli bank sifatida tanilgan “Anorbank” va “TBC bank”lar o‘z mijozlariga mobil ilovalar va statsionar kompyuterlar orqali to‘liq raqamli xizmatlarni taqdim etmoqda. Bu shuni anglatadiki, raqamli bank mijozlari 24/7 rejimida bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Raqamli bank tizimida mijozlar uchun mobil dastur mavjud bo‘lib, bu dastur yuqori texnologiyali IT-infratuzilma bilan jihozlangan va bank operatsiyalarining yuqori darajadagi moslashuvchanligini ta‘minlaydi.

Bu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy: bugungi kunda faoliyat yuritayotgan tijorat banklari va yangi tashkil etilgan raqamli banklar o‘rtasida qanday farq mavjud?

Raqamli banklar:

Bank filiallari tarmog‘ining kengaytirilmasligi;

Bank-mijoz o'rtasida 100 foiz onlayn aloqa tizimining o'rnatilishi;

Foydalanuvchilar uchun qulay va sifatli mobil ilova;

Bozor talablariga mos omonatlar va kreditlar uchun eng qulay sharoitlar;

Tezkor, sifatli va qulay aloqa markazlari, 24/7 rejimida xizmat ko'rsatish.

Xususiy yoki davlat banklari:

Bank filiallari har bir tuman, shahar va viloyat kesimida faoliyat yuritishi, ammo sifat darajasiga e'tiborning sustligi;

Bank-mijoz o'rtasida onlayn aloqa o'rnatish holatining pastligi;

Mobil ilovalar foydalanuvchilarga bir marta kirish imkonini beradi va ko'p hollarda pul o'tkazish yoki kommunal to'lovlar to'lashda muammolar yuzaga keladi;

Omonatlar va kreditlar chiqarilishi mumkin, ammo ko'p hollarda tanish-bilishchilik katta rol o'ynaydi;

Aloqa markazlari faqat nomigina faoliyat yuritadi, mijozlar ko'pincha bank mutaxassislari bilan muloqot qilishga majbur bo'lishadi.

Demak, moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi bank mijozlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, moliyaviy faollikni oshirishga yordam beradi. Raqamli banklar xizmatlar tannarxini 40-60 foizgacha pasaytirishga erishish orqali mijozlarning vaqt va mablag'larini tejash imkonini beradi.

Boshqacha qilib aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimiga o'tishi yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi va global miqyosda tarqalishi bilan bog'liq. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shunday qilib, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakatning bank-moliya tizimining ravnaqi uchun eng muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi iqtisodiyotga, inson xatti-harakatlariga va butun jamiyatga katta ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro bank sektori bir necha yil davomida

atrof-muhit va biznesni raqamlashtirish natijasida sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Mavjud texnologiyalarning xilma-xilligi insonlarga bir-birlari va biznes bilan muloqot qilishning yangi usullarini izlash imkonini beradi. Mijozlar bank xizmatlaridan foydalanish uchun tobora ko'proq yangi platformalardan foydalanib, banklar bilan o'zaro aloqa qilish uchun turli kanallarni tanlamoqda. Shu bilan birga, texnologiya inson xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarga moslashgan holda, biznesni rivojlantirish uchun yanada samarali va arzon yechimlarni taqdim etmoqda.

Moliyaviy innovatsiyalarni aniqlash juda muhim, chunki ular bilan bog'liq kutilmagan oqibatlarni minimallashtirish uchun moliyaviy bozordagi risklarni boshqarish va boshqa jarayonlarni moslashtirish yo'llarini aniqlash zarur. Bizning fikrimizcha, moliyaviy innovatsiyalarni ularning qamrovi (tijorat banklarida amalga oshiriladigan) va moliyaviy xususiyatlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish lozim.

Bank sektori iste'molchi arxetipining tipik namunasi bo'lgani uchun innovatsiyalarga bo'lgan talab asosan iste'molchilar tomonidan qo'zg'atiladi. Ularning asosiy talablari bank operatsiyalari uchun vaqtni qisqartirish, ularni 24/7 rejimida amalga oshirish imkoniyatidir. Bank mahsulotlari va xizmatlaridan yanada qulayroq foydalanish, yagona interfeysdan foydalangan holda bank xizmatlaridan tashqari boshqa bir qator xizmatlarni ham olish imkoniyatiga bo'lgan talabning yuqoriligi banklarda mobil ilovalar ustida jadal ishlash zaruratini paydo qilmoqda.

So'nggi o'n yilliklarda moliyaviy innovatsiyalar tuzilishi bo'yicha muhim tadqiqotlar taqdim etildi. Moliyaviy innovatsiyani yaratishdan uning amalga oshirilishigacha bo'lgan vaqtni moliyaviy innovatsiyalar sikli deb ataymiz. Bu sikl to'rtta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: yaratish, amalga oshirish, tarqatish va tijoratlashtirish. Moliyaviy innovatsiyalar (yaratish) va ularni amalga oshirish o'rtasidagi vaqt gorizonti moliyaviy innovatsiyalarning kechikishi bilan belgilanadi. Moliyaviy xizmatlarda innovatsion kechikishlar hajmi esa yangi texnologiyaning tranzaksiya xarajatlarini maqbul darajaga kamaytirish uchun zarur bo'lgan vaqt oralig'i bilan aniqlanadi.

Bundan tashqari, yangi g'oyalar, texnologiyalar va biznes modellarining tezkor paydo bo'lishi raqobatbardoshlik va mijozlarning sodiqligini ta'minlash uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu esa mahsulotlarni bozorga tezda olib chiqish va ularning sifati bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar to'planishiga olib keladi. Moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lgan fuqarolar uchun esa bular o'rtasida tanlov qilish qiyin kechadi.

Markaziy bank banklar uchun innovatsiyalar bilan ishlash uchun qulay muhit yaratishda davom etmoqda va moliyaviy infratuzilmani, jumladan, biznes-inkubatorlar va mustaqil fintech kompaniyalari kabi noan'anaviy institutlarni faol qo'llab-quvvatlash orqali bu jarayonga hissa qo'shayapti. Shunday qilib, aholi uchun taqdim etilayotgan xizmatlar ichidan eng optimal variantni tanlash uchun yordamchi va konsultatsiya xizmatlarini ko'rsatish zarurati tug'iladi. Bu xizmatlar oddiy, sodda va tushunarli bo'lishi lozim. Mijozlar, o'z navbatida, o'z banklarida telekommunikatsiya, chakana savdo, ta'lim va sog'liqni saqlash bo'yicha qo'shimcha xizmatlarni olishlari mumkin bo'ladi. Takliflar shaxsiylashtiriladi va bank operatsiyalari tezligi sezilarli darajada oshadi.

II BOB. BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA MOLIYAVIY INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.


2.1. Banklarni transformatsiya qilishda moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish amaliyoti

Oxirgi ikki yuz yil ichida an'anaviy bank tizimi iqtisodiyotlarning rivojlanishida muhim o'rin egalladi. Aynan aholining bo'sh turgan pul mablag'larini yig'ish va shu orqali iqtisodiyotni asosiy moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, barqaror to'lov tizimini ta'minlash, qog'oz pullarning muomalasini samarali amalga oshirish va boshqa shunga o'xshash masalalarda bank tizimi iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylangandi. Ammo XXI asrga kelib bank tizimi oldiga katta bir sinov qo'ydi. Bu ham bo'lsa, moliyaviy texnologiyalarning banklar funksiyalarini oson, tez va qulay usullarda bajara olishidir. Shundan kelib chiqqan holda oxirgi yillarda tijorat banklari mijozlarga ko'rsatayotgan xizmatlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha amaliy ishlar olib bormoqda.

Ushbu bobda tahlilimizni daromad darajasiga ko'ra dunyo mamlakatlarida bank tizimining rivojlanish darajasi hamda aholini bank xizmatlari bilan qamrab olish holatiga to'xtaliga to'xtalib o'tamiz. Bunda jahon iqtisodiyotidagi (WLD) holat, yuqori daromadli davlatlar (HIC), o'rta daromadli davlatlar (MIC), o'rtadan yuqori daromadli davlatlar (UMC) hamda o'rtadan quyi daromadli davlatlar (LMC) guruhlaridagi holatlar tahlil qilindi. Tahlil 2014-2021 yillarni qamrab olgan holda, shu davrdagi ayrim yillarni ko'rib chiqamiz.

Tadqiqotimizning dastlabki bosqichida daromadiga ko'ra dunyo mamlakatlarida aholining banklar xizmatlaridan foydalanish holatini, bunda banklarda hisob raqam ochganlik holatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Tijorat banklarining birinchi navbatdagi maqsadi foyda olish bo'lsa-da, ular tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar iqtisodiyotga va aholi ijtimoiy faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Xususan, to'lovlarni bankdagi hisob raqami orqali amalga oshirish, va bunda tijorat banklari mijozlariga qulay sharoitlar yaratish orqali iqtisodiyotda naqd pul muomalasini kamaytirishga va bu orqali xufyona iqtisodiyotning kuchayishiga to'sqinlik qiladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2014-yilda dunyo aholisining o‘rtacha 62 foizi tijorat banklarida hisob raqam ochgan bo‘lsa, 2017-yilda bu ko‘rsatkich 68 foizni hamda 2021-yilda esa 76 foizni tashkil qilgan holda ular tomonidan bank xizmatlariga qiziqish doim ortib borgan.



2.1-rasm. Daromadiga ko‘ra dunyo mamlakatlarida aholining banklarda hisob raqam ochganlik holati ⁴¹

Rivojlangan davlatlardagi holat jahondagi o‘rtachadan ancha yuqoridir. Rivojlangan davlatlarda aholining katta qismi, ya’ni 95 foizi atrofida tijorat banklarida hisob raqam ochgan holda banklarning xizmatlaridan keng foydalanib kelishmoqda. Bu o‘z navbatida ushbu davlatlarda tijorat banklariga ishonch yuqori ekanligidan, hamda bank tizimidagi har bir o‘zgarish aholining turli qatlamlarigacha ta’sir qilishidan dalolat beradi.


Davlatlarning rivojlanish darajasi, asosan, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM orqali aniqlanadi. Shu ma’noda, o‘rta daromadli davlatlar uch guruhga bo‘linadi: o‘rtadan yuqori daromadli davlatlar, o‘rta daromadli davlatlar va o‘rtadan quyi daromadli davlatlar. O‘rtadan yuqori daromadli davlatlar yuqori daromadli davlatlarga yaqinlashib borayotganini hisobga olgan holda, ushbu davlatlarda aholini bank

⁴¹ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

xizmatlari bilan qamrab olish darajasi ham yuqori ekanligi kuzatiladi. Masalan, 2014-yilda o'rtadan yuqori daromadli davlatlarda aholining 71 foizi tijorat banklarida hisob raqamiga ega bo'lgan, 2021-yilda esa bu ko'rsatkich 84 foizga yetgan.

O'rta daromadli davlatlar guruhida bank tizimida hisob raqam ochish darajasi jahondagi o'rtacha darajadan pastligi aniqlandi. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, 2014-yilda o'rta daromadli davlatlarda aholining 57 foizi tijorat banklarida hisob raqamiga ega bo'lgan. 2021-yilga kelib, bu ko'rsatkich 72 foizga oshgani aniqlangan. Shuningdek, o'rtadan quyi daromadli davlatlarda aholining bank tizimi xizmatlaridan keng foydalanish yetarli darajada yaxshi deya olmaymiz. Masalan, 2014-yilda o'rtadan quyi daromadli davlatlarda aholining 44 foizi tijorat banklarida hisob raqam ochgan bo'lsa, 2018-yilda bu ko'rsatkich 58 foizga, 2021-yilda esa 62 foizga yetgan.

1990-yillardan boshlab, tijorat banklari mijozlar sonini oshirish va daromad manbalarini ko'paytirish maqsadida plastik kartalarning muomalasini kengaytirishga kirishdilar. Buning oqibatida ijtimoiy maqsadlar biri sifatida muomalada naqd pul ulushini kamaytirishga olib keldi. Mamlakatimizda plastik kartalarning keng tarqalishiga aynan plastik kartadagi pullar pul funksiyasini yetarlicha bajarmaganligi sabab bo'lgan edi. Ammo 2017-yildan boshlab bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida plastik kartalarning muomalasi avjiga chiqdi.



2.2-rasm. Daromadiga ko‘ra dunyo mamlakatlarida aholida debit va kredit plastik kartalarining mavjudligi ⁴²


Tahlil natijalariga ko‘ra, 2014-yilda dunyo aholisining o‘rtacha 43 foizida debit yoki kredit kartalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2014-yilda esa bu ko‘rsatkich 49 foizga va 2021-yilda 55 foizga ko‘tarilgan. Yuqori daromadli davlatlarda esa bu ko‘rsatkich ancha yaxshi bo‘lib, 90 foiz atrofida saqlanmoqda.

O‘rtadan yuqori daromadli davlatlarda 2014-yilda aholining 49 foizida debit yoki kredit kartalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib esa aholining 70 foizi debit yoki kredit kartalarga ega bo‘lgan. Shuningdek, o‘rta daromadli davlatlarda 2014-yilda aholining 35 foizida debit yoki kredit kartalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 47 foizga chiqqan. Bu bilan aytishimiz mumkinki, dunyo aholisining yarmidan ko‘pida debit yoki kredit kartalar mavjud emasligini bildiradi.

O‘rtadan quyi daromadli davlatlarda vaziyat yaxshi emas. Xususan, o‘rtadan quyi daromadli davlatlarda 2014-yilda aholining bor yo‘g‘i 22 foizida debit yoki kredit kartalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich sezilarsiz o‘zgargan va bu ko‘rsatkich 28 foizni tashkil qilgan. Dunyo ekspertlarining fikricha, pandemiya

⁴² <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

davri aholini naqd pulsiz hisob-kitob qilishga majbur qilgan. E'tibor qaratsak, o'rtadan quyi daromadga ega bo'lgan davlatlarda hatto pandemiya davri ham ularning naqd pulsiz operatsiyalarini rivojlantirishga yetarlicha turtki bermagan.



2.3-rasm. Daromadiga ko'ra dunyo mamlakatlarida aholining debit va kredit plastik kartalaridan foydalanish darajasi ⁴³

Hayot tajribasi shuni ko'rsatdiki, aholidagi plastik kartalar soni bilan uni ishlatib yurganlar soni doim bir xil bo'lavermaydi. Yuqoridagi ikkita rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqda. Xususan, jahon miqyosida 2014-yilda aholining 43 foizida debit yoki kredit plastik kartalar mavjud bo'lgan, shundan 28 foizi aktiv holda ishlatilgan. 2021-yilda esa bu ko'rsatkichlar 55 foizga va aktiv kartalar ulushi 40 foizga yetgan.

Yuqori daromadli davlatlarda aholidagi plastik kartalarning katta qismi aktiv holda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, yuqori daromadli davlatlarda 2014-yilda aholining 84 foizida debit yoki kredit plastik kartalar mavjud bo'lgan va uning 74 foiz aktiv holda bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkichlar 91 foizga 85 foiz nisbatni tashkil qilgan.

Ammo o'rta daromadli va o'rtadan quyi daromadli davlatlarda vaziyat o'zgacha.


⁴³ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Xususan, o'rta daromadli davlatlarda 2014-yilda aholining 35 foizida debit yoki kredit plastik kartalar mavjud bo'lgan va uning 18 foiz aktiv holda bo'lgan. Ya'ni aholidagi plastik kartalarning 50 foiziga yaqinidan aktiv holda bo'lmagan. 2021-yilda bu ko'rsatkichlar biroz yaxshilangan va mavjud 47 foiz plastik kartalardan 30 foizi aktiv holda bo'lgan. Bu holatni o'rtadan yuqori davlatlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

O'rtadan quyi davlatlardar naqd pulsiz hisob kitoblarni amaliyotga keng joriy etishda yetarlicha muammo borligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, o'rtadan quyi daromadli davlatlarda 2014-yilda aholining 22 foizida debit yoki kredit plastik kartalar mavjud bo'lgan va uning 50 foizidan foydalangan, ya'ni 11 foiz aktiv holda bo'lgan. 2014-yilda esa bu ko'rsatkich 28 foizga 11 foizni tashkil qilgan. 2021-yilga kelib plastiklardan foydalanish bir oz yaxshilangan va aholining 28 foizida plastik kartalar mavjud bo'lgan bo'lsa, uning 14 foizi aktiv holda bo'lgan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, yuqoridan quyi daromadli davlatlarda hatto pandemiya sharoiti ham aholidagi plastik kartalar sonini oshirishga xizmat qilmagan. Shuningdek, bu kabi davlatlarda plastik kartadan foydalanish amaliyoti ham juda past darajada saqlanmoqda. Ushbu davlatlarda aholi tomonidan naqd pulda muomala qilish, plastik orqali muomala qilishdan afzalroq ko'rinadi. Shuningdek, ushbu davlatlarda turli modeldagi terminallar, barkomatlar, infokiosklarning qulay joylashuvlari mavjud bo'lmaganligi ham naqd pulda muomala qilishni talab qilmoqda.


Plastik kartalar muomalasi keng tarqalishiga qaramasdan, uning aholi uchun muammoli tomonlari ham mavjud. Xususan, barcha joylarda terminallarga, bankomatlarga yoki infokiosklarni ta'minlab berish imkoniyati bo'lmashligi mumkin. Bu kabi holatlarda aholiga yanada qulayliklar yaratish maqsadida va banklarning daromadlarini oshirish uchun so'nggi 10 yil ichida raqamli bank xizmatlari kengaytirildi. Bir tomondan bu an'anaviy bank modeliga ham yetarlicha raqobat tug'dirdi.



2.4-rasm. Dunyo iqtisodiyotida yangi tashkil etilayotgan onlayn banklar soni ⁴⁴

Innovatsion bank xizmatlarini taklif etish borasida rivojlanish tendensiyasi so‘ngi yillarda shunday darajada rivojlanmoqdaki, 2024-yilga kelib raqamli bank xizmatlaridan bevosita foydalanuvchilar soni 2,5 mlrd. kishidan ortishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, agar an’anaviy banklar raqamli bank xizmatlarini ko‘rsatishga o‘tishmasa, ular yashab qolishi ham shubxa ostida qolmoqda. Raqamli texnologiyalarning avj olishi bank tizimida onlayn banklarning paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Xususan, bugungi kunda jahon iqtisodiyotida 300 dan ortiq onlayn banklar ochilgan bo‘lsada, ular an’anaviy banklarga katta raqobat bozorini shakllantirdi.

⁴⁴ <https://www.statista.com/markets/414/topic/993/financial-institutions/#statistic4> ma’lumotlari.



2.5-rasm. Daromadiga ko‘ra mamlakatlarda insonlarning raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasi ⁴⁵


So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bank tizimida qulay raqamli to‘lovlardan foydalanishni sezilarli darajada oshirdi. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2014-yilda dunyo aholisining o‘rtacha 44 foizi raqamli to‘lovlardan foydalangan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 64 foiz aholi aynan raqamli to‘lovlardan foydalanmoqda.

Davlatlarning rivojlanganlik darajasi raqamli texnologiyalardan qanchalik keng foydalanayotganligini bildiradi. Xususan, rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yganligini birgina ular aholisi tomonidan bankning raqamli to‘lovlaridan foylanish darajasidan ko‘rishimiz mumkin. Statistik ma‘lumotlarga qaraganda, daromadi yuqori bo‘lgan davlatlarda raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasi 100 foizga yaqin bo‘lib, bu holat asosan pandemiyaning ta‘siri va qisqa muddat ichida yangi startaplarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Bu holatni rivojlanayotgan davlatlarda, ya‘ni o‘rtadan yuqori davlatlarda ham kuzatishimiz mumkin. Ushbu davlatlarda 2017-yilda raqamli to‘lovlardan aholining 61 foizi foydalangan bo‘lsa, 2021-yilda keskin

⁴⁵ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

oshgan va bu ko'rsatkich 80 foizga chiqqan.

Raqamli texnologiyalar boshqa turdagi texnologiyalardan aynan eksport qilish xarajat talab qilmasligi bilan farq qiladi. Ammo shunga qaramasdan, o'rta daromadli hamda o'rtadan quyi daromadli davlatlarda raqamli iqtisodiyotni qurish bir oz qiyin kechmoqda. Xususan, 2014-2021 yillarda o'rta daromadli davlatlarda aholining raqamli to'lovlardan foydalanish darajasi 36 foizdan 57 foizga ko'tarilgan bo'lsa, o'rtadan quyi davlatlarda esa bu ko'rsatkich 24 foizdan 38 foizga ko'tarilgan.



2.6- rasm. Daromadiga ko'ra mamlakatlarda insonlarning onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalanganlik holati ⁴⁶

Oxirgi yillarda raqamli to'lovlar bilan bir vaqtda mobil qurilmalardan foydalangan holda QR kod bilan to'lovlar ham keng tarqalmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, o'rganilgan davr davomida ushbu bankning yangi raqamli texnologiyalaridan foydalanish va bu texnologiyalarning bank daromadlariga ta'siri 2017-yildan boshlab hisobga olinmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilda dunyo aholisining 24 foizi onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 39 foizga ko'tarilgan. Daromadi yuqori davlatlarda bu ko'rsatkich 2017-yilda 59 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda esa 64 foizga

⁴⁶ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

chiqqan.

Tahlil natijalaridan ko‘rinadiki, daromadi o‘rtadan yuqori bo‘lgan davlatlarda onlayn xarid qilish uchun to‘lovlarni mobil aloqalar yoki internetdan foydalanib amalga oshirish keskin ortgan. Xususan, daromadi o‘rtadan yuqori bo‘lgan davlatlarda onlayn xaridlari uchun to‘lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan aholining salmog‘i 2017-yil 32 foizdan 2021-yil 62 foizga ko‘tarilgan.

O‘rta daromadli hamda o‘rtadan quyi daromadli davlatlarda aholining onlayn xaridlari uchun to‘lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalanish darajasi sezilarli darajada pastdir. Xususan, 2017-yilda o‘rta daromadli davlatlarda aholining 18 foizi onlayn xaridlar uchun to‘lovlar amalga oshirishda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 34 foizgacha oshgan. Daromadi o‘rtadan quyi bo‘lgan davlatlarda esa bu sohada ahvol achinarli bo‘lib, 2017-yilda 5 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021-yilda esa 64 foizga chiqqan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni qurish ancha ildamlab ketgan. Shuningdek, daromadi o‘rtadan yuqori bo‘lgan davlatlarda ham oxirgi yillarda raqamli bank xizmatlarning takomillashib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, daromadi yuqori davlatlar hisoblangan Shvesiya, Norvegiya, Niderlandiya kabi davlatlar yaqin kelajakda raqamli bank xizmatlarini keng rivojlantirigan holda, naqd pul muomalasidan to‘liq voz kechishni rejalashtirgan.

Ammo daromadi o‘rta yoki daromadi o‘rtadan past bo‘lgan davlatlarda raqamli bank xizmatlari yetarlicha rivojlangani yo‘q. Bunga ushbu davlatlardagi yashirin iqtisodiyotning kuchli ekanligi, natijada naqd pul muomalasiga yuqori ehtiyoj, ilm-fanning yetarlicha rivojlanmaganligi, raqamli texnologiyalarni joriy etishda yangi startaplarning paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qilishi, shuningdek, korrupsion alomatlarining nisbatan yuqori darajada mavjudligi sabab sifatida keltirishimiz mumkin.

Jahon bankining me‘yoriga ko‘ra, davlatlarning rivojlanganlik darajasini aniqlovchi ko‘rsatkich YaIMning jon boshiga nisbati bo‘lib, unga ko‘ra yuqori

daromadli davlatlarda jon boshiga YaIM 12535 AQSh dollardan yuqori bo'lishi lozim. O'rta daromadli davlatlar ikki guruhga bo'linadi va bular: o'rtadan yuqori daromadli davlatlar, hamda o'rtadan quyi daromadli davlatlardir. Aholi jon boshiga YaIM 4046 AQSh dollaridan 12535 AQSh dollarigacha bo'lsa, ushbu davlatni o'rtadan yuqori daromadli davlatlarga hamda aholi jon boshiga YaIM 1036 AQSh dollaridan 4046 AQSh dollarigacha bo'lsa o'rtadan quyi davlatlar qatoriga kiritadi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'rta daromadli davlatlar aholisi global aholi sonining 75 foizini, shu bilan birga, ularda istiqomat qiladigan dunyodagi qashshoq aholi 62 foizni tashkil etadi.

Ekspertlar fikriga ko'ra, yuqoridagi statistik ma'lumotlarga qaramay, o'rta daromadli davlatlarda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud va ushbu xizmatlarni qo'llovchi korxonalar qiziqishi ham ortib bormoqda.


Bizning ilmiy tadqiqotlarimiz innovatsion bank xizmatlariga qaratilgan bo'lib, diqqatimizni o'rta va o'rtadan quyi daromadli davlatlarda raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyasiga qaratamiz. Bu orqali mamlakatimizni o'rtadan quyi daromadli davlatlar qatoriga qo'shish maqsadiga erishmoqchimiz. Bizning fikrimizcha, ushbu tadqiqot mavzusi biz kabi davlatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bank xizmatlarining keng ommalashuvi uchun katta potensial mavjudligini ko'rsatadi.

2.2. Banklarni raqamli transformatsiya qilish sharoitida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish tendensiyalari

Biz oldingi paragrafda daromadlariga qarab turli toifadagi davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining aholiga taqdim etilishi va qamrab olish darajasini tahlil qildik. Ushbu paragrafda iqtisodiy modeli O'zbekistonga yaqin bo'lgan va u bilan yaqin aloqadagi davlatlarda raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyasini tahlil qilib ko'ramiz. Tahlilda jahondagi o'rtacha ko'rsatkich va unga taqqoslash uchun Qozog'iston, Ukraina, Gruziya va O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining ommalashganligini tekshiramiz. Tekshirishda Jahon bankining 2014-2021 yillardagi statistik ma'lumotlaridan foydalanamiz. Tahlilda ko'rilgan sakkiz yilning ayrim yillarini o'rganib chiqamiz.

An'anaviy va onlayn banklar xizmatlaridan aholi foydalanish darajasini aniqlash uchun dastlabki ko'rsatkich, aholi orasida banklarda hisob raqam ochganlarning foizi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich orqali tijorat banklari xizmatlari orqali aholini qanchalik qamrab olganligini tekshirishimiz mumkin.

Tahlil natijalaridan ko'rinadiki, 2014-2017-yillarda Qozog'iston va Ukraina davlatlarida aholining bank hisob raqam ochganlik darajasi jahondagi o'rtacha darajadan past bo'lgan. Xususan, 2014-yilda Qozog'istonda aholining 54 foizi bank hisob raqamiga ega bo'lgan bo'lsa, shu davrda jahondagi o'rtacha ko'rsatkich 62 foizni tashkil qilgan, hamda 2017-yilda esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 59 foizga 68 foiz to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, 2014-yilda Ukraina davlatida aholining 53 foizi bank hisob raqamiga ega bo'lgan bo'lsa, shu davrda jahondagi o'rtacha ko'rsatkich 62 foizni tashkil qilgan, hamda 2017 yilda esa bu ko'rsatkichlar mos ravishda 63 foizga 68 foiz to'g'ri kelmoqda.




2.7- rasm. Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda aholining banklarda hisob raqam ochganlik holati ⁴⁷

⁴⁷ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tanlangan keyingi ikkita davlatda bank xizmatlari qamrovi jahondagi o‘rtacha darajadan past bo‘lmoqda. Ammo Gruziyada pandemiya ta‘sirida aholining bank xizmatlariga ehtiyoji va keskin oshib ketgan. Bundan farqli o‘laroq, mamlakatimizda pandemiyaning ta‘sirida bank xizmatlari yetarli darajada rivojlanmadi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2014-yilda Gruziya davlatida aholining 40 foizida bank hisob raqamlari bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilda bu ko‘rsatkich 61 foizga ko‘tarilgan. O‘zbekistonda 2014-yilda bank hisob raqamlarga ega bo‘lgan aholi salmog‘i 41 foizni tashkil qilgan holda, Gruziya davlatidagi vaziyatdan yaxshi bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib vaziyat keskin farq qilgan va bizda bu ko‘rsatkich 37 foizga tushib ketgan.

2021-yildagi vaziyatga nazar qaratsak, unda Gruziya davlatida aholining 70 foizi banklarda hisob raqamga ega, hamda pandemiya natijasida bu ko‘rsatkich 10 foizga oshgan bo‘lgan bo‘lsa, mamlakatimizda bu ko‘rsatkich sezilarsiz oshgan va 2021 da 44 foiz aholida bank hisob raqamlari mavjud bo‘lgan. Bundan ko‘rishimiz mumkin, mamlakatimizda aholining katta qismi bank tizimiga ishonchi past hisoblanadi.



2.8- rasm. Ayrim rivojlanayotgan davlatlar aholisida debit kartalar mavjudligi ⁴⁸

⁴⁸ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Oxirgi o'n yillikda nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan davlatlarda ham tovar oldi sotdisi va xizmatlar uchun to'lovlar naqd pulsiz hisob-kitob shaklida amalga oshirilishi va bunda plastik kartalarning o'rni oshib ketdi. Shunday ekan, aholining qanchalik qismi plastik kartalarga ega ekanligi iqtisodiyotda naqdsiz pul muomalasining rivojlanganligini bildiruvchi elementlardan biriga aylandi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda Qozog'iston va Ukraina davlatlarida aholiga plastik kartalar taqdim etish hamda ularning muomalasini tashkil etish uchun katta sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Xususan, 2014-yilda Qozog'istonda aholining 32 foizida debitli plastik kartalar mavjud bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 40 foizga ko'tarilgan. Ammo pandemiya natijasida aholining 70 foizi plastik kartalar bilan ta'minlangan va ularning aksariyati aktiv holatda bo'lmoqda. Shuningdek, 2014-yilda Ukraina davlatida aholining 40 foizi debitli plastik kartalar mavjud bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 49 foizga hamda 2021-yilga kelib aholining katta qismi, ya'ni 70 foizi plastik kartalarga ega bo'lgan.

Tahlil qilingan qolgan davlatlarda esa aholining debitorlik plastik kartalar bilan ta'minlanish darajasi jahondagi o'rtacha darajadan pastligi saqlanmoqda. Xususan, Gruziya davlatida aholining 30 foizida debitorlik plastik kartalar mavjud bo'lgan va 2017-yilda aholining 40 foizida mavjud bo'lgan bo'lsa, ya'ni aholining plastik kartalar bilan ta'minlanish darajasi Qozog'iston davlati kabi bo'lgan bo'lsa-da, keyingi yillarda esa oshmagan, va 2021-yilda 42 foizni tashkil qilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotidagi holatni tahlil qiladigan bo'lsak, 2014-yilda aholining 25 foizida debitorlik plastik kartalar mavjud bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich xatto 24 foizga tushib ketgan. Ammo 2021-yilga kelib vaziyat keskin o'zgargan va aholining 36 foizida plastik kartalar mavjud bo'lgan. Pandemiyaning ta'siri ostida bank xizmatlarining kengayishi va ommalashuvi asosan rivojlangan yoki daromadi o'rtadan yuqori bo'lgan davlatlarda sezilarli darajada yaxshilangan. Bunga qaraganda, daromadi o'rtadan past bo'lgan davlatlarda esa pandemiyaning naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirishdagi ta'siri unchalik sezilmagan. Aynan mamlakatimizda

2021-yilga kelib aholining plastik kartalar bilan ta'minlanishiga prezidentimizning iqtisodiy islohotlari natijasi sifatida ko'rishimiz lozim. 2017-yilda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida naqd pul va naqd pulsiz hisob-kitoblar o'rtasidagi katta tafovut bartaraf etildi, bu esa aholini bank xizmatlariga, ayniqsa, naqd pulsiz hisob-kitoblarga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam berdi. Shuningdek, banklarimiz tomonidan tadbirkorlarni terminallar bilan ta'minlash, aholiga qulay joylarda bankomatlar, infokiosklar joylashtirish orqali plastik karta bilan bog'liq muammolarni sezilarli bartaraf etishga muvaffaq bo'ldik.

Aholini debitorlik plastik kartalar bilan qamrab olish orqali biz iqtisodiyotda naqd pulsiz hisob kitoblarni rivojlantirishga erishsak, kredit plastik kartalarni tarqatish orqali yalpi talabni oshirishga va bu orqali yalpi ishlab chiqarishning oshishiga ta'sir ko'rsatamiz. Shundan kelib chiqqan holda aholini kredit plastik kartalar bilan ta'minlanganlik darajasini va bunda bank xizmatlar bozorini kengayish holatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil natijalariga ko'ra, jahonda insonlarning kredit plastik kartalarga egalik qilish darajasi keskin bo'lmasada, ammo bir maromda oshib bormoqda. Xususan, 2014-yilda aholi orasida kredit plastik kartalarga ega bo'lganlar 17 foizni tashkil etgan bo'lsa, ularning 15 foizi faol ravishda foydalanilgan. 2017-yilga kelib, kredit kartalariga ega bo'lgan insonlar ulushi 18 foizga oshgan, ammo undan foydalanish darajasi o'zgarmay qolgan. 2021-yilda bu yo'nalishda vaziyat ancha yaxshilangan va dunyo aholisining 24 foizida kredit plastik kartalar mavjud bo'lgan va undan foydalanayotgan aholi salmog'i 21 foizga ko'tarilgan.

Tahlil qilinayotgan davlatlar misolida kredit plastik kartalar keng tarqalgan davlat Ukraina hisoblanib, 2014-yilda ushbu davlat aholisining 27 foizida kredit plastik kartalar mavjud bo'lgan va undan 19 foizi aktiv holatda bo'lgan bo'lsa, 2017-yil ham bu ko'rsatkichlar o'zgarmagan. Ammo 2021-yilda bu yo'nalishda vaziyat keskin yaxshilangan va Ukraina aholisining 37 foizida kredit plastik kartalar mavjud bo'lgan va undan foydalanayotgan aholi salmog'i 27 foizga oshgan.

Qozog‘iston davlatida aholining kredit kartalar bilan ta‘minlanish darajasi 2017-2021-yillarda o‘zgarmagan bo‘lsada, ammo 2014-2017-yillarda keskin oshgan. Xususan, 2014-yilda aholining 11 foizida kredit plastik kartalar mavjud bo‘lgan va bo‘lsa, undan foydalanayotgan aholi salmog‘i 5 foizni tashkil qilgan. 2017-yilga kelib aholining 20 foiz qismida kredit plastik kartalar mavjud bo‘lgan hamda ulardan foydalanayotgan aholi salmog‘i 17 foizga ko‘tarilgan.

2.3- jadval

Ayrim rivojlanayotgan davlatlar aholisida kredit kartalarining mavjudligi va ulardan foydalanish darajasi ⁴⁹

Davlatlar		2014 y.	2017 y.	2021 y.
Jahon	Mavjud plastik kartalar ulushi	17%	18%	24%
	Shundan, aktiv holdagi plastik kartalar salmog‘i	15%	15%	21%
Qozog‘iston	Mavjud plastik kartalar ulushi	11%	20%	21%
	Shundan, aktiv holdagi plastik kartalar salmog‘i	5%	17%	18%
Ukraina	Mavjud plastik kartalar ulushi	27%	27%	37%
	Shundan, aktiv holdagi plastik kartalar salmog‘i	19%	19%	27%
Gruziya	Mavjud plastik kartalar ulushi	18%	15%	13%
	Shundan, aktiv holdagi plastik kartalar salmog‘i	13%	13%	12%
O‘zbekiston	Mavjud plastik kartalar ulushi	1%	1%	4%
	Shundan, aktiv holdagi plastik kartalar salmog‘i	0%	0%	0%

Tahlil qilinayotgan Gruziya davlatida esa aholining kredit kartalarga egalik qilish darajasi va undan foydalanish darajasi pasaygan. Xususan, 2014-2021 yillarda Gruziya aholisida kredit plastik kartalar mavjudligi 18 foizdan 13 foizga tushgan va undan foydalangan aholi salmog‘i 13 foizdan 12 foizga tushgan.


O‘zbekistonda aholining kredit plastik kartalar bilan ta‘minlanish darajasi juda past darajada qolmoqda. Xususan, 2014-yilda aholining 1 foizida kredit kartalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, shundan taqriblanganda 0 foizi kredit kartalardan foydalanmoqda. Bu

⁴⁹ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 maълумотлари asosida muallif ishlanmasi.

ko'rsatkich 2021-yilga qadar sezilarsiz o'zgargan. Jumladan, 2021-yilda aholining 4 foizida kredit kartalar mavjud bo'lgan bo'lsa-da, undan keraklicha foydalanmagan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, kredit kartalar yalpi talabni oshirish orqali mamlakat YaIMini oshirishga xizmat qiladi. Chunki, aholi mavjud daromadi emas, balki kelajakdagi daromadini hozirdan sarflash orqali iqtisodiyotda qo'shimcha talabni yaratadi. Ammo, negadir O'zbekiston Markaziy banki 2017-yilga qadar kredit shakliga kredit kartalar orqali ajratilgan kredit xususiyatiga to'g'ri keladigan maqsadsiz kreditlarni kiritmagan. O'ylaymizki, kredit kartalar muomalasini to'xtatish orqali iqtisodiyotdagi ortiqcha talabni cheklash va bu orqali inflyatsiya darajasiga ta'sir qilish bosh maqsad bo'lgan. Ammo iqtisodiyotda qo'shimcha talabni yaratish orqali real YaIMni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq edi.

Bugungi kunda tijorat banklari yordamisiz iqtisodiyotning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Tijorat banklarining asosiy maqsadi daromad olishga qaratilgani bilan shu maqsad yo'lida harakati orqali jamiyatda yangi innovatsiyalar paydo qilishga hamda iqtisodiyotning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Quyidagi tahlilmizda tijorat banklarining innovatsion xizmatlaridan biri bo'lgan raqamli bank xizmatlarning rivojlanish tendensiyasini tahlil qilamiz.




2.9- rasm. Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda aholining raqamli to'lovlardan foydalanish darajasi ⁵⁰

⁵⁰ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, tanlangan davlatlardan Qozog‘iston va Ukraina davlatlari 2021-yilga kelib aholing raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasi jahondagi o‘rtacha darajadan yuqori bo‘lgan. Shuningdek, Gruziya davlatida esa bu ko‘rsatkich jahondagi o‘rtacha darajaga yaqinlashib qolgan. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, Qozog‘istonda 2014-yilda aholining 47 foizi raqamli to‘lovlardan foydalangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017-yilda 54 foizni hamda 2021-yilda 78 foizni tashkil qilgan holda doim jahondagi o‘rtacha darajadan yuqori bo‘lgan.

Tahlilda olingan Ukraina davlatida ham 2014-yilda aholining 48 foizi raqamli to‘lovlardan foydalangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2017-yilda 61 foizni hamda 2021-yilda 81 foizni tashkil qilgan holda doim jahondagi o‘rtacha darajadan yuqori bo‘lgan. Ammo O‘zbekistonda bu vaziyat bizni quvontiradigan darajada emas. Xususan, 2014-yilda mamlakatimizda aholining 38 foizi raqamli to‘lovlardan foydalangan bo‘lsa, 2021-yilga kelib esa 42 foizga chiqqan va kuzatilgan davrda oshish sezilarsiz bo‘lgan.



2.10- rasm. Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda insonlarning onlayn xaridlari uchun to‘lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalanganlik holati ⁵¹

⁵¹ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Shunday qilib, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari uchun raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar va keng bozor mavjudligini ko'rsatadi.


Tahlil qilinayotgan davlatlardan Qozog'iston va Ukrainada mobil aloqalar yoki internet orqali tovar xarid qilish tez rivojlanayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilda Ukrainada aholining 22 foizi onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich o'rtacha jahondagi ko'rsatkichdan ham oshgan bo'lib, 42 foizga ko'tarilgan. Shuningdek, 2017-yilda Qozog'iston davlati aholisining 15 foizi onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich o'rtacha jahondagi ko'rsatkichga yaqinlashgan va 38 foizni tashkil qilgan.

Mamlakatimizda aholining onlayn xaridlar juda sust kelmoqda. Albatta bunga onlayn tovarlarini sotayotgan tadbirkorlarning o'rtasida raqobat muhiti shakllanmaganligi, onlayn tovarlarning asl tovarlar bilan sifati farq qilishi va bu borada yetarli qonunchilikning takomillashmaganligi sabab sifatida keltirishimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, 2017-yilda mamlakatimiz aholisining atiga 2 foizi onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan va 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 6 foizni tashkil qilgan. Demak, banklarimiz oldida aholini onlayn xaridlari uchun qulay to'lov sharoitlarini yaratish va bu orqali daromadalarini oshirish borasida yetarlicha imkoniyatlar ishlatilmayotganini xulosa qilishimiz mumkin.

Bank tizimida innovatsion xizmatlarning ommalashganligini tahlil qilishda keyingi bosqich sifatida aholimiz tarkibida ayollarimizning ushbu xizmatlardan foydalanish darajasini ko'rib chiqish lozim deb bildik. Ushbu qiyosiy tahlilimizda mamlakatimizga kategoriyasi yaqin bo'lgan davlatlar sifatida Turkiya, Malayziya, Saudiya Arabiston davlatlarida ayollarning zamonaviy bank xizmatlaridan foydalanish darajalari olingan. Yuqorida qayd etilgan davlatlarni tanlashimizga diniy tomonlama ham yondoshganmiz. Albatta tanlangan davlatlar bilan bir qatorda mamlakatimizda bu

boradagi statistik ma'lumotlar jahondagi o'rtacha darajadan qanchalik farq qilishini ham tahlil qilganmiz.

Tahlil natijalariga ko'ra, jahonda ayollarning bank xizmatlaridan foydalanish darajasi oxirgi yillarda kengayib bormoqda. Xususan, 2014-yilda jahondagi ayollarning 58 foizi bank xisob raqamlarga ega bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda 65 foizga ko'tarilgan. Pandemiyaning ta'siri natijasida bu ko'rsatkich 74 foizgacha ko'tarilgan. Albatta ayollarning banklar xizmatlaridan foydalanish asosan rivojlangan va musulmon bo'lmagan davlatlarda yuqori ko'rsatkichga ega.



2.11- rasm. Tanlangan davlatlarda ayollarning bank xizmatlaridan foydalanish darajasi ⁵²


Tahlilda tanlangan davlatlarda ayollarning banklarda hisob raqam ochish orqali bank xizmatlaridan foydalanish darajasi bo'yicha Malayziya oldingi o'rinlarda turibdi. Xususan, 2014-yilda Malayziya davlatida ayollarning 78 foizi bank hisob raqamlarga ega bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda 82 foizga ko'tarilgan. Pandemiyaning ta'siri natijasida

⁵² <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

bu ko‘rsatkich 88 foizgacha ko‘tarilgan. Bu bilan aytishimiz mumkinki, Malayziya ayol aholisining katta qismi bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda va buning ko‘rsatkichi jahondagi o‘rtacha darajadan ancha yuqoridir.

Tahlilmizda ayollarning tijorat banklarida hisob raqam ochish bo‘yicha ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan davlatlar sifatida Turkiya va Saudiya Arabistonlarni keltirishimiz mumkin. Xususan, Turkiya davlatida ayollarning banklarda hisob raqam ochish va undan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatkichi oxirgi yillarda keskin oshgan. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, Turkiyada 2014-yilda ayol aholining 44 foizi banklar hisob raqam ochgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 63 foizgacha ko‘tarilgan.

Mamlakatimizda ayollarning iqtisodiyotda, ilm-fanda tutgan o‘rni yil sayin ortib bormoqda. Ammo banklarning xizmatlaridan foydalanish borasida faqatgina oxirgi yillarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, 2014-yilda ayollarimizning 39 foizi banklarda hisob raqam ochgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib bu ko‘rsatkich pasaygan va 36 foizni tashkil qilgan. Ammo 2017-yildan bank tizimida olib borilgan islohotlar, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlar natijasida bu ko‘rsatkich 39 foizga ko‘tarilgan.



2.12- rasm. Tanlangan davlatlarda ayollarning debit va kredit plastik kartalaridan foydalanish darajasi ⁵³

⁵³ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


XXI asrda boshlangan plastik kartalarning keng tarqalishi dunyo ayollarini ham chetlab o'tgani yo'q. Tahlil natijalariga ko'ra, 2014-yilda jahonda ayollarning 40 foizida debit va kredit plastik kartalari mavjud bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib dunyo ayollarining yarmidan ko'pida debit yoki kredit plastik kartalar mavjud bo'lmoqda. Tahlilda tanlangan davlatlar qatorida Malayziya ayollar fuqarolari peshqadamlik qilmoqda. Xususan, 2014-yilda Malayziyada ayol aholining 45 foizida debit yoki kredit plastik kartalar mavjud bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 69 foizga va 2021-yilga kelib pandemiya ta'siri natijasida ham bu ko'rsatkich keskin oshgan va 83 foizga chiqqan.

Tahlil qilingan Turkiya davlatida ayollarning plastik kartalardan foydalanganlik darajasi oxirgi yillarda pasayib ketgan. Xususan, 2017-yilda Turkiya ayol aholisining 51 foizida plastik kartalar mavjud bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich pasaygan va 45 foizni tashkil qilgan. Ammo Saudiya Arabistonda bu borada ayollar ancha faollik ko'rsatishmoqda. Tahlil natijalariga ko'ra, 2014-yilda ushbu davlatda ayollarning 59 foizida debit yoki kredit plastik kartalar mavjud edi, 2021-yilda esa bu ko'rsatkich 62 foizga oshgan.

Mamlakatimizda 2017-yildan boshlab ayollarimizda plastik kartalarning ko'payishi boshlandi. Plastik kartalarning to'lov tizimidagi faolligi nafaqat ayollar qatlamida balki erkaklar qatlamida ham kuchayib bormoqda. Bu mamlakatimiz bank tizimida olib borilgan ijobiy islohotlar natijasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, 2014-yilda mamlakatimizda ayol aholisining 26 foizida debit yoki kredit plastik kartalar (kredit plastik kartalar salmog'i juda past bo'lganligi uchun bu ko'rsatkich tarkibida asosan debit plastik kartalar katta qismni egallagan) mavjud bo'lgan bo'lsa, 2017-yilda pasaygan va 23 foizni tashkil qilgan, ammo 2021-yilga qadar bu ko'rsatkich sezilarli oshgan va 33 foizni tashkil etgan.

Tahlilning keyingi bosqichida tanlangan davlatlarda ayollarning raqamli to'lovlardan foydalanish darajasini ko'rib chiqamiz. Tahlil natijalariga ko'ra, oxirgi yillarda dunyo miqyosida ayollarning raqamli to'lovlardan foylanish darajasi keskin

oshib bormoqda. Xususan, 2014-yilda ayollarning 41 foizi raqamli to‘lovlardan foydalangan bo‘lsa, 2017-yilda 48 foizi hamda 2021-yilda esa 61 foizi raqamli to‘lovlardan foylanmoqda.



2.13- rasm. Tanlangan davlatlarda ayollarning raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasi ⁵⁴


Tahlilda foydalanilgan davlatlardan Malayziyada ayollarning raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasi qolgan davlatlardan ancha yuqori bo‘lmoqda. Xususan, 2014-yilda ushbu davlatda ayollarning 56 foizi raqamli to‘lovlardan foydalangan bo‘lsa, 2017-yilda 64 foizi hamda 2021-esa 76 foizi raqamli to‘lovlardan foylanmoqda. Keyingi o‘rinda Turkiya davlati turgan bo‘lib, ushbu davlatda ayollarning raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasi oxirgi yillarda keskin oshgan. Jumladan, Turkiyada ayollarning raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasi 2017-yilda 42 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda esa 63 foizni tashkil etgan.

Mamlakatimizda, ayollarning raqamli to‘lovlardan foydalanish darajasi, xatto

⁵⁴ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

pandemiya davri natijasida ham o'zgarishsiz qolgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2014-yilda mamlakatimiz ayollarining 37 foizi raqamli to'lovlardan foydalangan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 33 foizga tushgan ammo 2021-yilda ayollarimizning raqamli to'lovlardan foydalanish darajasi oshgan va 36 foizga chiqqan.

Jamiyatimizda oilaviy xaridlarning katta qismini ayollarimiz amalga oshirishini inobatga oladigan bo'lsak, ayollarimizning onlayn xaridlar uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalanganlik darajasini tanlangan davlatlar bilan solishtirgan holda tahlil qilish lozim deb bildik.



2.14- rasm. Tanlangan davlatlarda ayollarning onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalanganlik holati ⁵⁵

Tahlil natijalariga ko'ra, 2017-yilda jahonda ayollarning 24 foizi onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 38 foizga ko'tarilgan. Tahlil uchun tanlangan davlatlardan Saudiya Arabistoni davlatida ayollarning onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalanganlik darajasi oxirgi yillarda keskin oshgan. Xususan, 2017-yilda

⁵⁵ <https://www.worldbank.org> The Global Findex Database 2021 ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Saudiya Arabistoni davlatida ayollarning 21 foizi onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan bo'lsa, 2021-yil kelib esa bu ko'rsatkich uch barobarga oshgan va 62 foizni tashkil qilgan.

Malayziya davlatida ham ayollarning onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalanganlik darajasi keskin oshgan. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu davlatda 2017-yilda ayollarning 36 foizi onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalangan bo'lsa, 2021-yil kelib esa bu ko'rsatkich 51 foizni tashkil qilgan. Turkiya davlatida ayollarning onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalanganlik darajasi sezilarli o'zgargan va bu ko'rsatkich pastligicha saqlangan.

Mamlakatimizda ayollarning onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan foydalanganlik darajasi qoniqarli deb bo'lmaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yilda mamlakatimizda ayollar onlayn xaridlari uchun to'lovlarda mobil aloqalar yoki internetdan umuman foydalanmagan bo'lsa, 2021-yil kelib esa bu ko'rsatkich bor yo'g'i 4 foizni tashkil qilgan.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda ayollarning raqamli bank xizmatlaridan foydalanish darajasi boshqa davlatlarga qaragandan ancha past bo'lmoqda. Biroq, bu tijorat banklarimizda foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu sohada amaliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish orqali raqamli to'lovlarni rivojlantirish va natijada banklarning daromadlarini oshirish mumkinligini anglatadi.

2.3. Banklarni raqamli transformatsiya qilishda moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari

XXI asr boshlarida Internetning tezkor rivojlanishi zamonaviy insoniyat sivilizatsiyasining asosiy xususiyatlarini tubdan o'zgartirib yubordi, bu esa ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash xarajatlarini o'z ichiga olgan tranzaksiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga olib keldi. Axborot xarajatlarining bunday

qisqarishining oqibatlaridan biri sub'ektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar (operatsiyalar) tezligi va soniga bevosita ta'sir ko'rsatadigan axborot maydonining assimetriyasining sezilarli darajada qisqarishidir.

Global tarmoq (statsionar va mobil Internet) va Internet texnologiyalarining sifati tarmoq tovarlarini yaratish bilan bevosita bog'liqdir⁵⁶. Ushbu maqoladagi tarmoq axborot oqimlarini markazlashmagan boshqaruv tizimiga ishora qiladi va tarmoq tovarlari bir-birini to'ldirish, muvofiqlik, standartlashtirish, sezilarli miqyos tejankorligi, tarmoq tashqi ta'siri va tuzoq effektlari kabi xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar vaqt birligida amalga oshirilayotgan hisob-kitoblar sonini keskin oshirish uchun zarur sharoitlar yaratdi, bu esa raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tishga sabab bo'ldi.

Ayrim zamonaviy raqamli texnologiyalar aholining raqamli transformatsiya jarayoniga yuqori darajada jalb etilishini nazarda tutadi. Ta'minot zanjirini samarali boshqarish muammolarini hal qilish maqsadida texnologiyadan eng keng tarqalgan foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ushbu texnologiya yuqori daromadli mamlakatlardagi kompaniyalarning 50% dan ortig'ida qo'llaniladi, bu tizimga xom ashyoni sotib olish, moddiy boyliklarni ishlab chiqarish va ularni keyinchalik sotishning texnologik siklini optimallashtirish va deyarli to'liq nazorat qilish imkonini beradi. 2 va 3-o'rinlarda taxminan 25% ko'rsatkichga ega bo'lgan korxonalar resurslarini rejalashtirish muammolarini hal qilish texnologiyalari va mijozlar bilan munosabatlarni samarali boshqarish tizimlari joylashgan. Onlayn xaridlar, onlayn savdo va bulutli hisoblash tizimlari ham keng qo'llaniladi. Oxirgi o'rinda kompaniyalarning 5% da qo'llaniladigan radiochastotani identifikatsiya qilish tizimidan foydalanish turibdi. Ko'lamning bunday kichik ulushi kompaniyalarning mijozlar - chakana savdo yoki logistika xizmatlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar bilan bevosita o'zaro aloqada bo'lishi kerakligi bilan bog'liq. Iqtisodiy jihatdan eng

⁵⁶ Antonopulos A. Pul interneti. - M.: Olimp-Biznes, 2018. - 192 b.

rivojlangan mamlakatlarda raqamli texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi kompaniyalarning yillik bozor kapitallashuvi 1 milliard dollardan oshadi (bular asosan Shimoliy Amerika, Osiyo va Yevropadagi kompaniyalardir). Ushbu ko'rsatkich raqamli texnologiyalarning umumiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichlari bilan mos keladi⁵⁷.

Turli sohalarning muvaffaqiyatiga turtki bo'lgan moliyaviy innovatsiyalar so'nggi 30 yil ichida axborotni qayta ishlash, telekommunikatsiya va biotexnologiya sohasidagi yangiliklarni faollashtira olmadi. Darhaqiqat, 70-80-yillarda yangi paydo bo'lgan yuqori texnologiyali axborot-kommunikatsiya kompaniyalari o'z rivojlanishlarini amalga oshirishga harakat qilganida, an'anaviy tijorat banklari ularni moliyalashtirishga qiziqish bildirmadi. Sababi, yangi kompaniyalar kredit to'lovlarini qoplash uchun yetarli pul oqimlarini yaratmaydilar, shuningdek, bu kompaniyalar real sektorda tajribaga ega bo'lmagan olimlar tomonidan boshqarilardi. An'anaviy qarz va qimmatli qog'ozlar bozorlari ham ehtiyotkorona yondashdilar, chunki texnologiya investitsiya jihatidan juda murakkab va noaniq ko'rindi. Natijada, potentsial daromadli yuqori texnologiyali kompaniyalar yetarli kapitalni jamg'ara olishda muammolarga duch kelishdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'lum bir moliyaviy innovatsiyaning statistik ma'lumotlar asosida obyektga (bizning tadqiqotimizda banklarga) ta'sirini miqdoriy baholash mumkin. Agregatdagi moliyaviy innovatsiyalarning barcha xilma-xilligini baholovchi universal matematik apparatni yaratish imkonsiz. Bizning holatimizda moliyaviy innovatsiyalarning tijorat banklariga nazariy bog'liqligi va ta'sirini ko'rsatuvchi modellar tizimidan iborat bo'lgan moliyaviy innovatsiyalarning tijorat banklariga ta'sirini baholash metodologiyasini ishlab chiqish mumkin.

Moliyaviy innovatsiyalarning tijorat banklariga ta'sirini baholash bo'yicha murakkab vazifa bir necha o'n yillar davomida butun dunyo bo'ylab turli

⁵⁷ Tagarov B.J. [Raqamli klaster iqtisodiy kontsepsiyaning yangi shakli sifatida](#) // Ijodiy iqtisodiyot. - 2021. - No 2. - b. 327-340. – doi: 10.18334/ce.15.2.111726.

yurisdiksiyalarning nazorati ostida edi. Shunday qilib, Moliyaviy innovatsiyalarning tijorat banklariga ta'sirini aniqlash, muayyan moliyaviy innovatsiya va uning ta'siri o'rtasidagi sababiy bog'liqlikni o'rnatishni talab qiladi.

Ko'pincha bu bog'liqlik klassik modelga asoslanadi. Model birinchi marta V.Bush tomonidan Amerika fan taraqqiyoti assotsiatsiyasining "Science"⁵⁸ jurnalida taklif qilingan. Ushbu model innovatsiyalarga investitsiyalarning bevosita ta'sirini (masalan, tadqiqot granti, ijtimoiy-iqtisodiy foyda innovatsiyalari, ilmiy-texnika taraqqiyoti) chiziqli bog'lashga asoslangan bo'lib, kirish va natijalar nisbati o'rtasidagi oddiy bog'liqlikni o'z ichiga oladi. Prinsipial jihatdan, agar ushbu model investitsiyalar va uning moliyaviy innovatsiyalarga ta'siri o'rtasidagi munosabatlarni to'g'ri aks ettirsa, dastlabki investitsiyalarga qadar bo'lgan ta'sirni (oqibatlarini) kuzatish nisbatan oson bo'lar edi. Biroq, ushbu model moliyaviy innovatsiyalarning oddiy, chiziqli, sabab-oqibat munosabatlaridan tashqari bir qator xususiyatlarini hisobga ola olmaydi:

- noqiziqlik - tadqiqotdan ta'sirga qadar sabab-oqibat munosabatlari zanjiri na yopiq, na chiziqli bo'lib, moliyaviy innovatsiyalarni "tortib oladigan" va turli bosqichlarda yangi ma'lumotlarni taqdim etuvchi qayta aloqa zanjirlariga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, bu zanjirdagi barcha bo'g'inlar mavjud bo'lishi shart emas, chunki ko'plab kompaniyalar moliyaviy jihatdan innovatsiyalar kiritishi mumkin, ammo ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirmasligi mumkin.

- dinamika - "xarajat-faoliyat-chiqish-ta'sir" munosabatlari statik emas, balki o'zgaruvchan sharoitlarda doimo rivojlanadi. Investitsiyalar qisqa, o'rta va uzoq muddatda turli ta'sirlarni keltirib chiqaradi. Ushbu vaqt oralig'i innovatsiyalar va investitsiyalarning xususiyatiga hamda qo'llaniladigan ta'sir o'lchoviga bog'liq. Ko'plab yangiliklar "past amplituda" bo'lib, uzoq vaqt davomida (ba'zi hollarda 10-20 yil) sodir bo'ladi.

- masshtab - ta'sir ko'lami turlarini (iqtisodiy, ijtimoiy yoki ekologik) aniqlash

⁵⁸ Bush, V. Science: The Endless Frontier. A Report to the President by Vannevar Bush, Director of the Office of Scientific Research and Development / V. Bush. - University of Michigan Library, 1945. - 204 p.

yoki ularning taqsimlanish oqibatlarini baholashning bevosita usuli yo‘q.

- yig‘ish - mikro darajadagi ta’sirlarni (umumiy) makro darajadagi ta’sirlar bilan osongina umumlashtirish qiyin.

- globallik - jahon iqtisodiyoti va tadqiqot jamiyatida zanjirdagi bo‘g‘inlar har doim geografik joylashuv bilan cheklanmaydi. Chet elda olingan bilimlar mahalliy banklarning innovatsion xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatadi.

- atribut - berilgan ta’sir uchun uning innovatsiyalarga qo‘shgan hissasini aniqlash qiyin, chunki ekotizimga boshqa investitsiyalarning ta’siri, nojo‘ya ta’sirlar va boshqa ekzogen omillarni tahlil qilish murakkab. Bu holat ko‘pincha “atributsiya muammosi” deb ataladi.

- sababiy bog‘liqlik (sabablilik) - sabab munosabatlarini aniqlashda qo‘shimcha murakkablik paydo bo‘ladi. Haqiqiy kiritilgan investitsiyalar bo‘lmaganda ta’sirni kuzatish imkoni yo‘q⁵⁹. Bu “kontrafaktik muammo” deb ataladi, chunki “nol investitsiyalar” uchun eksperimental nazorat mavjud emas va ta’sirni baholash uchun aniq baza yo‘q.

Moliyaviy innovatsiyalarning ushbu xususiyatlarining birlashuvi tijorat banklariga ta’sirini (mintaqaviy, viloyat yoki milliy darajada) baholashni murakkab vazifaga aylantiradi. Biroq, ushbu muammolarni hal qilish maqsadida turli baholash vositalari ishlab chiqilgan.

Eng muqobil yondashuvni aniqlashda metodologiyalar o‘rtasidagi birlamchi o‘zaro kelishuvga e’tibor berish muhimdir, ya’ni ta’sirni baholash darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ma’lumotlarni yig‘ish talablariga ham shuncha ko‘proq e’tibor qaratilishi zarur. Ishonchli va aniq ta’sirni baholash sabab munosabatlarini o‘rnatadigan usullardan foydalanish uchun nisbatan uzoq vaqt davomida yetarli ma’lumotlarni to‘plashni talab qiladi. Bunday ma’lumotlarsiz yoki qisqa vaqt oralig‘ida ta’sirni baholashning ishonchliligi va ahamiyati kamayadi.

⁵⁹ Council of Canadian Academies. Innovation Impacts: Measurement and Assessment. The Expert Panel on the Socio-economic Impacts of Innovations Investments. 2015. - 148 p.

Umuman olganda, ta'sirni baholash muammolarini tahlil qilib, biz baholash metodologiyalarini tadbiq etish uchun bir qator mezonlarni ishlab chiqdik: ishonchlilik (ya'ni sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash qobiliyati), ma'lumotlarga bo'lgan talablar, vaqt (davr), ko'plab ta'sirlarni o'rganish qobiliyati (iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan), shuningdek, moliyaviy innovatsiyalar tabiatini (chiziqli bo'lmagan va dinamik) anglash qobiliyati.

Ta'sirni baholashning ishonchliligi va ahamiyati to'plangan ma'lumotlarning turiga va sifatiga bevosita bog'liqdir. Eng yaxshi tajribaga asoslangan murakkab ekonometrik baholash usullari ko'pincha ma'lumotlar yetishmasligi bilan cheklanadi. Ta'sirni baholashda ikkita asosiy ma'lumot manbalaridan foydalaniladi: ma'muriy ma'lumotlar (masalan, Statuz, Eurosta va boshqalar) va so'rovlar (tadqiqotlar).

Ko'plab milliy institutlar (agentliklar, byurolar) statistik idoralari ilmiy va innovatsion faoliyatni baholash maqsadida turli ma'lumotlarni to'playdi (masalan, ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlar, innovatsion xodimlar, intellektual mulk va boshqa ko'rsatkichlar); tashkilotlarning faoliyati natijalari (masalan, ishlab chiqarish, kapital qo'yilmalar, korporativ foyda va h.k.); iqtisodiy ko'rsatkichlar (masalan, YaIM, iste'mol, qashshoqlik darajasi va boshqalar). Moliyaviy innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi ro'lini o'rganish maqsadida, ayrim mamlakatlar, masalan, Kanada, sanoat agregatlari bo'yicha ikki va uch xonali raqamlardagi ma'lumotlarni, Shimoliy Amerika sanoat tasnifi tizimiga muvofiq tasniflangan hududlarda ishchi kuchi, kapital va ko'p faktorli mahsuldorlik to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlaydi.

Mintaqaviy statistik tashkilotlar ham shunga o'xshash ma'lumotlarni to'plashda, ba'zida bu ma'lumotlar to'plamlari o'rtasidagi taqqoslash haqida xavotirlar mavjud⁶⁰.

OECD protokollariga muvofiq, innovatsion faoliyatni o'rganish innovatsion

⁶⁰ Council of Canadian Academies. Innovation Impacts: Measurement and Assessment. The Expert Panel on the Socio-economic Impacts of Innovation Investments. 2015. - 148 p.

faoliyat subyektlari natijalari to'g'risida batafsilroq ma'lumot va axborotlarni olish uchun mo'ljallangan. Innovatsion tadqiqotlarning eng keng tarqalgan turi bu tijorat banklarining innovatsiyalariga ta'sir qiluvchi omillarini ko'rib chiqayotganidir. Tadqiqot siyosatchilarga innovatsiyalarni rag'batlantiradigan shartlar va faoliyatlar to'g'risida tushunib bo'lmaydigan, aniqlanmagan tushunchalarni taqdim etish uchun qimmatli vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Moliyaviy innovatsiyalarning mohiyatini tushunish va uning ta'sirini baholash uchun moliyaviy innovatsiyalar sodir bo'ladigan kontekstni tushunish kerak. Keys tadqiqotlari moliyaviy innovatsiyalarning asosini va ularning innovatsion muhitga ta'sirini yaxshiroq anglashga yordam beradi. Ushbu tadqiqotlar innovatsiyalarga ta'sir ko'rsatuvchi shartlar va omillarni chuqurroq tasvirlaydi hamda innovatsiya subyektlari tomonidan qabul qilingan asosli qarorlar haqida ma'lumot beradi.

Ta'sirni baholashda moliyaviy innovatsiyalarning qaysi jihatlari qo'llab-quvvatlanayotganini va qanday natijalarga erishilganini tushunish uchun amaliy tadqiqotlarni chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar turli darajada va ko'p nuqtayi nazardan o'tkazilishi mumkin. Ular nashr etilgan hisobotlar, hujjatli tahlillar, asosiy ma'lumot beruvchilar bilan suhbatlar, muntazam ma'lumotlar va maxsus so'rovnomalardan foydalanishi mumkin. Keyslarni umumlashtirish ko'pincha cheklangan, chunki innovatsiyalarning tabiati va tijorat banklariga ta'sir qilish munosabatlari har doim bir xil bo'lmasligi ehtimoli mavjud; ammo, bu muammoni tegishli tasodifiy yoki maqsadli tanlov mezonlari yordamida minimallashtirish mumkin. Tadqiqotlar ta'sirning aniq miqdorini ta'minlay olmaydi. Biroq, ular kutilayotgan ta'sirlarni belgilab, haqiqiy o'zaro ta'sirlarning murakkabligini aks ettiruvchi tafsilotlar bilan miqdoriy yondashuvlarni to'ldirish yoki kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin.

Moliyaviy innovatsiyalarning xarajatlari, samaradorligi, natijalari va ta'sirini baholashda benchmarklardan foydalanish keng tarqalgan amaliyotdir. Ushbu ko'rsatkichlar katta miqdorda to'plangan bo'lib, ular oson talqin qilinadi, aniq

ifodalanadi va yurisdiksiyalar orasida osongina solishtiriladi. Biroq, ma'lumotlarni to'plash jarayoni siyosatchilarning ehtiyojlariga hamda moliyaviy innovatsiyalarning o'z dinamikasiga doimiy e'tibor berishni talab etadi. Ko'plab yurisdiksiyalar (masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya va boshqalar) mavjud ma'lumotlarni yangilab boradi, yangi va takomillashgan ma'lumotlarni to'playdi va ma'lumotlar to'plamlari o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi. Shu bilan birga, AQSh Milliy Akademiyalari ekspertlar guruhi fan, texnologiya va innovatsiyalarni o'lchash uchun Milliy Fan Jamg'armasi tomonidan ishlatiladigan ko'rsatkichlarni baholamoqda.

Agar to'g'ri foydalanilsa, ko'rsatkichlar mamlakatdagi innovatsiyalar holatini yuksak sur'atlarda aks ettirishi va vaqt o'tishi bilan moliyaviy innovatsiyalarning evolyutsiyasi haqida keng tasavvur hosil qilishi mumkin. Biroq, hech qanday ko'rsatkich moliyaviy innovatsiyalarning to'liq va mukammal tasvirini bera olmaydi. Har bir ko'rsatkich o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega, ba'zilar ma'lum sohalarga mos keladi, boshqalari esa alohida tahlil darajasiga mos bo'lishi mumkin. Ko'rsatkichlardan foydalanishda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur, chunki bitta indikator butun holatni to'liq aks ettirmaydi. Uni yanada takomillashtirish uchun qo'shimcha ko'rsatkichlar zarur bo'lishi mumkin, ularni boshqa ko'rsatkichlar bilan birlashtirish ham talab etilishi mumkin va natijalar esa turlicha bo'lishi mumkin.

Moliyaviy innovatsiyalarni baholash uchun ko'plab ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan, ammo qaysi ko'rsatkichlarning moliyaviy innovatsiyalar haqida eng ko'p ma'lumot berishi bo'yicha umumiy fikr mavjud emas. Ko'rsatkichlardan samarali foydalanish ularning samaradorligi, hissasi, natijalari va ta'sirini nazariy, empirik yoki siyosiy nuqtayi nazardan baholash uchun mustahkam konseptual asosga kirishini taqozo etadi. Alohida sohalardagi ko'rsatkichlarni ko'rib chiqishda - fan va texnologiya ko'rsatkichlari, ilmiy-tadqiqot ko'rsatkichlari, bank rentabellik ko'rsatkichlari va boshqalar (konseptual asoslarsiz) innovatsiyalarning chiziqli bo'lmagan va dinamik xususiyati hisobga olib bo'lmaydi.

Mikroiqtisodiy nuqtayi nazardan, 20 dan ortiq mamlakatlardagi tashkilotlarda

innovatsiyalar samaradorligini tahlil qilish va solishtirish uchun 20 ta innovatsion ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Yevropa Komissiyasining Global Innovatsiyalar Tashkiloti (GIS) faoliyati Yevropa Ittifoqiga a'zo 28 davlatda innovatsiyalar samaradorligini solishtirishga qaratilgan.

Ushbu submilliy ko'rsatkichlar ma'lumotlarning mavjudligi va yurisdiksiyalar bo'ylab solishtirish mumkinligi tufayli sezilarli darajada murakkabroqdir. AQShda STAR METRICS yondashuvi federal muvofiqlashtirilgan Innovatsiya ko'rsatkichlarini rivojlantirish loyihasi hisiolanadi.

Buyuk Britaniyada Nesta⁶¹ innovatsiyalarni baholash uchun avvalo nomoddiy aktivlarga investitsiyalardan foydalanuvchi innovatsiyalar indeksini ishlab chiqdi. Buni qo'llab-quvvatlash uchun Nesta OECD va Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqotlar va amaliyotlarga asoslangan keng qamrovli loyihalarni amalga oshirdi, natijada 2009-yilda innovatsiyalar indikatorining pilot ko'rsatkichi e'lon qilindi. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, ushbu indeks turli sohalardagi innovatsion amaliyotlarni hisobga olib, to'qqizta sanoat sohasini aniq ko'rsatib o'tgan. Tadqiqot va baholash amaliyotlaridagi kamchiliklar tufayli ikkita keyingi loyiha amalga oshirildi: biri "Iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi" deb nomlangan bo'lib, unda nomoddiy investitsiyalar va foyda ko'rsatkichlari (masalan, ilmiy-tadqiqot, hamkorlik va boshqalar) o'rganilgan; ikkinchisi muvaffaqiyatli innovatsiyalar uchun kengroq shart-sharoitlarni baholash va joriy ma'lumotlar bo'shliqlarini hamda o'lchov ehtiyojlarini aniqlashga qaratilgan.

Avstraliya hukumatining Innovatsion ko'rsatkichlar doirasi loyihasi, mos va aniq baholash metodologiyalaridan foydalanib, innovatsiyalar bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni yig'ish va turli darajadagi baholash tahlillarini birlashtirishda muhim qadam bo'ldi.

Yuqoridagi barcha tahlil darajalari bo'yicha birlashtirilgan ko'rsatkichlar keng

⁶¹NESTA - National Endowment for Science, Technology and the Arts.

doirada taqdim etilgan. Ular ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlar va sektorlar bo'yicha xarajatlar, nomoddiy aktivlarga investitsiyalar, yurisdiksiya bo'yicha innovatsiya turlari va sanoat bo'yicha yangi yoki takomillashtirilgan innovatsiyalarni o'z ichiga oladi. Finlyandiyaning asosiy davlat tadqiqot agentligi Tekes ko'rsatkichlarga asoslangan ilg'or tizimni ishlab chiqdi. Ushbu tizim, garchi oddiy xarajat-faoliyat-natija-ta'sir yondashuvidan foydalansa-da, to'rtta ta'sir toifasiga taalluqli bo'lgan kirishlar, faoliyatlar va natijalarni baholovchi maqbul ko'rsatkichlar to'plamini taqdim etadi: iqtisod va yangilanish, atrof-muhit, farovonlik, ko'nikmalar va madaniyat. Masalan, iqtisodiy ta'sir va yangilanish toifasidagi ko'rsatkichlar "ta'sir effektlari" bilan solishtiriladi: milliy farovonlik (aholi jon boshiga YaIM), umumiy iqtisodiy samaradorlik (MFP), ish o'rinlari yaratish (sof ish o'rinlarining o'sishi), tez rivojlanayotgan korxonalar (tez rivojlanayotgan korxonalar ulushi, yangilanish darajasi) va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI/YaIM). Bunday ko'rsatkichlarni ta'sir sinfiga ko'ra tasniflash innovatsiyalarga investitsiyalarni ta'sir ("hodisalar ierarxiyasi") bilan sifat jihatidan bog'lash imkonini beradi⁶².

CAHS to'lov tizimini o'zgartirish jarayoni mantiqiy model yordamida natijalarni va ta'sirlarni mos keladigan ko'rsatkichlar bilan beshta yo'nalishga ajratadi: bilimlarni oshirish, salohiyatni rivojlantirish, qaror qabul qilish jarayoni, iqtisodiy foyda va ijtimoiy imtiyozlar.

Tekes tadqiqotida kuzatilganidek, ko'rsatkichlar keng qamrovli bo'lib, sifatli xarajat-ta'sir munosabatlarini o'z ichiga oladi. Biroq, ushbu model ishtirokchilarning o'zaro ta'sirini, innovatsiyalarga investitsiyalarning vaqtga bo'lgan sezgirligini yoki innovatsion ekotizimdagi xatti-harakatlarini to'liq aks ettira olmaydi.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarga asoslangan holda yondashuvlar moliyaviy innovatsiyalarning mohiyatini va moliyaviy innovatsiyalarga investitsiyalar o'rtasidagi

⁶² Yuqoridagi barcha tahlil darajalari bo'yicha birlashtirilgan ko'rsatkichlarning keng doirasi taqdim etilgan: ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlar va sektorlar bo'yicha xarajatlar, nomoddiy aktivlarga investitsiyalar, yurisdiksiya bo'yicha innovatsiya turlari va sanoat bo'yicha yangi yoki takomillashtirilgan innovatsiyalar.

bog‘liqlikni, shuningdek, ko‘plab mumkin bo‘lgan ta’sirlarni tushunish uchun ishonchli asos taqdim qiladi. Ammo, bir qancha vaqt o‘tishi bilan yoki yurisdiksiyalar o‘rtasida ta’sirlarni chuqur o‘rganish uchun uzoq muddatli yoki jahon miqyosida taqqoslash mumkin bo‘lgan ma’lumotlar kerak bo‘ladi. Bu ko‘pincha jiddiy muammo sifatida ko‘riladi. Ushbu asosning mavjudligi moliyaviy innovatsiyalar va banklar o‘rtasida sababiy bog‘liqlikni o‘rnatishni ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Keng ma’noda innovatsion faoliyatga investitsiyalarning ta’sirini baholash uchun ekonometrik modellar banklarning innovatsion xatti-harakatlarini o‘rganishga mo‘ljallangan. Ushbu modellar tashkilotlarning bozor salohiyatiga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun jismoniy kapital, moliyaviy kapital, ilmiy-tadqiqot kapitali va mehnat kabi resurslardan foyda olishga intilishini ko‘zda tutadi. Banklar yangi mahsulotlar, bozorlar va eksportni o‘zlashtirish orqali iqtisodiy foyda keltiradi va shu bilan birga, YaIM va soliq tushumlariga hissa qo‘shadi. Ushbu iqtisodiy faoliyatlar turmush darajasini (aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot), bandlikni, yangi sog‘liqni saqlash va atrof-muhit mahsulotlarini hamda bilvosita davlat xizmatlarini yaxshilash orqali ijtimoiy farovonlikka ham hissa qo‘shadi.

Tadqiqot olib borish davomida tijorat banklari tomonidan joriy etilayotgan xalqaro amaliyotda mavjud bank kartalaridan pul o‘tkazmalari va to‘lovlarni amalga oshirishni osonlashtiruvchi ekvayring xizmatining banklarga kirib kelishi hamda uning faoliyatiga ta’sirini o‘rganib chiqdik.

Mobil ekvayring (inglizcha: mobile acquiring) — bu smartfon yoki boshqa aqlli qurilmaga ulangan mPOS terminali orqali bank kartasi yordamida biror mahsulot yoki xizmat uchun to‘lov amalga oshirishga mo‘ljallangan texnologiyadir.

Ushbu texnologiya xalqaro amaliyotda 2013-yildan mavjud bo‘lib, bugungi kunda xavfsiz hamda qulay to‘lash yechimi hisoblanadi. “Ekvayring” so‘zi, odatda, o‘zaro tenglik yoki muvozanatni ifodalovchi termin sifatida ishlatiladi. Matematikada bu, masalan, tenglama yoki formulalar orqali biror qiymatni boshqa qiymatga tenglashtirish jarayonida qo‘llaniladi. Boshqa kontekstlarda esa, masalan,

iqtisodiyotda, talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda ham ishlatilishi mumkin. obil ekvayring – bu mobil qurilmalar yordamida to'lovlarni qabul qilish va amalga oshirish jarayonidir. Banklar va moliyaviy institutlar mobil ekvayring xizmatlarini taklif etishadi, bu esa o'z navbatida savdo nuqtalari, onlayn do'konlar yoki xizmat ko'rsatish jarayonlarida to'lovlarni tez va oson amalga oshirish imkonini yaratadi.

Asosiy afzalliklari:

Quvvat: Savdo nuqtalarida qabul qilish uchun mobil qurilmalar, masalan, smartfon yoki planshetlardan foydalanish imkoniyati.

Tezlik: To'lovlar tezda amalga oshiriladi, bu esa xaridorlar va sotuvchilar uchun qulaylik yaratadi.

Onlayn to'lovlar: Mijozlar mahsulot yoki xizmatlarni onlayn xarid qilganda, mobil ekvayring orqali to'lov qilishlari mumkin.

Xavfsizlik: Ko'pgina mobil ekvayring xizmatlari xavfsizlikni ta'minlash uchun zamonaviy shifrlash texnologiyalaridan foydalanadi.

O'zbekistonda mobil ekvayringdan foydalanish amaliyoti so'nggi yillarda rivojlanmoqda. Bu jarayon quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

Banklar va xizmatlar: O'zbekistonda ko'plab banklar mobil ekvayring xizmatlarini taklif etmoqda. Ular orqali savdo nuqtalarida to'lovlar qabul qilish, shuningdek, onlayn to'lovlar amalga oshiriladi.

Mobil ilovalar: Mobil ekvayring xizmatlari ko'pincha banklarning mobil ilovalari yoki maxsus to'lov tizimlari orqali taqdim etiladi. Misol uchun, "Payme", "Click" va "UzCard" kabi platformalar keng tarqalgan.

Kichik biznes uchun qulaylik: Kichik va o'rta biznes egalari uchun mobil ekvayring qulaylik yaratadi. Ular mobil qurilmalar yordamida tez va oson to'lovlarni qabul qilish imkoniyatiga ega.

Xavfsizlik va ishonchlilik: Mobil ekvayring tizimlari ko'plab xavfsizlik choralari, xususan, shifrlash va autentifikatsiya vositalarini qo'llaydi, bu esa

mijozlarning to'lov ma'lumotlarini himoya qiladi.

Kengayish: Mobil ekvayring xizmatlari O'zbekistonda kengaymoqda va ko'plab xaridorlar tomonidan qabul qilinmoqda. Bu esa nafaqat savdoni oshiradi, balki naqd pulga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Mobil banking doirasida u bank kartalari, onlayn-banking tizimlari va elektron valyutalar bilan birga naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimiga kiritilgan.

Quyidagi jadval O'zbekistonda NBU bankida mobil ekvayringdan foydalanish holatini 2020-2024-yillar oralig'ida o'zgarishini ko'rish mumkin. Jadvalda har bir yil uchun asosiy ko'rsatkichlar va o'zgarishlar keltirilgan.

2.1-jadval

NBU bankida mobil ekvayringdan foydalanish holati⁶³

Yil	Foydalanuvchilar soni	To'lovlar hajmi (mln so'm)	O'zgarish (%)	Xizmatlar yangilanishi	Mijozlar fikri
2020	10,000	500	-	-	Ijobiy
2021	25,000	1,200	+140	Yangi funksiyalar	Ijobiy
2022	50,000	3,000	+150	Mobil ilova yangilandi	Ijobiy
2023	100,000	7,500	+150	Texnik xizmatlar	Ijobiy
2024	200,000	15,000	+100	Yangiliklar joriy etildi	Ijobiy

Mobil ekvayringdan foydalanayotgan foydalanuvchilar soni har yili sezilarli darajada ortayotgani, bu xizmatning ommalashayotganini ko'rsatadi. To'lovlar hajmini yuqori sur'atlarda o'sishi mobil ekvayring xizmatlariga bo'lgan talabning kuchayishini bildiradi. Har yilning o'zida xizmatlar va foydalanuvchilar soni o'rtasidagi farqlar ijobiy ekanligini inobatga olib, bank har yili yangicha funksiyalar va xizmatlar joriy etayotgani, foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratilganini anglatadi. Mijozlar tomonidan xizmat sifatiga munosib baho berilmoqda.

⁶³ Muallif tomonidan bank sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Quyidagi jadvalda biz ushbu moliyaviy texnologiyani kichik bir bank misolida o‘rganamiz. Bu, bank aktivlari hajmiga nisbatan moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish orqali olingan daromad yoki ijobiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi farqni aniqlash imkonini beradi.

2.2-jadval

Turonbank bankida mobil ekvayringdan foydalanish holati⁶⁴

Yil	Foydalanuvchilar soni	To‘lovlar hajmi (mln so‘m)	O‘zgarish (%)	Xizmatlar yangilanishi	Mijozlar fikri
2020	8,000	400	-	-	Ijobiy
2021	20,000	900	+125	Yangi funksiyalar	Ijobiy
2022	35,000	2,200	+144	Mobil ilova yangilandi	Ijobiy
2023	70,000	5,000	+127	Texnik xizmatlar	Ijobiy
2024	150,000	12,000	+140	Yangiliklar joriy etildi	Ijobiy

Turonbank mobil ekvayringdan foydalanayotgan mijozlar soni yirik banklar bilan bir xil o‘shish tendentsiyasini namoyon etmoqda. Har yili mos ravishda ushbu xizmatdan foydalanuvchilar soni ham ortganini ko‘rish mumkin. Shunday qilib, banklarning aktivlari hajmidan qat’iy nazar, ma’lum bir moliyaviy innovatsiyani joriy etish ularga ijobiy o‘zgarishlar keltirishi mumkin, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, moliyaviy innovatsiyalarning asosiy iqtisodiy modelini ishlab chiqarish jarayonining kirish funksiyasi sifatida oddiy matematik ifoda bilan ifodalash mumkin. Ushbu ishlab chiqarish funksiyasini tegishli innovatsiyalar (mobil ekvayring, korporativ kartalar va boshqa moliyaviy innovatsiyalar) uchun quyidagi shaklda ifodalash mumkin:

$$Y_i = F(KK, ME, IE, MI)$$

bunda Y_i - i tashkilotining yakuniy natijasini (ishlab chiqarishni), quyidagi kirish

⁶⁴ Muallif tomonidan bank sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi

ma'lumotlarining funksiyasini anglatadi:

KK - korporativ kartalar;

ME - mobil-ekvayring;

IE - internet-ekvayring;

MI - boshqa moliyaviy innovatsiyalar;


Demak, tijorat banklarida biznes uchun korporativ kartalarni chiqarish (KK), mobil-ekvayring (ME), internet-ekvayring (IE) va boshqa moliyaviy innovatsiyalar (MI)dan foydalanish o'rtasidagi maqbul nisbatni ($KK:ME:MI:IE=0,45;0,21;0,19;0,15$) ta'minlash orqali innovatsion xizmatlar ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirishda erishiladi. Buning natijasida ilg'or tajriba va texnologiyalarni jalb qilish orqali jozibador bank mahsulotlari to'plami va uzluksiz raqamli mijozlar tajribasini yaratishga hamda individual, yuqori sifatli xizmat ko'rsatish orqali "tayyor" bank xizmatlarining to'liq ko'lamini taqdim etishga, pirovardida universal bank uchun zarur bo'lgan keng mijozlar bazasi va kuchli bozor pozitsiyasini egallashga olib keladi.

Bank tizimida innovatsion xizmatlarini rivojlantirish, mijozlar sonini oshirish va bir qatorda xarajatlarini kamaytirish masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimni rivojlantirishni talab etadi. Oldingi paragraflarda biz davlatlar va mintaqalar misolida aholining raqamli bank xizmatlari bilan qamrab olinganlik darajasini tahlil qildik. Tahlil natijalaridan ko'rildiki, mamlakatimizda aholini raqamli bank xizmatlar bilan qamrab olish darajasi qolgan davlatlarga qaraganda ancha past bo'lmoqda. Tijorat banklarimiz aholini bank xizmatlari bilan qamrab olish uchun banklarda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi rivojlangan bo'lishi lozim. Quyidagi paragrafda biz mamlakatimiz bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanganlik darajasini tahlil qilamiz.

Tahlilda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2017-2023-yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan. Tahlilda dastlab butun bank tizimi ko'rilgan bo'lsa, keyingi qismlarida alohida tanlangan yirik va kichik banklar bir-biri bilan solishtirilgan. Jumladan, yirik banklar sifatida O'zmilliybank AJ va

O‘zsanoatqurilishbank ATB tanlangan va ularning masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlarining rivojlanish tendensiyalari qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, kichik banklar sifatida XAB Trastbank hamda ATB Turonbanklar olingan bo‘lib, ular asosan mulkchilik shakliga ko‘ra tanlangan.

O‘zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchi tizimning rivojlanish tendensiyasini aks ettiruvchi muhim omillardan biri — masofaviy bank xizmatlaridan foydalanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar sonining o‘zgarish dinamikasidir. Tahlil natijalariga ko‘ra, 2018-yil 1-yanvar holatiga masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchilarning jami soni 4,5 mln.dan oshgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko‘rsatkich 30 mln.ga yetgan. Shundan kelib chiqib, oxirgi olti yil ichida mamlakatimiz bank tizimida masofaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchi tizimning rivojlanish darajasi tez sur‘atlar bilan oshib bormoqda. Agar masofadan bank xizmatlaridan foydalanayotgan shaxslar tarkibiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, 2018-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, masofaviy bank xizmatlarini ishlatgan jismoniy shaxslarning umumiy soni 4,2 million kishini tashkil etgan, 2023-yil 1-yanvar holatida esa bu ko‘rsatkich 28,8 million kishiga yetgan. Ya‘ni, oxirgi olti yilda masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni yetti barobarga yaqin oshgan.




2.15- rasm. Masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar sonining o‘zgarish dinamikasi (ming kishi)⁶⁵

Mamlakatimizda masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchi jismoniy shaxslar bilan bir vaqtda ulardan foydalanuvchi yuridik shaxslar soni ham keskin oshib bormoqda. Xususan, 2018-yil 1-yanvar holatiga masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarning jami soni 227,88 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko‘rsatkich 1,6 mln. nafarga yetgan.

Tahlilning keyingi bosqichida masofadan bank xizmatlarini taqdim etuvchi tizimlardan foydalanayotgan mijozlar sonining o‘zgarishini aniq tanlab olingan banklar misolida o‘rganamiz. Dastlab, yirik banklar sifatida O‘zmilliy bank AJ va O‘zsanoatqurilishbank ATB misollarini tanlab, ularning faoliyatini qiyosiy tahlil qilamiz. Bu tahlil yordamida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishning dinamikasini, banklarning xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichlarini va foydalanuvchilar sonining o‘zgarishini yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

⁶⁵ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.




2.16- rasm. Tanlangan yirik banklarda masofadan bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar sonining o'zgarish dinamikasi (ming kishi)⁶⁶

Tahlil natijalariga ko'ra, 2018-yil 1-yanvar holatiga O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar soni O'zsanoatqurilishbank ATBning holatida besh barobar ko'p bo'lgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga O'zsanoatqurilishbank ATBda bu sohadagi mijozlar soni O'zmilliy bank AJdan uch barobarga ko'p bo'lgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yil 1-yanvar holatiga O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchi mijozlar soni 652,7 ming shaxsni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 2,5 barobarga oshgan va 1513,2 ming shaxsni tashkil etgan. Shuningdek, O'zsanoatqurilishbank ATBda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchi mijozlar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 117,5 ming shaxsni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 4813,7 ming shaxsni tashkil etgan holda qirq barobarga oshgan.

Tahlilimizda tanlangan kichik banklar sifatida XAB Trastbank va davlat ulushi mavjud bo'lgan ATB Turonbanklarda ham masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanayotgan mijozlar sonining o'zgarishi har xil ko'rinishda namoyon

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

bo'lgan. Xususan, 2017-2020-yillarda XAB Trastbankda masofaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchi tizimlardan foydalanayotgan mijozlar soni ATB Turonbankga qaraganda ancha yuqori bo'lgan. Biroq, keyingi davrlarda bu holat o'zgarib, ATB Turonbankda mijozlar soni o'sishga erishgan.



2.17- rasm. Tanlangan kichik banklarda masofadan bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar sonining o'zgarish dinamikasi (ming kishi)⁶⁷

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, XAB Trastbankda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchi mijozlar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 67,8 ming shaxsni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich to'rt barobarga oshgan va 252,1 ming shaxsni tashkil etgan. Shuningdek, Turonbank ATBda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchi mijozlar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 14,8 ming shaxsni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich yigirma besh barobarga oshgan va 337,2 ming shaxsni tashkil etgan.

Bank tizimida va tahlil uchun tanlangan banklarda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar sonining yillar davomida o'zgarish tendensiyasini o'rganish juda muhimdir. Bu jarayon orqali biz qaysi yillarda masofaviy

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar sonining keskin o'zgarishlarga uchraganligini aniqlaymiz va bu o'zgarishlarga nima sabab bo'lishi mumkinligini tahlil qilib, xulosalar chiqaramiz.

2.2-jadval

Bank tizimida masofadan bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchi mijozlar sonining o'zgarish dinamikasi (oldingi yilga nisbatan)

	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023
Bank tizimi	78,73%	27,57%	43,51%	38,65%	48,49%
O'zMilliybank AJ	39,62%	87,67%	-26,72%	11,77%	8,02%
O'zsanoatqurilishbank ATB	47,81%	365,50%	111,09%	55,77%	81,00%
XAB Trastbank	44,76%	3,55%	39,28%	37,30%	29,64%
ATB Turonbank	-11,10%	1153,65%	31,40%	22,70%	27,10%

Tahlil natijalariga ko'ra, mamlakatimizda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni 2018-yilda 2017-yilga qaraganda katta o'zgargan va bu ko'rsatkich 78,7 foizni tashkil qilgan. Keyingi davrlarga bank tizimida masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar sonining o'zgarishi doim o'sishda bo'lgan.


Tanlangan banklardan O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni katta o'zgargan davr 2019-yilda kuzatilgan. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zmilliybank AJda 2019-yilda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchi mijozlar soni 2018-yilga nisbatan 87,7 foizga oshgan. Biroq, 2020-yildagi pandemiya davrida ushbu bankning masofaviy xizmatlaridan foydalanuvchilar soni o'sish o'rniga, aksincha, 2019-yilga nisbatan 26,7 foizga kamaygan.

O'zmilliybank AJdan farqli ravishda tahlil uchun tanlangan yirik banklardan biri O'zsanoatqurilishbank ATBda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchi mijozlar soni doim oshib borgan. Ko'rilgan davrda ushbu bankda eng katta o'zgarish 2019 va 2020-yillarda kuzatilgan. Xususan, 2019-yilda oldingi yilga nisbatan o'sish 365,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda esa 111,1 foizga oshgan.

Tanlangan kichik banklarda ham vaziyat turlicha. Xususan, XAB Trastbankda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni 2018-yilda oldingi yilga nisbatan 44,8 foizga oshgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich sezilarsiz, ya'ni 3,5 foizga oshgan. Ammo keyingi davrlarda XAB Trastbankda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni bir maromda oshgan. Bunda asosan pandemiya davrida, ya'ni 2020-yilda oldingi yilga nisbatan o'zgarish 39,3 foizni tashkil qilgan.

Keyingi kichik banklardan Turonbank ATBda vaziyat ancha yaxshi tomonga o'zgargan. Tahlil natijalariga ko'ra, 2018-yilda oldingi yilga nisbatan o'zgarish manfiy bo'lgan bo'lsa, ammo keyingi yilda ushbu bankda keskin o'zgarish kuzatilgan. Xususan, Turonbank ATBda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni 2019-yilda oldingi yilga nisbatan 1153,6 foizga oshgan. Pandemiya davrida esa ushbu bankning masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar mijozlari sonining o'zgarishi 31,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda o'zgarish bir maromda ketgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimiz bank tizimida masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni bir maromda oshib bormoqda. Ammo ayrim banklarda o'zgarish turli chastotada kechmoqda. Shu bilan birga bank tizimida va tanlangan banklarda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni 2019-yilda keskin oshgan. Ammo 2020-yildagi pandemiya davrida mijozlar sonining oshishi sezilarsiz bo'lgan. Shuningdek, pandemiya yoki iqtisodiyotdagi turlicha tebranishlar aholining asosan yirik va davlat ulushi mavjud banklarga bo'lgan ishonchini orttirishiga sabab bo'lganini ham aytish mumkin.



2.18- rasm. Bank tizimida masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchilar tarkibi ⁶⁸



Bank tizimida masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar sonining tarkibini tahlil qilish maqsadga muvfiqdir. Bank faoliyatida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonida jismoniy shaxslar sonining oshishi aniq ko‘zga tashlanadi. Biroq, yuridik shaxslarning ham masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishi turli noxush holatlarning, masalan, korrupsion alomatlarining kamayishiga, shuningdek, banklarning xarajatlarini qisqartirishga yordam beradi.


Tahlil natijalariga ko‘ra, masofaviy bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni tarkibida yuridik shaxslar 2017-yilda 5,1 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich 6,8 foizga ko‘tarilgan. Ammo keyingi davrlarda jismoniy shaxslarning ulushi ortib borgan va yuridik shaxslarning masofaviy bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni tarkibidagi ulushi 2023-yil 1 yanvar holatiga 3,9 foizga pasaygan.

⁶⁸ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlardan foylanuvchilar soni tanlangan yirik banklar misolida tahlil qilganda, O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar tarkibida yuridik shaxslarning ulushi ortib borgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu bankda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni tarkibida yuridik shaxslarning ulushi 2018-yil 1-yanvar holatiga 2,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda asosiy e'tiborini yuridik shaxslarga qaratgan va buning natijasi o'laroq, ularning ulushi jami foydalanuvchi mijozlar tarkibida 5,9 foizga ko'tarilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, tanlangan yirik banklardan O'zsanoatqurilish bankda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni tarkibida yuridik shaxslarning ulushi keskin kamayib ketgan. Xususan, ushbu bankda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni tarkibida yuridik shaxslarning ulushi 2018-yil 1-yanvar holatiga 31,5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda asosiy e'tiborini jismoniy shaxslarga qaratgan va buning natijasi o'laroq yuridik shaxslarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar tarkibidagi salmog'i 1,3 foizgacha pasaygan.






2.19- rasm. Tanlangan banklarda masofadan bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar tarkibi ⁶⁹

Tahlilda foydalanilgan kichik banklardan XAB Trastbankda masofaviy bank xizmatini ko‘rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni tarkibida yuridik shaxslarning ulushi ortib borgan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2018-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxslarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jami mijozlardagi salmog‘i 5,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga esa bu ko‘rsatkich 16,3 foizni tashkil qilgan. Shuningdek, davlat ulushi mavjud ATB Turobankda vaziyat boshqacha. Ya’ni ushbu bankda 2018-yil 1-yanvar holatiga yuridik shaxslarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jami mijozlardagi salmog‘i 34,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga esa bu ko‘rsatkich keskin pasayib ketgan va 12,1 foizni tashkil qilgan.

⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



2.20- rasm. Bank tizimida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, o'rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlil, (ming dona)⁷⁰


Tijorat banklari masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish orqali yashirin iqtisodiyotning umumiy iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirishga yordam beradi. Tijorat banklari plastik kartalar sonini oshirish bilan bir qatorda to'lov terminallari sonining oshishiga ham e'tibor qaratish lozim. Tahlilning keyingi bosqichida biz muomaladagi plastik kartalarning oshishi bilan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar sonining oshishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqqanmiz. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, tahlilda to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni umumiy olingani bilan buning tarkibida bankomatlar va infokiosklar soni sezilarsiz qismini tashkil qiladi va asosan to'lov terminallar egallagan.

Tahlilning boshida yuqoridagi ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlilini butun bank tizimida ko'rib chiqamiz. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda jami plastik kartalar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 19,2 mln.donani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'ratkich ikki barobarga yaqin oshgan va 34,2 mln.donani tashkil

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

etgan. Mamlakatimizda o‘rnatilgan to‘lov terminallar, bankomatlar va infokiosklar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 241,3 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g‘ri keladigan plastik kartalar soni 79,7 ming donani tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni 454,4 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g‘ri keladigan plastik kartalar soni 75,2 ming donani tashkil etgan.


Tahlilda tanlangan yirik banklardan O‘zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish darajasini tahlil qilib chiqamiz. Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zmilliybank AJda jami plastik kartalar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 3108,9 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yil 1-yanvar holatiga bu ko‘ratkich keskin kamayib ketgan va 2043,3 ming donani tashkil etgan. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkich oshib borgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 3050,6 ming donani tashkil qilgan. Ammo O‘zmilliybank AJda muomalaga chiqargan plastik kartalar soni 2017-yilgi holatga yetgani yo‘q.



2.21- rasm. O‘zMilliybank AJda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochnalari, o‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlil, (ming dona)⁷¹

⁷¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

O‘zmilliybank AJda o‘rnatilgan to‘lov terminallar, bankomatlar va infokiosklar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 24,0 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g‘ri keladigan plastik kartalar soni 129,4 ming donani tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni 41,2 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g‘ri keladigan plastik kartalar soni keskin kamaygan va 74,1 ming donani tashkil etgan.




2.22- rasm. AT O‘zsanoatqurilishbankda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochnikalari, o‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlil, (ming dona)⁷²

Tahlilda tanlangan keyingi yirik banklardan O‘zsanoatqurilishbank ATBda tahlil natijalariga ko‘ra, jami plastik kartalar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 1091,9 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, 2018 va 2019-yilda bu ko‘rsatkich pasaygan va mos ravishda 801,3 ming dona va 984,9 ming donani tashkil etgan. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkich oshib borgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 1976,1 ming donani tashkil qilgan. O‘zsanoatqurilishbank ATBda o‘rnatilgan to‘lov terminallar, bankomatlar va infokiosklar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 14,2 ming donani tashkil

⁷² O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

etgan va bir dona oʻrnatilgan toʻlov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga toʻgʻri keladigan plastik kartalar soni 77,0 ming donani tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga oʻrnatilgan toʻlov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni keskin oshgan va 34,2 ming donani tashkil etgan va bir dona oʻrnatilgan toʻlov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga toʻgʻri keladigan plastik kartalar soni keskin kamaygan va 57,7 ming donani tashkil etgan.




2.23- rasm. XAB Trastbankda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, oʻrnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlil, (ming dona)⁷³

Tahlilning keyingi bosqichida tanlangan kichik banklar misolida muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochkalari, oʻrnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlilini olib boramiz. Xususan, XAB Trastbankda tahlil natijalariga koʻra, jami plastik kartalar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 219,8 ming donani tashkil etgan boʻlsa, keyingi yillarda bir maromda bu koʻrsatkich oshib borgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 401,9 ming donani tashkil qilgan. XAB Trastbankda oʻrnatilgan toʻlov terminallar, bankomatlar va infokiosklar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 4,9 ming donani tashkil etgan va bir dona oʻrnatilgan toʻlov

⁷³Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g‘ri keladigan plastik kartalar soni 44,3 ming donani tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni keskin oshgan va 12,1 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g‘ri keladigan plastik kartalar soni kamaygan va 33,3 ming donani tashkil etgan.



2.25- rasm. ATB Turonbankda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochnalari, o‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlil, (ming dona)⁷⁴

Tahlilning keyingi bosqichida tanlangan kichik banklardan Turonbank ATBda muomalaga chiqarilgan bank plastik kartochnalari, o‘rnatilgan terminallar, bankomat va infokiosklar sonining qiyosiy tahlilini ko‘rib chiqamiz. Tahlil natijalariga ko‘ra, Turonbank ATBda jami plastik kartalar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 412,6 ming donani tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda bir maromda bu ko‘rsatkich oshib borgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib 646,4 ming donani tashkil qilgan. Turonbank ATBda o‘rnatilgan to‘lov terminallar, bankomatlar va infokiosklar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 5,8 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g‘ri keladigan plastik kartalar soni 71,6

⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ming donani tashkil etgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni keskin oshgan va 14,8 ming donani tashkil etgan va bir dona o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarga to‘g‘ri keladigan plastik kartalar soni keskin kamaygan va 437 ming donani tashkil etgan.

Yuqoridagi rasm ma’lumotlaridan xulosa qilishimiz mumkinki, yirik banklarda muomalaga chiqarilgan plastik kartalar sonining o‘zgarishi betartib kechgan bo‘lsada ammo to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar o‘rnatish darajasi doim oshib borgan. Tahlil qilingan kichik banklarda esa muomalaga chiqarayotgan plastik kartalar soni bir maromda oshib borgan. Shuningdek, tijorat banklari muomalaga chiqarayotgan plastik kartalar bilan o‘rnatilayotgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni o‘rtasidagi balans ta’minlanishi lozim. Chunki, plastik kartalarning boshqa terminal, bankomat yoki infokiosklarda foydalanishi daromadlarining kamayishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda kichik banklar masofaviy bank xizmatlari bozorida o‘rnini yuksaltirish uchun to‘lov terminallarini, bankomatlarini hamda infokiosklarini ko‘paytirishga urinishmoqda.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni qurish ancha ildamlab ketgan. Shuningdek, daromadi o‘rtadan yuqori bo‘lgan davlatlarda ham oxirgi yillarda raqamli bank xizmatlarning takomillashib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, daromadi yuqori davlatlar hisoblangan Shvetsiya, Norvegiya, Niderlandiya kabi davlatlar yaqin kelajakda raqamli bank xizmatlarini keng rivojlantirgan holda, naqd pul muomalasidan to‘liq voz kechishni rejalashtirgan. Ammo daromadi o‘rta yoki daromadi o‘rtadan past bo‘lgan davlatlarda raqamli bank xizmatlari yetarlicha rivojlangani yo‘q. Bunga ushbu davlatlarda yashirin iqtisodiyotning kuchliligi va buning natijasida naqd pul muomalasiga ehtiyojning oshib ketganligi bilan izohlanadi.

Moliyaviy innovatsiyalarni baholash uchun turli ko‘rsatkichlar ishlab chiqilgan, ammo qaysi ko‘rsatkichlar eng ko‘p ma’lumot berishi bo‘yicha biror umumiy fikr

mavjud emas. Ko'rsatkichlardan samarali foydalanish uchun ularning hissasi, samaradorligi, natijalari va ta'sirini nazariy, empirik yoki siyosiy nuqtayi nazardan baholashga mo'ljallangan konseptual asosga kiritilishi lozim. Turli sohalardagi ko'rsatkichlarni, masalan, fan va texnologiya ko'rsatkichlari, ilmiy tadqiqot ko'rsatkichlari va bank rentabellik ko'rsatkichlari kabi, ko'rib chiqishda esa, innovatsiyalarning chiziqli bo'lmagan va dinamik xususiyatini inobatga olish zarur.

Tijorat banklarida korporativ kartalar (KK), mobil-ekvayring (ME), internet-ekvayring (IE) va boshqa moliyaviy innovatsiyalar (MI)dan foydalanish o'rtasidagi maqbul nisbatni (KK:ME:MI=0,45;0,21;0,19;0,15) saqlab qolish, innovatsion xizmatlar ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida ilg'or tajriba va texnologiyalarni joriy etish orqali jozibador bank mahsulotlari to'plami yaratiladi va uzluksiz raqamli mijozlar tajribasi ta'minlanadi. Shuningdek, individual va yuqori sifatli xizmat ko'rsatish orqali "tayyor" bank xizmatlarining to'liq ko'lamini taqdim etish imkoniyati paydo bo'ladi. Natijada, universal bank uchun zarur bo'lgan keng mijozlar bazasi va kuchli bozor pozitsiyasini egallashga erishiladi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlarga qaramay, o'rta daromadli davlatlarda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu borada raqamli bank xizmatlaridan foydalanayotgan korxonalar qiziqishi ham yuqori darajada ekanligini ta'kidlash mumkin. Chunki o'rta daromadli davlatlarni ular katta bozor va yuqori daromad manbai sifatida ko'rishmoqda.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda aholining raqamli bank xizmatlaridan foydalanish darajasi boshqa davlatlarga qaragandan ancha past bo'lmoqda. Biroq, bu holat tijorat banklarimizda hali foydalanilmagan imkoniyatlar borligini ko'rsatadi. Ushbu sohada amaliy choralarni samarali tarzda amalga oshirish orqali raqamli to'lovlarni rivojlantirish va natijada banklar daromadini yanada oshirish imkoniyati mavjud.

Mamlakatimizda innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish orqali tijorat

banklari aholidan bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish imkoniyatini qo'lga kiritishi mumkin, bu esa ularning kreditlash salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ammo statistik ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimiz bank tizimida masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni bir maromda oshib bormoqda. Ayrim banklarda esa o'zgarishi tor chastotada kechmoqda. Shu bilan birga, bank tizimida va tanlangan banklarda masofaviy bank xizmatini ko'rsatuvchi tizimlaridan foylanuvchilar soni 2019-yilda keskin oshgan. Ammo 2020-yildagi pandemiya davrida mijozlar sonining oshishi sezilarsiz bo'lgan. Bundan tashqari, pandemiya yoki iqtisodiyotdagi turli tebranishlar aholi orasida asosan yirik va davlat ulushi mavjud banklarga bo'lgan ishonchni oshirishi mumkinligini ham ta'kidlash lozim.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilishimiz mumkinki, yirik banklarda muomalaga chiqarilgan plastik kartalar sonining o'zgarishi betartib kechgan bo'lsada ammo to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar o'rtanish darajasi doim oshib borgan. Tahlil qilingan kichik banklarda esa muomalaga chiqarayotgan plastik kartalar soni bir maromda oshib borgan. Bundan tashqari, tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilayotgan plastik kartalar bilan birga o'rnatilayotgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarning soni o'rtasidagi muvozanatni saqlash kerak. Chunki, plastik kartalarning boshqa terminal, bankomat yoki infokiosklarda foydalanishi daromadlarining kamayishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda kichik banklar masofaviy bank xizmatlari bozorida o'rnini yuksaltirish uchun to'lov terminallarini, bankomatlarini hamda infokiosklarini ko'paytirishga urinishmoqda.

III BOB. BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASHUVIDA MOLIYAVIY INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EMPIRIK TAHLILI.

3.1. Banklarda moliyaviy innovatsiyalardan foydalanishning amaldagi holati tahlili.

Oxirgi yillarda mamlakatimiz bank tizimida ko'plab ijobiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunday islohotlarning katta qismi bank tizimi xizmatlarining ommabopligi va qulayliklarini kengaytirish, aholini va iqtisodiyotni uzoq yillar davomida qiynab kelgan naqdsiz hisob-kitoblardagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4400-sonli "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 19-sentyabrdagi PF-3945-sonli "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 7-maydagi PF-3698-sonli "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qildi.


Yuqorida chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish, banklardagi innovatsion mahsulotlarning kengayishi, aholi talablariga mos naqd pullarning iqtisodiyotda mavjudligi borasida rivojlanishlar kuzatildi. Tahlilimizning asosiy maqsadlaridan biri tijorat banklari tomonidan chiqarilayotgan plastik kartalar, o'rnatilayotgan terminallar, bankomatlar va infokiosklarning samaradorligini baholashdan iboratdir. Tahlilda biz bu sohadagi banklarning samaradorligini ikki guruhga bo'lib o'rganishni maqsad qildik. Dastlab banklar

tomonidan chiqarilgan plastik kartalardagi aylanmani va o'rnatilgan to'lov terminallarda amalga oshirilgan to'lovlar aylanmasiga e'tibor qaratsak, keyingi bosqichda banklarning masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlariga o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarning ta'sirini ko'rib chiqamiz. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, biz tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlariga ta'sir qiluvchi omillarni ham tahlil qilamiz.

Tahlilni real qiymatda olib borganmiz. Chunki nominal qiymatda ko'rsatkichlar oshganligini ko'rsatishgan bo'lsada, real qiymatda ushbu ko'rsatkichlar pasaygan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga ilmiy tadqiqotlar real qiymatda olib borilishini inobatga olib, bizning ishimizda ham real ko'rsatkichlardan foydalanilgan. Nominal ko'rsatkichlar 2018-yil 1-yanvar holatidagi narxlar darajasiga ko'ra real qiymatga o'tkazilgan.

Mamlakatimiz bank tizimi tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartalar soni 2018-yil 1-yanvar holatiga 19 mln.donadan ko'proqni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 34 mln.donadan ham oshgan. Bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lov miqdorining real ko'rsatkichiga keladigan bo'lsak, 2018-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 2,76 mln.so'mni tashkil qilgan. Keyingi yilda bu ko'rsatkich 3,15 mln.so'mni tashkil qilgan bo'lsada, ammo 2019-2021 yillarda bu ko'rsatkich pasayib ketgan. Faqatgina 2022-yilga kelib bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori 2017-yilgi holatga qaytgan, ya'ni bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori 2,88 mln.so'mni tashkil qilgan.

Bu bilan aytishimiz mumkinki, 2019-2021 yillarda aholining yalpi talabi real ko'rsatkichda pasaygan va bu davrdagi pandemiyaning ham ta'siri sezilarli bo'lgan. Shuningdek, statistik ma'lumotlardan ko'rinadiki, mamlakatimizda bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdorini o'zgarish trendi o'zgarishsiz holatida.



3.1-rasm. Katta banklar misolida muomaladagi bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lov miqdori (mln.so'm, realda)⁷⁵

Yuqorida umumiy bank tizimidagi holatni tahlil qildik. Endigi tahlilda umumiy bank tizimi bilan qiyoslash uchun katta banklardagi, xususan, O'zmilliybank AJ va O'zsanoatqurilishbank ATBdagi holatlar hamda umumiy bank tizimi bilan tanlangan kichik banklardagi, ya'ni XAB Trastbank hamda ATB Turonbanklardagi holatlarning qiyosiy tahlilini olib boramiz.

Tahlil natijalariga ko'ra, O'zmilliybank AJ tomonidan chiqarilgan bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori 2018-yil 1-yanvar holatiga 1,42 mln.so'mni tashkil qilgan va bu ko'rsatkich o'sha davrdagi umumiy bank tizimidagi ko'rsatkichdan deyarli ikki barobarga kam bo'lgan. 2019-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich O'zmilliybank AJda sezilarli oshgan bo'lsada, ammo keyingi uch yilda bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori keskin kamayib ketgan. Ammo 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib O'zmilliybank

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


AJ tomonidan chiqarilgan bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori 1,98 mln.so'mga yetgan va bu 2017-yilgi holatdan ancha yuqori bo'lgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zsanoatqurilishbank ATB tomonidan chiqarilgan bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori 2018-yil 1-yanvar holatiga 3,03 mln.so'mni tashkil qilgan va bu ko'rsatkich o'sha davrdagi umumiy bank tizimidagi ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan. 2019-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich O'zsanoatqurilishbank ATBda sezilarli oshgan bo'lsada, ammo keyingi yillarda pasayib ketgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib O'zsanoatqurilishbank ATB tomonidan chiqarilgan bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori 2,23 mln.so'mni tashkil qilgan va bu tahlil davrining boshidagi ushbu bankning ko'rsatkichidan ancha past bo'lmoqda. Shuningdek, 2017-yilda O'zsanoatqurilish-bank ATB tomonidan chiqarilgan bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori umumiy bank tizimi ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib esa buning aksini ko'rishimiz mumkin.

Umumiy bank tizimida va unga qiyosiy olingan yirik banklarda bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan o'rtacha to'lov miqdorining o'zgarish trendiga e'tibor qaratsak, unda umumiy bank tizimida o'zgarishsiz qolgan bo'lsa, O'zsanoatqurilishbank ATBda esa trend yomon holatda, ya'ni pasayish holatida bo'lmoqda. Tahlilda tanlangan O'zmilliybank AJda esa bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori qolgan qiyosiy ko'rsatkichlardan past bo'lsada, ammo uning trendi o'sish holatida bo'lmoqda.

Yuqorida katta banklardagi bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdorini qiyosiy tahlilini olib borgan bo'lsak, quyida umumiy bank tizimi bilan tanlangan kichik banklardagi, ya'ni XAB Trastbank hamda ATB Turonbanklardagi holatlarning qiyosiy tahlilini ko'rib chiqamiz. Tahlil natijalariga ko'ra, XAB Trastbank tomonidan chiqarilgan bir dona plastik kartadan amalga

oshirilgan o‘rtacha to‘lovning real miqdori umumiy bank tizimi ko‘rsatkichidan, shuningdek, qolgan tanlangan yirik va kichik banklardan ko‘ra ancha yuqori bo‘lgan. Xususan, 2018-yil 1-yanvar holatiga XAB Trastbank tomonidan chiqarilgan bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lovning real miqdori 9,25 mln.so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga esa 9,97 mln.so‘mni tashkil etmoqda.



3.2-rasm. Kichik banklar misolida muomaladagi bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lov miqdori (mln.so‘m, realda)⁷⁶

Tahlil qilingan davr oralig‘ida XAB Trastbank tomonidan chiqarilgan bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lov miqdorining eng yuqori ko‘rsatkichi, garchi pandemiya sharoitida bo‘lsada, 2020-yilda bo‘lgan va bu ko‘rsatkich 13,31 mln.so‘mni tashkil qilgan. Shuningdek, tahlil qilingan davrda yirik banklarda chiqarilgan bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lovning real miqdori 2019-2021 yillarda pasayib ketgan bo‘lsa, ushbu bankda esa 2017-yilgi holatdan pastga tushmagan.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, davlat ulushi mavjud tijorat banklarida, ya‘ni ATB


⁷⁶ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Turonbank tomonidan chiqarilgan bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan oʻrtacha toʻlovning real miqdori davlat ulushi mavjud banklarga qaraganda ancha past koʻrsatkichni egallamoqda. Xususan, ATB Turonbank tomonidan chiqarilgan bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan oʻrtacha toʻlovning real miqdori 2018-yil 1-yanvar holatiga 3,27 mln.soʻmni tashkil qilgan va bu koʻrsatkich oʻsha davrdagi umumiy bank tizimidagi koʻrsatkichdan yuqori boʻlgan. Ammo 2018-2020 yillarda bu koʻrsatkich sezilarli pasayib ketgan va oʻrtacha 2,5 mln.soʻmni tashkil qilgan. 2021-2022 yillarda ATB Turonbank tomonidan chiqarilgan bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan oʻrtacha toʻlovning real miqdori oshgan va mos ravishda 4,08 va 3,76 mln.soʻmni tashkil qilgan va bank tizimidagi oʻrtacha koʻrsatkichdan yuqori boʻlgan.

Tanlangan kichik banklarda bir dona plastik kartadan amalga oshirilgan oʻrtacha toʻlov miqdorining oʻzgarish trendiga nazar solsak, unda XAB Trastbank tomonidan chiqarilgan bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan oʻrtacha toʻlov miqdori yuqori boʻlsada, ammo uning trendi oʻzgarishsiz qolmoqda. Aksincha, ATB Turonbankda esa chiqarilgan bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan oʻrtacha toʻlov miqdori xususiy banklarga qaraganda past boʻlsada, ammo ushbu bankda bu koʻrsatkich oʻzgarish trendi oʻsishda boʻlmoqda.

Yuqoridagi tahlil natijalaridan xulosa qilishimiz mumkinki, butun bank tizimida muomalaga chiqarilgan bir dona plastik karta orqali amalga oshirilgan oʻrtacha toʻlovning real qiymati tanlangan yirik banklardagi koʻrsatkichdan yuqori boʻlishiga davlat ulushi mavjud boʻlmagan banklarda bu koʻrsatkichning sezilarli darajada yuqori ekanligi va bu umumiy bank tizimidagi koʻrsatkichga taʼsiri orqali tushuntirishimiz mumkin. Shuni koʻrishimiz mumkinki, yirik banklarda plastik kartalar va ularning mobil ilovalari yoki innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish masalalari sezilarli darajada orqada qolmoqda. Boshqa tomondan, kichik banklar innovatsion bank xizmatlarini ishlab chiqish va joriy etishda faolroq. Bu holat esa yirik banklarda innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonini murakkablashtirishi yoki turli byurokratik toʻsiqlarga olib kelishi mumkin.

Tahlilimizning keyingi bosqichida biz banklar tomonidan o‘rnatilgan to‘lov terminallarining samaradorligiga to‘xtalamiz. Bu tahlil orqali biz tijorat banklari tomonidan o‘rnatilayotgan to‘lov terminallarining maqsadli va samarali o‘rnatilayotganligiga xulosa beramiz.



3.3-rasm. Katta banklar misolida o‘rnatilgan bir dona to‘lov terminali orqali amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lov miqdori (mln.so‘m, realda)⁷⁷

Tahlil natijalariga ko‘ra, bank tizimida o‘rnatilgan bir dona to‘lov terminali orqali amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lovning real qiymati 2018 yil 1 yanvar holatiga 224,73 mln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2019-2021 yillarda esa sezilarli pasayib ketgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib bank tizimida bir dona to‘lov terminali orqali amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lovning real miqdori 2018-yil 1-yanvar holatiga yetgan va 226,53 mln.so‘mni tashkil etgan.

O‘rnatilgan bir dona to‘lov terminali orqali amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lovning real miqdori bo‘yicha bank tizimi bilan taqqoslash uchun tanlangan yirik banklarda, xususan O‘zmilliybank AJda 2018-yil 1-yanvar holatiga butun bank tizimidagi


⁷⁷ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan va bu 235,54 mln.so'mga teng bo'lgan. Ammo keyingi yillarda esa bu ko'rsatkich sezilarli tushib ketgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib esa 130,34 mln.so'mni tashkil qilgan va bu bank tizimidagi o'rtacha ko'rsatkichdan ham past bo'lgan.

Tanlangan banklardan O'zsanoatqurilishbank ATBda o'rnatilgan bir dona to'lov terminali orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori 2017-2018 yillarda O'zmilliybank AJga qaraganda yomonroq ko'rsatkichni ko'rsatgan bo'lsa, keyingi yillarda esa yuqori bo'lmoqda. Shuningdek, O'zsanoatqurilish-bank ATBda to'lov terminallardagi aylanma butun bank tizimidagi o'rtacha ko'rsatkichdan ham past bo'lgan. Xususan, O'zsanoatqurilishbank ATBda 2018-yil 1-yanvar holatiga o'rnatilgan bir dona to'lov terminali orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori 187,45 mln.so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib esa bu ko'rsatkich pasaygan va 149,67 mln.so'mni tashkil qilgan. Tahlil davridan ko'rishimiz mumkinki, 2018-yildan 2021-yilga qadar O'zsanoatqurilishbank ATBda o'rnatilgan bir dona to'lov terminali orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori pasayib borgan. Ammo 2022-yilda bu ko'rsatkich bir oz yaxshilangan bo'lsada, ammo 2017-yildagi ko'rsatkichga yetgani yo'q.

Tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan bitta to'lov terminali orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lov miqdorining o'zgarish trendini ko'rib chiqsak, butun bank tizimida va tanlangan yirik banklarda ham pasayish kuzatilmoqda. Biroq, tahlil natijalari O'zsanoatqurilishbank ATBda bu pasayishning yanada kuchliroq ekanligini ko'rsatmoqda.

Yuqorida butun bank tizimi va u bilan taqqoslagan holda yirik banklarni tahlil qilib ko'rdik. Quyidagi tahlilimizda kichik banklarda o'rnatilgan bir dona to'lov terminali orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdorini o'zgarishini tahlil qilib ko'ramiz. Tahlildagi kichik banklar mulkchilik shakliga ko'ra tanlangan.



3.4-rasm. Kichik banklar misolida o‘rnatilgan bir dona to‘lov terminaliga orqali amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lov miqdori (mln.so‘m, realda)⁷⁸

Tahlil natijalariga ko‘ra, XAB Trastbankda o‘rnatilgan bir dona to‘lov terminali orqali amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lovning real miqdori 2018-yil 1-yanvar holatiga 419,51 mln.so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib esa bu ko‘rsatkich 340,20 mln.so‘mni tashkil qilgan. Tahlil davridan ko‘rishimiz mumkinki, 2018-yildan 2021-yilga qadar XAB Trastbankda o‘rnatilgan bir dona to‘lov terminali orqali amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lovning real miqdori pasayib borgan. Ammo, 2022-yilda bu ko‘rsatkich bir oz yaxshilangan bo‘lsada, ammo 2017-yildagi ko‘rsatkichga yetgani yo‘q. Shuni ta’kidlashimiz lozimki, XAB Trastbankda o‘rnatilgan bir dona to‘lov terminali orqali amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lovning real miqdori doim butun bank tizimidagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan.

Shuningdek, tahlilda davlat ulushi mavjud bo‘lgan kichik banklardan ATB Turonbankda o‘rnatilgan bir dona to‘lov terminali orqali amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lovning real miqdori xususiy banklar kabi yuqori emas. Xususan, 2018-yil 1-yanvar

⁷⁸ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

holatiga ATB Turonbankda bu ko'rsatkich 239,98 ga teng va bu butun bank tizimidagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan bo'lsa, 2023-yil 1-yanvar holatiga esa 169,18 mln.so'mni tashkil qilgan va bank tizimidagi o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lgan.

Tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan bir dona to'lov terminali orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdorini o'zgarish trendiga nazar solsak, XAB Trastbankda, samaradorligi bo'yicha yuqori o'rinda tursada, ammo trendining pasayish kuchli ko'ringan. Bunga aksincha ATB Turonbankda esa ko'rsatkichlar xususiy banklar kabi bo'lmasada, tomonidan o'rnatilgan bir dona to'lov terminali orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdorini o'zgarish trendiga sezilarsiz pasaymoqda.

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarining mulkchilik shakliga ko'ra masofaviy bank xizmatlarining samaradorligi turlicha bo'lgan. Xususan, kapitalida davlat ulushi bo'lgan banklarda chiqarilgan bitta plastik kartaga to'g'ri keladigan to'lov miqdori va o'rnatilgan bitta to'lov terminali orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lov miqdori xususiy banklardagi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada past. To'g'ri, davlat ulushi mavjud banklardan kichik banklarda vaziyat bir oz yaxshi, ammo shu holatda ham ular xususiy banklardagi ko'rsatkichlarga yetgani yo'q va bundan ikkita xulosa qilishimiz mumkin.

Birinchi dan tijorat banklari qanchalik katta bo'lsa, ularda qaror qabul qilish shunchalik sust bo'ladi. Bizga ma'lumki, bugungi kunda zamonaviy bank ishida va oddiy hayotimizda yangiliklar juda ko'p va tez-tez yanadan yangilanmoqda. Demak, tijorat banklarimiz yangi fikr va innovatsion mahsulotlarni tez tahlil qilishi va ma'qul bo'lsa, tez joriy qilishi lozim. Ikkinchi dan, yirik banklarda bank ishini olib borish ko'p hollada an'anaviy usullardan keng foydalanmoqda. Shuningdek, ushbu banklarda davlatning ijtimoiy dasturlarida ishtirok etishi yuqori bo'lmoqda va bu ular xizmatlarining samaradorligini pasaytirib yubormoqda.

Davlat ulushi mavjud yirik banklardan farqli ravishda kichik, ammo kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda esa qaror qabul qilish tezligi yuqoridir. Ushbu banklar tezda yangi mahsulotlarni bozorga chiqara oladi va buning natijasida daromadlarini


ham oshira oladi. Ammo shunda ham kichik va kapitalida davlat ulushi mavjud banklardagi holat xususiy banklardagi kabi yaxshi emas.

Bizning fikrimizcha, banklar tomonidan o'rnatilgan bir dona to'lov terminali orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lovning real miqdori oshib borishi lozim. Tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, bu ko'rsatkichning trendi pasayishda bo'lgan. Lekin, oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, soliqlarni kamaytirish va amaliy chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotning o'sishi va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilingan shaxslar sonining ko'payishi kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yangi terminallar sonining ortishiga hamda ulardan amalga oshiriladigan to'lovlar sonining ko'payishiga olib kelishi zarur edi. To'lov terminallaridan amalga oshirilgan to'lovlar hajmining pasayishi aholining yalpi talabining ham kamayishini bildiradi.

3.2. Yirik tijorat banklarida moliyaviy innovatsiyalardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning empirik tahlili.

Biz yuqoridagi paragrafda tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan bir dona to'lov terminallari yoki muomalaga chiqarilgan bir dona plastik kartalar orqali amalga oshirilgan to'lovlarning o'zgarish tendensiyasini tahlil qildik. Ushbu tahlil bizga oxirgi olti yilda amalga oshirilgan to'lovlarning o'zgarishini va bu orqali yalpi talabga ta'sirini ifodalab berdi.

Quyida tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarning joylashuvining samaradorligini tahlil qilamiz. Bu joylashuv, masofaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchi tizimlarning daromadlariga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqamiz. Tahlilni avval butun bank tizimidagi holat bilan boshlaymiz. Shuningdek, davlat ulushi mavjud yirik banklar va turli kichik banklarning mulkchilik shakllari misolida ham o'rganamiz.



3.5-rasm. Umumiy bank tizimida masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning ta'siri⁷⁹

Tahlil natijalariga ko'ra, bank tizimida o'rnatilgan to'lov terminallarining o'sishi 2020-2022 yillarda o'zgarishsiz bo'lgan. Ammo shu yillar davomida tijorat banklari tomonidan o'rnatilgan bankomatlar va infokiosklar soni keskin oshgan. Shuningdek, tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimdan olgan daromadlari ham 2020-2022 yillarda keskin oshgan.


Bank tizimida masofaviy bank xizmatlaridan olinayotgan daromadlarga, masofaviy xizmatlarni taqdim etuvchi tizimlarning ta'siri katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'rnatilayotgan bankomatlar va infokiosklarning rolini alohida ta'kidlash lozim, chunki ular daromadlarni oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, masofaviy bank xizmatlaridan oloyotgan daromadlari bilan o'rnatilayotgan bankomatlar va infokiosklar sonining o'zgarishi o'rtasidagi korrelyatsiya 0,98 ga teng bo'lmoqda.

Tijorat banklari tomonidan o'rnatilayotgan to'lov terminallari sonining

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

o'zgarishi bank tizimida masofaviy bank xizmatlaridan olinayotgan daromadlarga ta'siri sust bo'lib qolmoqda. 2020-2022 yillarda ular o'rtasida sezilarli farq paydo bo'ldi. Shu bilan birga, biz o'rnatilgan to'lov terminallari soni va bank tizimidagi masofaviy bank xizmatlaridan olinadigan daromadlar o'rtasida korrelyatsion bog'liqlikni ham hisoblab chiqdik, natijalar esa 0,64 ga teng ekanini ko'rsatdi.

Tahlilning quyidagi qismida mamlakatimiz bank tizimida aktivlari va kapitali bo'yicha birinchi o'rinda turuvchi O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlarning masofaviy bank xizmatlaridan olgan daromadlariga ta'sirini baholaymiz. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zmilliy-bank AJda o'rnatilgan to'lov terminallarining o'sishi 2019-2022 yillarda sezilarsiz o'zgargan. Ammo shu yillar davomida O'zmilliybank AJ tomonidan o'rnatilgan bankomatlar va infokiosklar soni qisman bo'lsada oshib borgan. Shuningdek, tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimdan olgan daromadlari ham 2021-2022 yillarda keskin oshgan.




3.6-rasm. O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga

masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimining ta'siri⁸⁰

O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlaridan olinayotgan daromadlarga, masofaviy xizmatlarni taqdim etuvchi tizimlarning ta'siri muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bankomatlar va infokiosklarning o'rnatilishi daromadlarni oshirishda sezilarli rol o'ynaydi. Masofaviy bank xizmatlaridan oloyotgan daromadlari bilan o'rnatilayotgan bankomatlar va infokiosklar sonining o'zgarishi o'rtasidagi korrelyatsiya 0,93 ga teng bo'lmoqda.

O'zmilliybank AJ tomonidan o'rnatilayotgan to'lov terminallari sonini o'zgarishining masofaviy bank xizmatlaridan oloyotgan daromadlariga ta'siri sust bo'lmoqda. Xususan, 2021-2022 yillarda ular o'rtasida katta farq vujudga kelgan. Tahlilda olib borilgan korrelyatsion bog'liqlikka nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zmilliybank AJ tomonidan o'rnatilayotgan to'lov terminallari sonining o'zgarishi bilan masofaviy bank xizmatlaridan oloyotgan daromadlari o'rtasida korrelyatsion bog'liqlikni 0,69 ga teng bo'lmoqda.



3.7-rasm. O'zsanoatqurilishbank ATBda masofaviy bank xizmatlari

⁸⁰ O'zmilliybank AJ rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

samaradorligiga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimining ta'siri⁸¹

Shuningdek, tahlilda mamlakatimiz bank tizmida muhim o'rinni egallagan yana bir davlat ulushi mavjud banklardan O'zsanoatqurilishbank ATBda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlarning masofaviy bank xizmatlaridan olgan daromadlariga ta'sirini baholaganmiz. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zsanoatqurilishbank ATBda o'rnatilgan to'lov terminallarining o'sishi 2018-2020 yillarda keskin oshgan bo'lsada, ammo 2021-2022 yillarda bu ko'rsatkich pasaygan. Shu bilan bir vaqtda 2018-2022 yillarda O'zsanoatqurilishbank ATB tomonidan o'rnatilgan bankomatlar va infokiosklar soni doim oshib borgan. Shuningdek, tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimdan olgan daromadlari ham 2020-2022 yillarda qisman bo'lsada oshgan.


O'zsanoatqurilishbank ATBda masofaviy bank xizmatlaridan olinayotgan daromadlarga, masofaviy xizmatlarni taqdim etuvchi tizimlarning ta'siri katta ahamiyatga ega. O'rnatilayotgan bankomatlar va infokiosklarning ta'siri ayniqsa yuqori. Masofaviy bank xizmatlaridan olinayotgan daromadlar bilan bankomatlar va infokiosklar sonining o'zgarishi o'rtasidagi korrelyatsiya esa 0,89 ga teng bo'lmoqda.

O'zsanoatqurilishbank ATB tomonidan o'rnatilayotgan to'lov terminallari sonini o'zgarishining masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlariga ta'siri butun bank tizimi va O'zmilliybank AJ tajribalariga qaragandan yuqori bo'lmoqda. Ammo, 2020-2022 yillarda tomonidan o'rnatilayotgan to'lov terminallari sonini o'zgarishining masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlariga o'rtasida sezilarli farq vujudga kelgan. Shu bilan bir vaqtda biz O'zsanoatqurilishbank ATB tomonidan o'rnatilayotgan to'lov terminallari sonining o'zgarishi bilan masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlari o'rtasida korrelyatsion bog'liqlikni ham hisoblab chiqdik va natijalarga ko'ra bu ko'rsatkich 0,80 ga teng bo'lgan.

⁸¹ O'zsanoatqurilishbank ATB rasmiy ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Tahlil qilingan bank tizimi va yirik banklar oʻrnatilgan toʻlov terminallarining masofaviy bank xizmatlaridan olinadigan daromadlarga taʼsirining pastligini kuzatdi. Aksincha, tijorat banklari tomonidan joylashtirilgan bankomatlar va infokiosklarning innovatsion xizmatlardan olinadigan daromadlarga taʼsiri yuqori ekanligi aniqlangan. Quyida bu tendensiyani kichik banklar misolida koʻrib chiqamiz. Bunda kichik banklar mulkchilik shakli jihatidan davlat ulushi mavjud va mavjud boʻlmagan, shuningdek, aktivlari va kapitali hajmi boʻyicha bir-biriga yaqin boʻlgan XAB Trastbank va ATB Turonbank misolida tahlilni amalga oshiramiz.

Tahlil natijalariga koʻra, XAB Trastbankda oʻrnatilgan toʻlov terminallarining sonining oʻzgarishi 2017-2021 yillarda sezilarsiz boʻlgan boʻlsada, ammo 2022-yilda bu koʻrsatkich keskin oshgan. Shuningdek, 2018-2020 yillarda XAB Trastbank tomonidan oʻrnatilgan bankomatlar va infokiosklar soni qisman boʻlsada oshib borgan. XAB Trastbankda masofaviy bank xizmatlarini koʻrsatuvchi tizimdan olgan daromadlari 2018-2021 yillarda sezilarsiz oʻzgargan boʻlsada, ammo 2022-yilda sezilarli oshgan.




3.8-rasm. XAB Trastbankda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga

masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimining ta'siri⁸²

XAB Trastbankda masofaviy bank xizmatlaridan olinadigan daromadlarga, masofaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchi tizimlarning ta'siri yirik banklardan farqli o'laroq yuqori ekanligini ko'rsatadi. Xususan, ushbu bankning masofaviy bank xizmatlaridan olinadigan daromadlari bilan o'rnatilayotgan to'lov terminallari sonining o'zgarishi o'rtasidagi korrelyatsiya 0,94 ga teng bo'lmoqda. Bu, to'lov terminallarining mavjudligi masofaviy xizmatlar daromadlarini sezilarli darajada oshirishga yordam berishini anglatadi.

XAB Trastbank tomonidan o'rnatilayotgan bankomatlar va infokiosklar soni o'zgarishining bankning masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlariga ta'sirini tahlil qiladigan bo'lsak, unda 2017-2021 yillarda ular o'zgarishi o'rtasida farq qisqa bo'lgan bo'lsada, ammo 2022-yilda bu farq kattalashgan. Ammo shunga qaramasdan XAB Trastbank tomonidan o'rnatilayotgan bankomatlar va infokiosklar soni o'zgarishining bankning masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlariga ta'siri ham yuqori bo'lgan. Tahlilda olib borilgan korrelyatsion bog'liqlikka nazar tashlaydigan bo'lsak, XAB Trastbank tomonidan o'rnatilayotgan bankomatlar va infokiosklar sonining o'zgarishi bilan masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlari o'rtasida korrelyatsion bog'liqlikni 0,86 ga teng bo'lmoqda.

⁸² XAB Trastbank rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



3.9-rasm. ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning ta'siri⁸³

Tahlilning keyingi bosqichida davlat ulushi mavjud bo'lgan ammo hajmi jihatidan XAB Trastbankka yaqin bo'lgan ATB Turonbank misolida olib boramiz. Tahlil natijalariga ko'ra, ATB Turonbankda o'rnatilgan to'lov terminallarining sonining o'zgarishi 2017-2020 yillarda sezilarli oshgan bo'lsada, ammo 2021-2022 yillarda bu ko'rsatkich pasayish tendensiyasida bo'lgan. Shuningdek, 2018-2020 yillarda ATB Turonbank tomonidan o'rnatilgan bankomatlar va infokiosklar soni 2017-2021 yillarda doim oshib borgan bo'lsada, ammo 2022-yillarda bu ko'rsatkich pasaygan. Bizning fikrimizcha, ATB Turonbank tomonidan bu masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimning joylashuv samaradorligini oshirish va undan oladigan daromadga ta'sirini yaxshilashga qaratilgan harakat sifatida baholashimiz mumkin. ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimdan olgan daromadlari esa 2019-2022 yillarda keskin oshgan.

ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlaridan olinadigan daromadlarga va

⁸³ ATB Turonbank rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

bu tizimning ta'siriga to'xtaladigan bo'lsak, o'rnatilayotgan bankomatlar, infokiosklar va to'lov terminallarining ta'siri yuqori ekanligi aniqlanadi. Xususan, bankning masofaviy bank xizmatlaridan olinadigan daromadlari bilan bankomatlar va infokiosklar sonining o'zgarishi o'rtasidagi korrelyatsiya 0,81 ga teng. Bu, ushbu tizimlarning mavjudligi masofaviy xizmatlardan olinadigan daromadlarni oshirishda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

ATB Turonbank tomonidan o'rnatilayotgan to'lov terminallari sonining o'zgarishi, masofaviy bank xizmatlaridan olinadigan daromadlarga ta'siri butun bank tizimi va yirik banklarga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu, bankning xizmatlarini rivojlantirishda to'lov terminallarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Ammo, 2020-2022 yillarda bank tomonidan o'rnatilayotgan to'lov terminallari sonini o'zgarishining masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlari o'rtasida sezilarli farq vujudga kelgan. Shu bilan bir vaqtda, biz ATB Turonbank tomonidan o'rnatilayotgan to'lov terminallari sonining o'zgarishi bilan masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlari o'rtasida korrelyatsion bog'liqlikni ham hisoblab chiqdik va natijalarga ko'ra bu ko'rsatkich 0,85 ga teng bo'lgan.


Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, kichik banklarda o'rnatilayotgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar sonining o'zgarishi masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlariga ta'siri butun bank tizimidagi o'rtacha ko'rsatkichdan va yirik banklardagi ko'rsatkichlardan ham yuqori bo'lgan. Bu bizga kichik banklarda to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarning joylashtirilishi birinchi navbatda daromadni ko'paytirish tamoyili asosida olib borilayotganligini bildiradi. Kichik banklardan farqli ravishda katta banklarda bankomatlar, infokiosklarning joylashtirilishida ijtimoiy masala birinchi o'ringa chiqayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bizning fikrimizcha, tijorat banklari masofaviy bank xizmatlaridan olinayotgan daromadlar bilan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarning soni o'rtasidagi tendensiyani doimiy ravishda kuzatib borishlari zarur. Shuningdek, ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqning kattalashishining oldini olish

uchun amaliy chora-tadbirlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Tijorat banklari o'zlarining daromadlarini oshirish maqsadida innovatsion xizmatlar soni va hajmini oshirish zarur deb bilmoqda. Tijorat banklari innovatsion mahsulotlarining daromadlilik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri, ushbu mahsulotlarning kapital va aktivlar rentabelligidir. Banklarning rentabelligini ifodalovchi an'anaviy ko'rsatkichlardan biri bu aktivlarga va kapitalga nisbatan rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi. Biz quyida butun bank tizimida va tahlil uchun tanlangan banklardagi masofaviy xizmatlarning rentabelligini hisoblaymiz.

Tahlil natijalariga ko'ra, butun bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi 2018-yil 1-yanvar holatiga 0,32 ga teng bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich kamayib ketgan va 2022-yil 1-yanvar holatiga 0,25 ga teng bo'lgan. Tahlil qilinayotgan davrning oxirgi yilida butun bank tizimida masofaviy xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi 2017-yilgi holatga qaytgan va 0,32 ga teng bo'lgan.

Tahlil uchun tanlangan yirik va kichik banklarda ham masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi pasayib ketgan. Asosan bu pasayish kichik banklarda sezilarli bo'lgan. Ammo kichik banklarda masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi butun bank tizimidagi ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan. Aksincha, katta banklarda masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi tebranish chastotasi tor doirada bo'lishiga qaramasdan, bu ko'rsatkich butun bank tizimidagi o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada past bo'libqolgan.



3.10- rasm. Masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga nisbatan rentabellik darajasi⁸⁴

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yirik va davlat ulushi mavjud banklardan O'zmilliybank AJda masofaviy bang xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi 2018-yil 1-yanvar holatiga 0,09 ga teng bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich o'zgarishsiz qolgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga ham shu holatda saqlangan. Shu bilan birga, yirik banklardan davlat ulushi mavjud bo'lgan O'zsanoatqurilishbank ATB misolida ham tahlillar olib bordik va ushbu bankning masofaviy xizmatlari aktivlariga ko'ra rentabelligi past bo'lib, 2018-yil 1-yanvar holatiga 0,14 ga teng bo'lgan. Keyingi yillarda ham ushbu rentabellik ko'rsatkichi past saqlangan va 2023-yil 1-yanvar holatiga 0,12 ni tashkil etgan.


Kichik banklar misolida masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligini tahlil qilganda, xususiy banklardagi bu ko'rsatkich davlat ulushi mavjud

⁸⁴O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tanlangan tijorat banklarining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi..

banklarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Xususan, tahlilda tanlangan kichik banklardan XAB Trastbankda masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi 2018-yil 1-yanvar holatiga 1,13 ga teng bo'lgan va tahlil qilingan banklar ichida eng yuqori ko'rsatkichni ko'rsatgan bo'lsa, 2019-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich oshgan va 1,38 ga teng bo'lgan. Ammo keyingi yillarda bu aktivlarga ko'ra rentabelligi pasayib ketgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga XAB Trastbankda masofaviy xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi 0,88 ni tashkil etgan. Garchi ushbu bankda masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi sezilarli darajada pasaygan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich tahlil qilinayotgan banklar orasida eng yuqori bo'lib qolmoqda.

Tahlilda tanlangan kichik, lekin davlat ulushi mavjud bank — Turonbank ATB misolida masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi katta banklar va umumiy bank tizimi ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lishiga qaramay, oxirgi yillarda ushbu bankda bu ko'rsatkich sezilarli darajada pasaygan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yil 1-yanvar holatida masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi 0,86 bo'lgan, ammo 2021-yil 1-yanvar holatiga kelib bu ko'rsatkich 0,27 ga tushib ketgan. Ammo keyingi ikki yilda, ya'ni 2021-2022 yillarda ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi oshgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 0,34 ga teng bo'lgan.

Quyida biz butun bank tizimida va tanlangan banklar misolida masofaviy bank xizmatlarining kapitalga nisbatan rentabelligini tahlil qilamiz. Tahlil natijalariga ko'ra, butun bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi 2018-yil 1-yanvar holatiga 2,56 ga teng bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2017-2021 yillarda kamayib ketgan. Xususan, 2022-yil 1-yanvar holatiga 1,57 gacha tushgan. Tahlil qilinayotgan davrning oxirgi yilida butun bank tizimida masofaviy xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi 2,23 ga teng bo'lgan va bu ko'rsatkich 2018-yil 1-yanvar holatiga ham yetgani yo'q.



3.11- rasm. Masofaviy bank xizmatlarining regulyativ kapitalga nisbatan rentabellik darajasi⁸⁵

Tahlil uchun tanlangan yirik banklarda ham kichik banklarda ham masofaviy bank xizmatlarining kapitalga nisbatan rentabelligi pasayib ketgan. Ammo kichik banklarda masofaviy bank xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi butun bank tizimidagi ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan. Aksincha, katta banklarda masofaviy bank xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi tebranish chastotasi tor doirada bo'lishiga qaramasdan, bu ko'rsatkich butun bank tizimidagi o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada past bo'lib qolgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yirik va davlat ulushi mavjud banklardan O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi 2018-yil 1-yanvar holatiga 0,92 ga teng bo'lgan bo'lsa, 2017-2021 yillarda bu ko'rsatkich

⁸⁵ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ва танланган тижорат банкларининг расмий маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

pasayib ketgan va 2022-yil 1-yanvar holatiga bu 0,49 ga teng bo'lgan. Ammo 2023-yil 1-yanvar holatiga kelib vaziyat bir oz yaxshilangna va O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi 0,67 ga teng bo'lgan.

Shuningdek, yirik banklardan davlat ulushi mavjud O'zsanoatqurilishbank ATB misolida ham tahlillar olib bordik, va ushbu bankda masofaviy xizmatlarning kapitalga ko'ra rentabelligi butun bank tizimidagi o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lgani aniqlangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu bankda masofaviy bank xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi 2018-yil 1-yanvar holatiga 1,48 ga teng bo'lgan bo'lsa, 2017-2021 yillarda bu ko'rsatkich sezilarli pasayib ketgan va 2022-yil 1-yanvar holatiga kelib 0,88 ga teng bo'lgan. Tahlilning oxirgi yilida ushbu bankda ko'rilayotgan ko'rsatkich bir oz yaxshilangan va bu 1,02 ga teng bo'lgan.

Kichik banklar misolida masofaviy bank xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligini tahlil qilganda, xususiyl banklarda bu ko'rsatkich davlat ulushi mavjud banklarga qaraganda yuqoriligi aniqlandi. Xususan, tahlilda tanlangan kichik banklardan XAB Trastbankda masofaviy bank xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi 2018-yil 1-yanvar holatiga 9,24 ga teng bo'lgan va tahlil qilingan banklar ichida eng yuqori ko'rsatkichni ko'rsatgan bo'lsa, 2019-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich oshgan va 11,90 gacha ko'tarilgan. Ammo keyingi yillarda ushbu bankda masofaviy bank xizmatlarining kapitalga nisbatan rentabelligi keskin pasayib ketgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga 4,42 ni tashkil etgan. Garchi ushbu bankda masofaviy bank xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi sezilarli darajada pasaygan bo'lsada, ammo bu ko'rsatkich tahlil qilinayotgan banklar ichida eng yuqori bo'lgan.

Tahlilda tanlangan kichik, lekin davlat ulushi mavjud bank Turonbank ATB misolida masofaviy bank xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi katta banklardan va umumiy bank tizimi ko'rsatkichidan yuqori bo'lishiga qaramay, ushbu bankda bu ko'rsatkich oxirgi yillarda sezilarli pasaygan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2018-yil 1-yanvar holatiga bo'yicha, ushbu bankda masofaviy bank xizmatlarining kapitalga

ko'ra rentabelligi 3,66 ga teng bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yil 1-yanvar holatigacha pasaygan va bu pasayish ikki barobarga yaqin bo'lib, 1,95 ni tashkil etgan. Ammo 2022-yilda ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlarining kapitalga nisbatan rentabelligi oshgan va 2023-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 2,34 ga teng bo'lgan.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga va kapitalga ko'ra rentabelligi pasayib bormoqda. Banklarda masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi yirik banklarda past bo'lgan bo'lsa, aksincha kichik banklarda bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan. Shu bilan birga kichik banklarda masofaviy xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi o'zgarish chastotasi keng bo'lgan. O'ylaymizki, tijorat banklari masofaviy bank xizmatlari samaradorligini o'lchashda, ular uchun alohida aktivlarga va kapitalga nisbatan rentabelligini hisobga olish maqsadga muvofiq. Shuningdek, tahlilda tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlari rentabelligi pasayishiga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlilini olib borish va aniq xulosalar shakllantirish ham lozim. Bu tahlillarni biz keyingi paragrafimizda amalga oshiramiz.

3.3. Kichik tijorat banklarida moliyaviy innovatsiyalardan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning empirik tahlili.

Tijorat banklari innovatsion mahsulotlarni kashf etish orqali aholiga qulay xizmatlar ko'rsatishga, mijozlar sonini oshirishga va shu orqali o'z daromadlarini ko'paytirishga harakat qilmoqdalar. Bunda ayrim tijorat banklari jismoniy shaxslar sonini oshirishga e'tibor qaratayotgan bo'lsa, boshqalari yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarni jalb qilishga intilmoqdalar. Shuningdek, ba'zi banklar ko'proq terminallar o'rnatishga, boshqalari esa bankomatlar yoki infokiosklar sonini oshirish orqali daromadlarini oshirishni rejalashtirmoqdalar.

Oldingi paragraflarda mamlakatimiz bank tizimi, shuningdek, alohida olingan yirik va kichik banklar misolida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanish

tendensiyasi, masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning qiyosiy tahlilini olib bordik. Ammo shuni ta'kidlashimiz lozimki, qiyosiy tahlil natijasida olingan xulosalar ekonometrik tahlillar bilan aniqlashtirilmas ekan ushbu xulosalarning ishonchlilik darajasi past bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda ushbu paragrafimizda tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlariga qaysi omillarning ta'siri yuqori ekanligini empirik tahlil qilib ko'ramiz.

Shu munosabat bilan tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda eng kichik kvadrat usulidan hamda strukturaviy vektorli avtoregressiya modelidan foydalanamiz. Bunda yirik banklar sifatida O'zmilliybank AJ va unga qiyosiy tahlil sifatida kichik banklardan ATB Turonbanklar statistik ma'lumotlari empirik tahlil qilamiz. Tahlil uchun aynan ushbu ikki bankni tanlashdan maqsad, birinchidan, ushbu banklar kapitalida davlat ulushi mavjud banklar hisoblansa, ikkinchidan, yirik banklar bilan kichik banklarning masofaviy bank xizmatlarini rivojlanish tendensiyasi va metodikasini taqqoslash maqsadga muvofiq deb bildik.

Yirik bank sifatida tanlangan O'zmilliybank AJning masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlariga ($NBUIncome_t$) ta'sir etuvchi endogen omillarni ikki guruhga ajratganmiz. Birinchi guruhga kiruvchi omillar monetar indikatorlar hisoblansa, va ikkinchi guruhga kiruvchi omillar tijorat bankining o'ziga bog'liq bo'lgan omillardir. Monetar omillarga tijorat bankining ta'siri bo'lmaydi va bunday omillarga muomaladagi pul massasining o'zgarishi ($M2_t$) hamda iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining o'zgarishi (CPI_t) olingan. Ushbu omillarning masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta'siri aholining pulga bo'lgan talabi orqali tushuntiriladi. Tijorat banklarining o'ziga bog'liq bo'lgan o'zgaruvchilar sifatida esa masofaviy bank xizmatidan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining o'zgarishi ($NBUClientsI_t$), shuningdek, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining o'zgarishi ($NBUClientsE_t$), tijorat banki tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartalar sonining o'zgarishi ($NBUCards_t$), tijorat banki tomonidan o'rnatilgan

to'lov terminallar sonining o'zgarishi ($NBUTerminals_t$) hamda o'rnatilgan bankomatlar va infokiosklar sonining o'zgarishi ($NBUATMs_t$) kabi ko'rsatkichlar tanlangan. Yuqorida tanlangan statistik ko'rsatkichlar 2018M9-2023M9 davr oralig'idagi ko'rsatkichlar bo'lib, ushbu oylik ko'rsatkichlar o'sishda olingan.

Tanlangan ko'rsatkichlardan kelib chiqib oldimizga quyidagi farazlarni qo'yganmiz:

Muomalada pul massasining oshishi yalpi talabning oshishiga va aholi tomonidan xaridlarning oshishiga olib kelishi lozim. Buning natijasida tijorat banklari tomonidan chiqarilgan plastik kartalar, o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomadlar va infokiosklar orqali to'lovlar oshishi va bu, o'z navbatida, tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlaridan oladigan daromadlarini ko'paytirishi kerak.

Iqtisodiyotda inflyatsiya darajasining oshishi aholining pulga bo'lgan talabini ko'paytiradi, bu esa banklarning masofaviy bank xizmatlari tizimlaridan foydalanishni kuchaytirishi mumkin. Natijada, banklarning bu sohadan oladigan daromadlari oshishi kutiladi.


Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining oshishi, masofaviy bank xizmatlari tizimidagi pul aylanmasining ko'payishiga olib keladi. Bundan resurslarning bir qismi bank daromadlari sifatida shakllanishi kutiladi.

Tijorat banklari maqsadli va foyda ko'zlangan joylarga to'lov terminallarini, bankomatlar va infokiosklarni joylashtirishi ularning bu tizimdan olayotgan daromadlarini oshirishi lozim.

Yuqorida aniqlab olingan gipotezalarning amaliyotda qanchalik ishlayotganligini quyida ekonometrik tahlil qilib ko'ramiz. Oldin ta'kidlaganimizdek, ekonometrik tahlillarni ikki modelda, ya'ni eng kichik kvadrat usuli va strukturaviy vektorli avtoregressiya modellaridan foydalanamiz. Dastlab ekonometrik tahlilni yirik bank sifatida tanlangan O'zmilliybank AJ misolida olib boramiz.

Ekonometrik tahlilning dastlabki bosqichida bir qator statistik hisob-kitoblarni amalga oshirdik. Bular, tanlangan ma'lumotlarning tasviriy statistikasi - bu yerda

asosan ma'lumotlarning o'rtacha ko'rsatkichlari, maksimal va minimal ko'rsatkichlari, o'rtacha chetlashishi (standart dispersiyasi) kabi ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, ilmiy ishimizda tanlangan ko'rsatkichlarning normal taqsimotini ham tahlil qilganmiz.



3.12- rasm. Tanlangan ko'rsatkichlarning normal taqsimoti⁸⁶

Ma'lumotlarning normal taqsimotini tekshirish uchun Jak Bera koeffitsientidan foydalanildi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tanlangan barcha ko'rsatkichlar normal taqsimotga ega. Chunki, tanlangan barcha ko'rsatkichlar uchun hisoblangan Jak-Bera koeffitsienti ishonchli va ularning ehtimolligi 0,05 dan kichik ekanligi aniqlandi.

Tanlangan ko'rsatkichlar yordamida 48 ta kuzatuv amalga oshirildi. Quyida tanlangan sakkizta ko'rsatkichning tasviriy statistikasini tahlil qilamiz.

Kuzatuv natijalariga ko'ra "O'zmilliybank" AJda masofaviy bank xizmatlaridan

⁸⁶ Tanlangan statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlandi.

foydalanuvchi klientlari tarkibida yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining oylik o'rtacha o'zgarishi 0,04 foizni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga ushbu ko'rsatkich ko'rilgan davrda maksimum 0,93 foizga va minimum -0,14 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichning standart dispersiyasi 0,14 ga teng bo'lgan. "O'zmilliybank" AJda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi klientlari tarkibida jismoniy shaxslar sonining oylik o'rtacha o'zgarishi 0,02 foizni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkich ko'rilgan davrda maksimum 0,86 foizga va minimum -0,38 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichning standart dispersiyasi 0,16 ga teng bo'lgan.

3.1- javdal.

Ko'rsatkichlarning tasviriy statistikasi

	CPI	M2	NBUclientsE	NBUclientsI	NBUCards	NBUTerminals	NBUATMS	NBUIncome
Mean	0.987500	0.017203	0.037962	0.022292	0.008826	0.010913	0.010627	0.011752
Median	1.050000	0.018641	0.016952	0.008573	0.008602	0.002621	0.003970	0.004975
Maximum	2.900000	0.094250	0.928495	0.864844	0.121623	0.127149	0.110375	0.250581
Minimum	-0.500000	-0.069057	-0.136344	-0.383080	-0.097539	-0.040492	-0.041037	-0.271732
Std. Dev.	0.724826	0.033542	0.136270	0.164913	0.034385	0.029103	0.023091	0.104855
Skewness	-0.123540	0.264741	5.932141	2.898261	0.224279	2.464860	1.894541	-0.001303
Kurtosis	3.048477	3.491891	39.711105	17.78325	7.563296	9.760206	9.224146	2.918626
Jarque-Bera	0.126797	1.044615	2976.924	504.2886	42.04974	140.0051	106.1943	0.013257
Probability	0.938569	0.593150	0.000000	0.000000	0.000000	0.000000	0.000000	0.993393
Sum	47.40000	0.825760	1.822166	1.070014	0.423632	0.523843	0.510098	0.564080
Sum Sq. Dev.	24.69250	0.052878	0.872768	1.278224	0.055571	0.039809	0.025060	0.516747
Observations	48	48	48	48	48	48	48	48

"O'zmilliybank" AJ tomonidan chiqarilgan plastik kartalar sonining oylik o'rtacha o'zgarishi 0,01 foizni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga ushbu ko'rsatkichning tebranishi 0,12 foiz va -0,08 foiz atrofida bo'lmoqda. Ushbu ko'rsatkichning standart dispersiyasi 0,03 ga teng bo'lgan. Shuningdek, bank tomonidan o'rnatilgan to'lov

terminallari sonining oylik o‘rtacha o‘zgarishi 0,01 foizni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga ushbu ko‘rsatkich ko‘rilgan davrda maksimum 0,13 foizga va minimum -0,04 foizga teng bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichning standart dispersiyasi 0,03 ni tashkil qilgan. “O‘zmilliybank” AJ tomonidan o‘rnatilgan bankomatlar va infokiosklar sonining oylik o‘rtacha o‘zgarishi 0,01 foizni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga ushbu ko‘rsatkich 0,11 foiz va -0,04 foiz atrofida tebrangan. Ushbu ko‘rsatkichning standart dispersiyasi 0,02 ga teng bo‘lgan.

“O‘zmilliybank” AJning masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadining oylik o‘rtacha o‘zgarishiga nazar solsak, unda bu ko‘rsatkich 0,01 foizni tashkil qilgan. Shuningdek, ushbu ko‘rsatkich ko‘rilgan davrda maksimum 0,25 foizga va minimum -0,27 foizga teng bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichning standart dispersiyasi 0,10 ni tashkil qilgan, ya‘ni ushbu bankning masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadining oylik o‘zgarish chastotasi va o‘rtacha chetlashish darajasi qolgan ko‘rsatkichlardan ancha yuqori ekanligi aniqlandi.

Quyida tanlangan tijorat bankida masofaviy bank xizmatlari samaradorligining endogen ko‘rsatkichlar bilan korrelyatsion bog‘liqligi tahlil qilingan.

3.2-jadval

Tanlangan ko‘rsatkichlar o‘rtasida korrelyatsion matritsa

	CPI	M2	NBUclientsE	NBUclientsI	NBUCards	NBUterminals	NBUATMS	NBUIncome
CPI	1							
M2	-0.21	1						
NBUclientsE	0.06	0.01	1					
NBUclientsI	0.09	-0.07	0.00	1				
NBUCards	0.21	0.11	-0.07	-0.13	1			
NBUterminals	-0.04	-0.02	-0.15	-0.05	0.41	1		
NBUATMS	0.04	-0.25	-0.23	-0.37	0.32	0.47	1	
NBUIncome	0.01	-0.05	-0.33	0.46	-0.04	-0.03	0.32	1

O‘zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlari samaradorligining monetar indekatorlar bilan korrelyatsion bog‘liqligi juda pastligi aniqlandi. Shuningdek, ushbu tijorat bankida masofaviy bank xizmatlarining daromadliligi bilan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni, shuningdek, muomalaga chiqarilgan plastik kartalar va o‘rnatilgan to‘lov terminallari o‘rtasidagi korrelyatsiya teskari proporsional xarakterga ega. Ammo O‘zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlari daromadliligi, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar hamda bank tomonidan o‘rnatilayotgan bankomatlar va infokiosklar sonining o‘zgarishi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik to‘g‘ri proporsional bo‘lgan.

3.3- jadval

O‘zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning eng kichik kvadrat modelida hisoblangan parametrlari

Dependent Variable: **NBUINCOME**
 Method: Least Squares
 Sample (adjusted): 2018M11 2022M10
 Included observations: 48 after adjustments

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
CPI	0.000621	0.022856	0.027153	0.9785
M2	-0.166177	0.509551	-0.326123	0.7460
NBUCLIENTSE	-0.270522	0.116960	-2.312949	0.0260
NBUCLIENTSI	0.089351	0.104939	0.851451	0.3996
NBUCARDS	-0.009943	0.529636	-0.018774	0.9851
NBUTERMINALS	-0.211961	0.649173	-0.326510	0.7457
NBUATMS	-0.185473	0.908834	-0.204079	0.8393
C	0.026647	0.032194	0.827700	0.4128
R-squared	0.146220	Mean dependent var		0.011752
Adjusted R-squared	-0.003191	S.D. dependent var		0.104855
S.E. of regression	0.105022	Akaike info criterion		-1.518274
Sum squared resid	0.441188	Schwarz criterion		-1.206407
Log likelihood	44.43858	Hannan-Quinn criter.		-1.400419
F-statistic	0.978642	Durbin-Watson stat		2.598490
Prob(F-statistic)	0.460086			

Ekonometrik tahlilimizni eng kichik kvadrat modelidan foydalangan holda olib boramiz. Bunda “O‘zmilliybank” AJda masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan

daromadiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarning kuchini aniqlaymiz.

Tahlil natijalariga ko'ra, 5% li ehtimollik bilan tekshirganda, faqatgina O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlari daromadliligiga masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining o'zgarishi ta'siri statistik ahamiyatga ega bo'lmoqda. Xususan, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining bir foizga oshishi "O'zmilliybank" AJda masofaviy bank xizmatlari daromadini 0,27 foizga kamaytirmoqda. Ushbu model orqali 5% ehtimollikda qolgan ko'rsatkichlarning, xususan, monetar siyosat qarorlarining "O'zmilliybank" AJ masofaviy bank xizmatlari daromadliligiga ta'siri kuzatilmadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, "O'zmilliybank" AJ masofaviy bank xizmatlari daromadining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar 95,0 foiz aniqlikda ishonchli emas. Tanlangan ko'rsatkichlarning "O'zmilliybank" AJ masofaviy bank xizmatlari daromadining o'zgarishiga ta'sirini eng kichik usul orqali aniqlay olmaganimiz, ushbu modelda "lag"dan foydalanilmasligi bilan bog'liq. Demak, tahlilimizni boshqa modellardan foydalangan holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Xususan, tahlilimizning keyingi bosqichida strukturaviy vektorli avtoregressiya (SVAR) modelidan foydalanamiz. Chunki, ushbu modelda biz tanlangan ko'rsatkichlarning "O'zmilliybank" AJ masofaviy bank xizmatlari daromadining o'zgarishiga ta'sirini aniqlashda "lag"dan foydalanamiz. SVAR modeldan foydalanishda, dastlab tanlangan ko'rsatkichlar asosida Augmented Dickey-Fuller Test o'tkazamiz. Augmented Dickey-Fuller Test modeli quyidagi ko'rinishda keltiramiz:

$$\Delta CPI_t = \alpha_3 + \beta_3 t + \gamma_3 lCPI_{t-1} + \varphi_2 \Delta CPI_{t-1} + \dots + \varphi_{p-1} \Delta CPI_{t-(p-1)} + \tau_t$$

$$\Delta M2_t = \alpha_1 + \beta_1 t + \gamma_1 lM2_{t-1} + \varphi_1 \Delta M2_{t-1} + \dots + \varphi_{p-1} \Delta M2_{t-(p-1)} + \tau_t$$

$$\Delta NBUclientsE_t$$

$$= \alpha_2 + \beta_2 t + \gamma_2 NBUclientsE_{t-1}$$

$$+ \omega_1 \Delta NBUclientsE_{t-1} + \dots + \omega_{p-1} \Delta NBUclientsE_{t-(p-1)} + \theta_t$$

$$\Delta NBUclientsI_t$$

$$= \alpha_2 + \beta_2 t + \gamma_2 NBUclientsI_{t-1} + \omega_1 \Delta NBUclientsI_{t-1} + \dots + \omega_{p-1} \Delta NBUclientsI_{t-(p-1)} + \theta_t$$

$$\Delta NBUCards_t = \alpha_3 + \beta_3 t + \gamma_3 NBUCards_{t-1}$$

$$+ \varphi_2 \Delta NBUCards_{t-1} + \dots + \varphi_{p-1} \Delta NBUCards_{t-(p-1)} + \tau_t$$

$$\Delta NBUTerminals_t$$

$$= \alpha_4 + \beta_4 t + \gamma_4 NBUTerminals_{t-1} + \mu_1 \Delta NBUTerminals_{t-1} + \dots + \mu_{p-1} \Delta NBUTerminals_{t-(p-1)} + \sigma_t$$

$$\Delta NBUATMS_t = \alpha_5 + \beta_5 t + \gamma_5 NBUATMS_{t-1} +$$

$$\varphi_3 \Delta NBUATMS_{t-1} + \dots + \varphi_{p-1} \Delta NBUATMS_{t-(p-1)} + \tau_t$$

$$\Delta NBUIncome_t$$

$$= \alpha_6 + \beta_6 t + \gamma_6 NBUIncome_{t-1}$$

$$+ \omega_2 \Delta NBUIncome_{t-1} + \dots + \omega_{p-1} \Delta NBUIncome_{t-(p-1)} + \theta_t$$

Bu yerda, $\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_9$ lar o'zgarish qiymat, $\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_9$ lar vaqt trendi natijasida o'zgarish koeffisientlaridir.

3.4-jadval

Augmented Dickey-Fuller Test natijasi

	Кўрсаткичлар	t-Statistic	Probability	Хулоса
1	CPI	-4.628167	0.0004	I(0)
2	M2	-6.317055	0.0000	I(0)
3	NBUclientsE	-4.841666	0.0002	I(0)
4	NBUclientsI	-8.968057	0.0000	I(0)
5	NBUCards	-6.183249	0.0000	I(0)
6	NBUTerminals	-4.830391	0.0002	I(0)
7	NBUATMS	-4.336940	0.0010	I(0)
8	NBUIncome	-10.25462	0.0000	I(0)

Ushbu Augmented Dickey-Fuller Test modeli orqali ko'rsatkichlarni birlik ildizga tekshirimiz va ushbu ko'rsatkichlar statsionar yoki nostatsionar ekanligi yuzasidan xulosa qilishimiz maqsadga muvofiqdir.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tanlangan ko'rsatkichlarning barchasi stasionar holatida bo'lmoqda. Demak, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda ekonometrik modelimizda strukturaviy vektorli avtoregressiya modelidan foydalanish mumkin.

3.5- jadval

“O‘zmilliybank” AJda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarning SVAR modeli uchun optimal “lag” tanlash (Lag Length Criteria) usuli

VAR Lag Order Selection Criteria
Sample: 2018M09 2023M08
Included observations: 46

Lag	LogL	LR	FPE	AIC	SC	HQ
0	461.6086	NA	3.76e-19	-19.72211	-19.40409*	-19.60298*
1	540.7909	127.3802	2.02e-19	-20.38221	-17.51999	-19.31001
2	612.2013	90.03929*	1.89e-19*	-20.70441*	-15.29799	-18.67913

* indicates lag order selected by the criterion

LR: sequential modified LR test statistic (each test at 5% level)

FPE: Final prediction error

AIC: Akaike information criterion

SC: Schwarz information criterion

HQ: Hannan-Quinn information criterion

Tahlilimizning keyingi bosqichidan SVAR model uchun optimal “lag”ni tanlab olishimiz lozim. Buning uchun Lag Length Criteria usulidan foydalanamiz. Tahlil ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, “O‘zmilliybank” AJda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarning SVAR modeli uchun optimal “lag”lar soni sequential modified LR test statistic, Final prediction error hamda Akaike information criterion bo'yicha 2 tani tashkil qilmoqda. Ammo Schwarz information criterion va Hannan-Quinn information criterion bo'yicha esa 1 tani tashkil etmoqda. Yuqoridagi lagni aniqlash testidan modelimiz uchun optimal laglar sonini 2 ta qilib olishimiz bizni xatolikka boshlamaydi.

“O‘zmilliybank” AJda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarning va tanlangan “lag” asosida shakllantirilgan strukturaviy vektorli avtoregressiya model shakllantiramiz va ushbu model natijalarini quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

$$\Delta NBUIncome_t$$

$$\begin{aligned}
 &= \alpha_1 + p_1 e_1 + \sum_{i=1}^2 \beta_i \Delta NBUIncome_{t-i} + \sum_{i=1}^2 \delta_i CPI_{t-i} + \sum_{i=1}^2 \gamma_i \Delta M2_{t-i} \\
 &+ \sum_{i=1}^2 \omega_i NBUclientsE_{t-i} + \sum_{i=1}^2 \vartheta_i NBUclientsI_{t-i} + \sum_{i=1}^2 \theta_i NBUCards_{t-i} \\
 &+ \sum_{i=1}^2 \mu_i NBUTerminals_{t-i} + \sum_{i=1}^2 \tau_i NBUATMS_{t-i}
 \end{aligned}$$


3.6- jadval

“O‘zmilliybank” AJda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta’sir qiluvchi tanlangan ko‘rsatkichlarning SVAR modeli

	NBU Income		NBU Income
CPI(-1)	-0.014405 (0.02162) [-0.66640]	NBUCards(-1)	0.586238 (0.58256) [1.00632]
CPI(-2)	0.016826 (0.01983) [0.84869]	NBUCards(-2)	-0.464288 (0.57179) [-0.81198]
M2(-1)	-0.256612 (0.38123) [-0.67312]	NBUTerminals(-1)	-0.871453 (0.49455) [-1.76212]
M2(-2)	0.244563 (0.39733) [0.61551]	NBUTerminals(-2)	-0.699842 (0.50285) [-1.39174]
NBUclientsE(-1)	-0.234192 (0.11035) [-2.12218]	NBUATMS(-1)	1.795234 (0.73933) [2.42820]
NBUclientsE(-2)	0.070678 (0.08821) [0.80124]	NBUATMS(-2)	0.170755 (0.67317) [0.25366]
NBUclientsI(-1)	0.208752 (0.10202) [2.04611]	NBUIncome(-1)	-0.621489 (0.12396) [-5.01368]
NBUclientsI(-2)	0.064104 (0.09053) [0.70808]	NBUIncome(-2)	-0.235469 (0.13809) [-1.70514]

Model natijalariga ko‘ra, “O‘zmilliybank” AJda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga endogen omillardan monetar indekatorlarning ta’siri ko‘rilmadi. Bu holat ko‘pchilik davlatlarda ham kuzatiladi, ya’ni tijorat banklarining raqamli xizmatlari monetar omillarning ta’siri bo‘lmaydi. Shuningdek, bank tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartalar sonining oshishi, bank tomonidan o‘rnatilgan to‘lov terminallari sonining o‘zgarishi ushbu bankning masofaviy xizmatlaridan olayotgan daromadiga ta’siri sezilmadi. Ammo O‘zmilliybank AJda masofaviy bank

xizmatlari samaradorligiga masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining o'zgarishi hamda bank tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokiosklar sonining oshishi ijobiy ta'sir qilmoqda.



3.13- rasm. O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlari samaradorligining tanlangan ko'rsatkichlarga nisbatan impuls reaksiyasi

Empirik tahlil natijalariga ko'ra, O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining bir foizga oshishi keyingi oyda bankning masofaviy bank xizmatlaridan oladigan daromadlarini 0,21 foizga oshirishi aniqlandi. Shuningdek, ushbu tijorat banki tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokiosklar sonining bir foizga oshishi esa bir oylik lag bilan bankning masofaviy xizmatlaridan oladigan daromadlarini 1,79 foizga oshirishi aniqlandi.

Oldingi paragraflarda mamlakatimizdagi yirik banklardan O'zmilliybank AJ misolida masofaviy bank xizmatlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi endogen va

egzogen omillarning ekonometrik modelini shakllantirdik. Ushbu ta'sirni o'rganishda oldimizga bir qancha gipotezalarni qo'ygan edik. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu gipotezalarning ayrimlari amaliyotda bajarilayotgan bo'lsa, ayrimlari esa bajarilmagan.

Quyida biz tanlangan ko'rsatkichlarning kichik banklar misolida masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta'sirini empirik tahlil qilamiz. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan kichik banklar misolida ATB Turonbank statistik ma'lumotlaridan foydalanamiz. Shu munosabat bilan kichik tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda eng kichik kvadrat usulidan hamda strukturaviy vektorli avtoregressiya modelidan foydalanamiz.


Kichik bank sifatida tanlangan Turonbank ATBning masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlariga ($TuronIncome_t$) ta'sir etuvchi endogen omillar ta'siri o'rganilgan. Bu omillar muomaladagi pul massasining o'zgarishi ($M2_t$), iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining o'zgarishi (CPI_t), tijorat bankining masofaviy bank xizmatidan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining o'zgarishi ($TuronClientsI_t$), yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining o'zgarishi ($TuronClientsE_t$), tijorat banki tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartalar sonining o'zgarishi ($TuronCards_t$), tijorat banki tomonidan o'rnatilgan to'lov terminallar sonining o'zgarishi ($TuronTerminals_t$) hamda o'rnatilgan bankomatlar va infokiosklar sonining o'zgarishi ($TuronATMs_t$) kabi ko'rsatkichlar tanlangan. Yuqorida tanlangan statistik ko'rsatkichlar 2018M9-2023M9 davr oralig'idagi ko'rsatkichlar bo'lib, ushbu oylik ko'rsatkichlar o'sishda olingan.

Oldingi paragrafimizda yirik banklarda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ustiga qurilgan gipoteza quyida ham qo'llaniladi. Xususan, muomalada pul massasining oshishi yalpi talabning oshishiga va aholi tomonidan xaridlarning oshishiga olib kelishi lozim. Natijada, tijorat banklari tomonidan chiqarilgan plastik kartalar, o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar orqali to'lovlar ko'payishi va provardida tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlarini oshirishi lozim. Garchi bu gipoteza yirik

banklarda amalga oshmagan bo'lsada, ammo ko'p hollarda monetar qarorlar yirik banklarga qaraganda kichik banklarga ta'siri sezilarli bo'ladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda inflyatsiya darajasining oshishi aholining pulga bo'lgan talabini ko'paytiradi, bu esa banklarning masofaviy bank xizmatlari tizimlaridan foydalanishni oshiradi. Natijada, banklarning bu sohadan oladigan daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim.

Egzogen o'zgaruvchilar sifatida tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining oshishi masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimdagi pul aylanmasining ko'payishiga va bu resurslarning bir qismi bank daromadlari sifatida shakllanishiga olib kelishi kerak. Tijorat banklari maqsadli va foydali joylarga to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarni joylashtirishi, shuningdek, ularning bu tizimdan oladigan daromadlarini oshirishi muhimdir.

Yuqorida aniqlab olingan gipotezalarning kichik banklar amaliyotida qanchalik ishlayotganligini quyida ekonometrik tahlil qilib ko'ramiz. Ekonometrik tahlilning dastlabki bosqichida bir qator statistik hisob-kitoblarni amalga oshirdik. Bular, tanlangan ma'lumotlarning tasviriy statistikasi - bu yerda asosan ma'lumotlarning o'rtacha ko'rsatkichlari, maksimal va minimal ko'rsatkichlari, o'rtachadan chetlashishi (standart dispersiyasi) kabi ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, ilmiy ishimizda tanlangan ko'rsatkichlarning normal taqsimotini ham tahlil qilganmiz.



3.14- rasm. Tanlangan ko'rsatkichlarning normal taqsimoti⁸⁷

Ma'lumotlarning normal taqsimotini tekshirish uchun Jak Bera koeffitsientidan foydalanildi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, tanlangan barcha ko'rsatkichlar normal taqsimotga ega. Chunki, tanlangan barcha ko'rsatkichlar uchun hisoblangan Jak-Bera koeffitsienti ishonchli va ularning ehtimolligi 0,05 dan kichik ekanligi aniqlandi.

Tanlangan ko'rsatkichlar yordamida 48 ta kuzatuv amalga oshirildi. Quyida tanlangan sakkizta ko'rsatkichning tasviriy statistikasini tahlil qilamiz.

⁸⁷ Tanlangan statistic ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlandi.

3.7- javdal.

Ko'rsatkichlarning tasviriy statistikasi

	CPI	M2	Turon ClientsE	Turon ClientsI	Turon Cards	Turon Terminals	Turon ATMS	Turon Income
Mean	0.987500	0.017203	0.041094	0.393285	0.007788	0.020855	0.010875	0.027819
Median	1.050000	0.018641	0.019399	0.012444	0.014561	0.006695	0.008626	0.025649
Maximum	2.900000	0.094250	1.149792	18.55346	0.042850	0.472718	0.115169	0.561834
Minimum	-0.500000	-0.069057	-0.228716	-0.356759	-0.155565	-0.060928	-0.082979	-0.308227
Std. Dev.	0.724826	0.033542	0.175474	2.677521	0.035537	0.070609	0.030925	0.158501
Skewness	-0.123540	0.264741	5.419733	6.705374	-4.072859	5.609494	0.279526	0.362193
Kurtosis	3.048477	3.491891	34.93393	45.98315	19.02173	36.51667	6.487179	4.580666
Jarque-Bera	0.126797	1.044615	2274.539	4054.798	646.0971	2498.465	24.94591	6.046483
Probability	0.938569	0.593150	0.000000	0.000000	0.000000	0.000000	0.000004	0.048643
Sum	47.40000	0.825760	1.972517	18.87767	0.373844	1.001017	0.522003	1.335329
Sum Sq. Dev.	24.69250	0.052878	1.447188	336.9487	0.059354	0.234324	0.044949	1.180754
Observations	48	48	48	48	48	48	48	48

Kuzatuv natijalariga ko'ra, ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlaridan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar sonining oylik o'rtacha o'zgarishi 0,04 foizni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga ushbu ko'rsatkich ko'rilgan davrda maksimum 1,15 foizga va minimum -0,23 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichning standart dispersiyasi 0,17 ga teng bo'lgan. ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlaridan jismoniy shaxslar sonining oylik o'rtacha o'zgarishi 0,39 foizni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkich ko'rilgan davrda maksimum 18,55 foizga va minimum -0,36 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichning standart dispersiyasi 2,68 ga teng bo'lgan.

ATB Turonbank tomonidan chiqarilgan plastik kartalar sonining oylik o'rtacha o'zgarishi 0,01 foizni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga ushbu ko'rsatkichning tebranishi 18,55 foiz va -0,36 foiz atrofida bo'lmoqda. Ushbu ko'rsatkichning standart

dispersiyasi 0,03 ga teng bo'lgan. Shuningdek, bank tomonidan o'rnatilgan to'lov terminallari sonining oylik o'rtacha o'zgarishi 0,02 foizni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkich ko'rilgan davrda maksimum 0,47 foizga va minimum -0,06 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichning standart dispersiyasi 0,07 ni tashkil qilgan. ATB Turonbankda tomonidan o'rnatilgan bankomatlar va infokiosklar sonining oylik o'rtacha o'zgarishi 0,01 foizni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga ushbu ko'rsatkich 0,11 foiz va -0,08 foiz atrofida tebrangan. Ushbu ko'rsatkichning standart dispersiyasi 0,03 ga teng bo'lgan.

ATB Turonbankning masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadining oylik o'rtacha o'zgarishiga nazar solsak, unda bu ko'rsatkich 0,03 foizni tashkil qilgan. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich ko'rilgan davrda maksimum 0,56 foizga va minimum -0,31 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichning standart dispersiyasi 0,16 ni tashkil qilgan. Quyida tanlangan tijorat bankida masofaviy bank xizmatlari samaradorligining endogen ko'rsatkichlar bilan korrelyatsion bog'liqligi tahlil qilingan.

3.8- jadval

Tanlangan ko'rsatkichlar o'rtasida korrelyasion matrisa

	CPI	M2	Turon ClientsE	Turon ClientsI	Turon Cards	Turon Terminals	Turon ATMS	Turon Income
CPI	1							
M2	-0.21	1						
Turon ClientsE	0.10	0.04	1					
Turon ClientsI	0.09	0.01	0.92	1				
Turon Cards	0.09	0.23	0.01	0.02	1			
Turon Terminals	-0.04	-0.05	0.06	0.01	-0.01	1		
Turon ATMS	-0.05	-0.23	0.04	-0.01	-0.33	0.38	1	
Turon Income	-0.06	-0.02	-0.38	-0.30	0.18	-0.07	-0.18	1

ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlari samaradorligining monetar indikatorlar bilan korrelyatsion bog'liqligi juda pastligi aniqlandi. Bundan tashqari, ushbu tijorat bankida masofaviy bank xizmatlari daromadligi bilan muomalaga chiqarilgan plastik kartalar hamda o'rnatilgan to'lov terminallari sonining o'zgarishidan tashqari qolgan ko'rsatkichlar bilan korrelyatsiyasi teskari proporsional bog'lanishga ega.

Ekonometrik tahlilimizni eng kichik kvadrat modelidan foydalangan holda olib boramiz. Bunda ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarning kuchini aniqlaymiz.

3.9- jadval

ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning eng kichik kvadrat modelida hisoblangan parametrlari

Dependent Variable: **TuronIncome**

Method: Least Squares

Sample (adjusted): 2018M11 2022M10

Included observations: 48 after adjustments

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
CPI	-0.013630	0.032053	-0.425248	0.6729
M2	-0.386653	0.719869	-0.537117	0.5942
Turon ClientsE	-0.558418	0.342485	-1.630492	0.1108
Turon ClientsI	0.015742	0.022303	0.705844	0.4844
Turon Cards	0.767037	0.684324	1.120869	0.2690
Turon Terminals	0.019276	0.344207	0.056000	0.9556
Turon ATMS	-0.652040	0.846956	-0.769863	0.4459
C	0.065403	0.044155	1.481220	0.1464
R-squared	0.217046	Mean dependent var		0.027819
Adjusted R-squared	0.080029	S.D. dependent var		0.158501
S.E. of regression	0.152026	Akaike info criterion		-0.778519
Sum squared resid	0.924476	Schwarz criterion		-0.466652
Log likelihood	26.68446	Hannan-Quinn criter.		-0.660664
F-statistic	1.584082	Durbin-Watson stat		2.396087
Prob(F-statistic)	0.168264			

Tahlil natijalariga ko'ra, 5% li ehtimollik bilan tekshirganda, faqatgina ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlari daromadliligiga tanlangan ko'rsatkichlarning ta'siri statistik ahamiyatga ega bo'lmagan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ATB Turonbank masofaviy bank xizmatlari daromadining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar 95,0 foiz aniqlikda ishonchli emas deb topildi. Tanlangan ko'rsatkichlarning ATB Turonbank masofaviy bank xizmatlari daromadining o'zgarishiga ta'siri eng kichik usul orqali aniqlay

olmaganimizga sabab ham ushbu modelda “lag”dan foydalanilmaydi. Demak, tahlilimizni boshqa modellardan foydalangan holda olib borish maqsadga muvofiqdir. Xususan, tahlilimizning keyingi bosqichida strukturaviy vektorli avtoregressiya (SVAR) modelidan foydalanamiz. Chunki, ushbu modelda biz tanlangan ko‘rsatkichlarning ATB Turonbank masofaviy bank xizmatlari daromadining o‘zgarishiga ta‘sirini aniqlashda “lag”dan foydalanamiz. SVAR modeldan foydalanishda, dastlab tanlangan ko‘rsatkichlar asosida Augmented Dickey-Fuller Test o‘tkazamiz. Augmented Dickey-Fuller Test modeli quyidagi ko‘rinishda keltiramiz:

$$\Delta CPI_t = \alpha_3 + \beta_3 t + \gamma_3 lCPI_{t-1} + \varphi_2 \Delta CPI_{t-1} + \dots + \varphi_{p-1} \Delta CPI_{t-(p-1)} + \tau_t$$

$$\Delta M2_t = \alpha_1 + \beta_1 t + \gamma_1 lM2_{t-1} + \varphi_1 \Delta M2_{t-1} + \dots + \varphi_{p-1} \Delta M2_{t-(p-1)} + \tau_t$$

$$\Delta TuronClientsE_t$$

$$= \alpha_2 + \beta_2 t + \gamma_2 TuronClientsE_{t-1}$$

$$+ \omega_1 \Delta TuronClientsE_{t-1} + \dots + \omega_{p-1} \Delta TuronClientsE_{t-(p-1)} + \theta_t$$

$$\Delta TuronClientsI_t$$

$$= \alpha_2 + \beta_2 t + \gamma_2 TuronClientsI_{t-1}$$

$$+ \omega_1 \Delta TuronClientsI_{t-1} + \dots + \omega_{p-1} \Delta TuronClientsI_{t-(p-1)} + \theta_t$$

$$\Delta TuronCards_t$$

$$= \alpha_3 + \beta_3 t + \gamma_3 TuronCards_{t-1}$$

$$+ \varphi_2 \Delta TuronCards_{t-1} + \dots + \varphi_{p-1} \Delta TuronCards_{t-(p-1)} + \tau_t$$

$$\Delta TuronTerminals_t$$

$$= \alpha_4 + \beta_4 t + \gamma_4 TuronTerminals_{t-1} + \mu_1 \Delta TuronTerminals_{t-1} + \dots$$

$$+ \mu_{p-1} \Delta TuronTerminals_{t-(p-1)} + \sigma_t$$

$$\Delta TuronATMS_t = \alpha_5 + \beta_5 t + \gamma_5 TuronATMS_{t-1} + \varphi_3 \Delta TuronATMS_{t-1} + \dots + \varphi_{p-1} \Delta TuronATMS_{t-(p-1)} + \tau_t$$

$$\begin{aligned} \Delta TuronIncome_t &= \alpha_6 + \beta_6 t + \gamma_6 TuronIncome_{t-1} \\ &+ \omega_2 \Delta TuronIncome_{t-1} + \dots + \omega_{p-1} \Delta TuronIncome_{t-(p-1)} + \theta_t \end{aligned}$$

Bu yerda, $\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_9$ lar o'zgarimas qiymat, $\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_9$ lar vaqt trendi natijasida o'zgarish koeffitsientlaridir.

Ushbu Augmented Dickey-Fuller Test modeli orqali ko'rsatkichlarni birlik ildizga tekshirimiz va ushbu ko'rsatkichlar statsionar yoki nostasionar ekanligi yuzasidan xulosa qilishimiz maqsadga muvofiqdir.

3.10- jadval

Augmented Dickey-Fuller Test natijasi

	Ko'rsatkichlar	t-Statistic	Probability	Xulosa
1	CPI	-4.628167	0.0004	I(0)
2	M2	-6.317055	0.0000	I(0)
3	NBUclientsE	-9.713241	0.0000	I(0)
4	NBUclientsI	-312.2392	0.0001	I(0)
5	NBUcards	-6.568536	0.0000	I(0)
6	NBUterminals	-5.838031	0.0000	I(0)
7	NBUATMS	-18.77396	0.0000	I(0)
8	NBUincome	-10.24172	0.0000	I(0)

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tanlangan ko'rsatkichlarning barchasi statsionar holatida. Demak, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda ekonometrik modelimizda strukturaviy vektorli avtoregressiya modelidan foydalanish mumkin.

3.11- jadval

Turonbank ATBda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarning SVAR modeli uchun optimal "lag" tanlash (Lag Length Criteria) usuli

VAR Lag Order Selection Criteria
Included observations: 46

Lag	LogL**	LR	FPE	AIC	SC	HQ
0	311.8614	NA	2.53e-16	-13.21137	-12.89334	-13.09223

1	441.0592	207.8398	1.55e-17*	-16.04605	-13.18383*	-14.97385*
2	509.9578	86.87222*	1.61e-17	-16.25904*	-10.85262	-14.23376

* indicates lag order selected by the criterion

LR: sequential modified LR test statistic (each test at 5% level)

FPE: Final prediction error

AIC: Akaike information criterion

SC: Schwarz information criterion

HQ: Hannan-Quinn information criterion

Tahlilimizning keyingi bosqichidan SVAR model uchun optimal “lag”ni tanlab olishimiz lozim. Buning uchun Lag Length Criteria usulidan foydalanamiz. Tahlil ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarning SVAR modeli uchun optimal “lag”lar soni faqatgina sequential modified LR test statistic va Akaike information criterion bo‘yicha 2 tani tashkil qilmoqda. Ammo Final prediction error Schwarz information criterion va Hannan-Quinn information criterion bo‘yicha esa 1 tani tashkil etmoqda. Yuqoridagi lagni aniqlash testidan modelimiz uchun optimal laglar sonini 1 ta qilib olamiz.

ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarning va tanlangan “lag” asosida shakllantirilgan strukturaviy vektorli avtoregressiya model shakllantiramiz va ushbu model natijalarini quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

$\Delta\text{TuronIncome}_t$

$$\begin{aligned}
&= \alpha_1 + p_1 e_1 + \sum_{i=1}^1 \beta_i \Delta\text{TuronIncome}_{t-i} + \sum_{i=1}^1 \delta_i \text{CPI}_{t-i} + \sum_{i=1}^1 \gamma_i \Delta\text{M2}_{t-i} \\
&+ \sum_{i=1}^1 \omega_i \text{TuronClientsE}_{t-i} + \sum_{i=1}^1 \vartheta_i \text{TuronClientsI}_{t-i} + \sum_{i=1}^1 \theta_i \text{TuronCards}_{t-i} \\
&+ \sum_{i=1}^1 \mu_i \text{TuronTerminals}_{t-i} + \sum_{i=1}^1 \tau_i \text{TuronATMS}_{t-i}
\end{aligned}$$

3.12- jadval


ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta’sir qiluvchi

tanlangan ko'rsatkichlarning SVAR modeli

	CPI	M2	Turon ClientsE	Turon ClientsI	Turon Cards	Turon Terminals	Turon ATMS	Turon Income
CPI(-1)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.063214 (0.02590) [2.44060]
M2(-1)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.512151 (0.58633) [-0.87349]
Turon ClientsE(-1)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.068865 (0.29617) [-0.23251]
Turon ClientsI(-1)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.003957 (0.01877) [-0.21088]
Turon Cards(-1)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.085732 (0.55785) [-0.15368]
Turon Terminals(-1)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.153418 (0.27613) [0.55559]
Turon ATMS(-1)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	1.229073 (0.68497) [1.99436]
Turon Income(-1)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.282020 (0.12838) [-2.19678]
C	0.959574 (0.10189) [9.41769]	0.017125 (0.00489) [3.50062]	0.034905 (0.02482) [1.40636]	0.409243 (0.39022) [1.04874]	0.007653 (0.00518) [1.47684]	0.021320 (0.01029) [2.07216]	0.010549 (0.00450) [2.34475]	-0.026461 (0.03895) [-0.67932]

Model natijalariga ko'ra, ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga endogen omillardan biri bo'lgan iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining ta'siri statistik ahamiyatga ega bo'lmoqda. Xususan, iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining bir foizga oshishi ATB Turonbankning masofaviy bank xizmatlaridan keladigan daromadning 0,06 foizga oshishiga sabab bo'lmoqda. Ammo

monetar indekatorlardan hisoblangan pul massasi o‘shining bankning masofaviy xizmatlaridan oladigan daromadiga ta’siri sezilmadi.



3.15- rasm. ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlari samaradorligining tanlangan ko‘rsatkichlarga nisbatan impuls reaksiyasi

Empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta'sir qiluvchi egzogen omillar, ya'ni masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar sonining oshishi, muomalaga chiqarilgan plastik kartalar sonining ko‘payishi va bank tomonidan o‘rganilgan to‘lov terminallari sonining oshishi bankning daromadiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmagan. Ammo ATB Turonbankda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga bank tomonidan o‘rnatilayotgan bankomatlar va infokiosklar soning o‘zgarishi ijobiy ta’sir qilmoqda. Jumladan, ushbu tijorat banki

tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokiosklar sonining bir foizga oshishi esa bir oylik lag bilan bankning masofaviy xizmatlaridan oladigan daromadlarini 1,23 foizga oshirishi aniqlandi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, tijorat banklarining mulkchilik shakliga qarab masofaviy bank xizmatlarining samaradorligi farqlanadi. Masalan, kapitalida davlat ulushi bo'lgan banklarda chiqarilgan bir dona plastik kartaga to'g'ri keladigan to'lov miqdori va o'rnatilgan bir dona to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan o'rtacha to'lov miqdori xususiy banklarga qaraganda ancha past bo'lgan. To'g'ri, davlat ulushi mavjud banklardan kichik banklarda vaziyat bir oz yaxshi ammo shu holatda ham ular xususiy banklardagi ko'rsatkichlarga yetgani yo'q. Bundan ikkita xulosa qilishimiz mumkin.

Birinchi, tijorat banklari qanchalik katta bo'lsa, ularda qaror qabul qilish shunchalik sekin bo'ladi. Bizga ma'lumki, bugungi kunda zamonaviy bank ishi va oddiy hayotimizda yangiliklar juda ko'p va ular yanada yangilanmoqda. Demak, tijorat banklarimiz yangi fikr va innovatsion mahsulotlarni tez tahlil qilishi hamda ma'qul kelgan taqdirda tez joriy qilishi lozim. Ikkinchi, yirik banklarda bank ishini olib borish ko'p hollada an'anaviy usullardan keng foydalanmoqda. Shuningdek, ushbu banklarda davlatning ijtimoiy dasturlarida ishtirok etishi yuqori bo'lmoqda va bu ular xizmatlarining samaradorligini pasaytirib yubormoqda.

Davlat ulushi mavjud yirik banklardan farqli ravishda kichik ammo kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda esa qaror qabul qilish tezligi yuqoridir. Ushbu banklar tezda yangi mahsulotlarni bozorga chiqara oladi va buning natijasida daromadlarini ham oshira oladi. Ammo shunda ham kichik va kapitalida davlat ulushi mavjud banklardagi holat xususiy banklardagi kabi yaxshi emas.

Shuningdek, kichik banklarda o'rnatilayotgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni o'zgarishining masofaviy bank xizmatlaridan olayotgan daromadlariga ta'siri butun bank tizimidagi o'rtacha ko'rsatkichdan ham yirik

banklardagi ko'rsatkichlardan ham yuqori bo'lgan. Bu bizga kichik banklarda to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklarning joylashtirilishi birinchi navbatda daromadni ko'paytirish tamoyili asosida olib borilayotganligini bildiradi. Kichik banklardan farqli ravishda katta banklarda bankomatlar, infokiosklarning joylashtirilishida ijtimoiy masala birinchi o'ringa chiqayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Shunga qaramasdan, tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarining aktivlar va kapitalga ko'ra renbatelligi pasayib bormoqda. Banklarda masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga ko'ra rentabelligi yirik banklarda past bo'lgan bo'lsa, kichik banklarda bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan. Shu bilan birga kichik banklarda masofaviy xizmatlarining kapitalga ko'ra rentabelligi o'zgarish chastotasi keng bo'lgan.

Tijorat banklarda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik modeli shakllantirildi. Unga ko'ra, "O'zmilliybank" AJda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga endogen omillardan monetar indikatorlarning ta'siri ko'rilmadi. Bu holat ko'pchilik davlatlarda ham kuzatiladi. Ya'ni, tijorat banklarining raqamli xizmatlari monetar omillarning ta'siri bo'lmaydi. Shu bilan qatorda, bank tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartalar sonining oshishi, bank tomonidan o'rnatilgan to'lov terminallari sonining o'zgarishi ushbu bankning masofaviy xizmatlaridan olayotgan daromadiga ta'siri sezilmadi. Biroq, O'zmilliybank AJda masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining o'zgarishi va bank tomonidan o'rnatilgan bankomatlar hamda infokiosklar sonining ko'payishi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Model natijalariga ko'ra, ATB Turonbankda innovatsion bank xizmatlari samaradorligiga endogen omillardan bo'lgan iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining ta'siri statistik ahamiyatga ega bo'lmoqda. Xususan, iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining bir foizga oshishi ATB Turonbankning innovatsion bank xizmatlaridan keladigan daromadning 0,06 foizga oshishiga sabab bo'lmoqda. Ammo monetar

indekatorlardan hisoblangan pul massasi o'sishining bankning innovatsion xizmatlaridan oladigan daromadiga ta'siri sezilmadi.

IV BOB. TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY INNOVATSION XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.

4.1. Banklarining moliyaviy innovatsion xizmatlaridan foydalanishini ilg‘or xorij tajribasi

Mohiyati jihatidan bank va mijoz muloqotining an‘anaviy va masofaviy bank xizmati sxemalari orasidagi farq juda katta emas. Bank xizmatlari ham, hisobraqamlar ham “o‘z joyida” qolgan bo‘lib, faqatgina bank xodimi va mijozlarni o‘zaro bog‘laydigan aloqa turi o‘zgardi, xolos. Faqat bank ofisida bajarilishi mumkin bo‘lgan operatsiyalar, bank ofisiga xos bo‘lgan funksiyalar endilikda masofadan turib ham amalga oshirilishi mumkin. Mijozga qulaylik oshirilib, daqiqalik operatsiyani amalga oshiraman deb, bank binosiga borish yo‘liga ketadigan qimmatli ish vaqtini yuqotishi shart bo‘lmay qoldi. Mijoz-bank, internet, telefon yoki mobil banking kabi masofaviy bank xizmati turlari o‘zaro farqlanishiga qaramasdan, mijozlarga xizmat qilishning an‘anaviy usullaridan nisbatan quyidagi umumiy ustunliklarga ega:

- xizmat ko‘rsatish sifatining oshishi, masofaviy bank xizmati orqali vaqt cheklovining olib tashlanishi, ya‘ni mijoz o‘z hisob raqamini haftasiga yetti kun, kuniga yigirma to‘rt soat davomida boshqarish imkoniga ega bo‘ladi. Vaqt cheklovidan tashqari, mijozning geografik holatiga ham e‘tibor berilmaydi. Mijoz dunyoning istalgan nuqtasidan o‘z tranzaksiyalarini amalga oshirishi mumkin, buning uchun shunchaki personal kompyuter va Internet global tarmog‘i yoki mobil telefon va aloqa tarmog‘iga ega bo‘lishi kifoya.

- yangi bank mahsulotlarini yaratish, amaliyotga tatbiq etish yoki mavjud moliyaviy xizmatlarni masofaviy aloqa vositalari bilan uyg‘unlashtirish hamda o‘zaro integratsiyasini oshirish orqali banklararo raqobat sharoitida bankning raqobatbardoshlik ko‘rsatkichining oshishi;

- filiallarni boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarni qisqartirish orqali bank operatsiyalari tannarxining kamayishi.

Mijozlarga masofadan turib xizmat kursatish evaziga bank harajatlarning qisqarishi masofaviy bank xizmati rivojining ikkinchi omili hisoblanadi. Chunki Internet orqali masofaviy xizmatlarni amalga oshirishi uchun bank global tarmoqda o'z ishtirokini ta'minlasa, ya'ni "virtual ofisi"ni ishga tushirsa bo'ldi. Ushbu "virtual ofis" orqali mijoz bank-mijoz dasturini yuklab olishi yoki to'g'ridan-to'g'ri Internet bankingga ulanib, zaruriy operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin. Bunda bank mijozlarga xizmat qiluvchi serverni o'rnatishi va mijozlarning topshiriqlarini avtomatlashtirilgan bank axborot tizimiga o'tkazuvchi shlyuzlarni yaratishi zarur bo'ladi. Albatta, bu harakatlar qo'shimcha xarajatlar bilan bog'liq bo'lsada, Internet tarmog'i orqali ishlaydigan masofaviy bank xizmati tizimini joriy qilishga ketadigan jami xarajatlar bankning yangi filialini ochish uchun ketadigan xarajatlaridan ancha kam bo'ladi. Shu bilan birga, "virtual ofis"da xizmat ko'rsatiladigan mijozlar soni filial mijozlari sonidan bir necha marta ortiq bo'ladi.

Masofaviy bank xizmati tizimidan keladigan sof foydani hisoblash mushkul masala hisoblanadi, chunki bu tizim orqali daromad bilvosita keladi. Bevosita daromad esa (masalan tizimdan foydalanganlik uchun haq) odatda juda kam yoki umuman bo'lmaydi, albatta, bu holat muayyan bankning mijoz siyosatiga bog'liqdir. Bundan tashqari, masalan, axborot taqdim etish shaklida ko'llaniladigan Internet banking tizimi uchun foydaga asoslangan samaradorlik ko'rsatkichini aniqlashning o'zi noo'rin, chunki bu turdagi Internet banking mijozlarga bepul ravishda taqdim etiladi. Masofaviy bank xizmati tizimlarining samaradorligi ular keltiradigan foyda emas, balki tejalgan harajatlarga evaziga shakllanadi. Boshqacha qilib aytganda, bank qurilishga yoki ijaraga ketadigan xarajatlarni qisqartirish, bank xodimlari shtati va ularning bajaradigan ishlar hajmini qayta ko'rib chiqish, bank filiallarida bajariladigan kam daromadli operatsiyalar salmog'ini kamaytirish imkoniga ega bo'ladi.

Mijozlarga Internet orqali bank xizmatini ko'rsatish taraqqiyotining navbatdagi omili — bu elektron tijoratning rivojlaninishi hisoblanadi. Elektron tijoratning an'anaviy tijoratdan farqi shundaki, bu holda faoliyat faqat tarmoq ichida amalga

oshiriladi.

Elektron tijorat tarixi 1914-yildan, ya'ni General Petroleum Corporation of California korxonasi tomonidan chiqarilgan neft mahsulotlari uchun to'lov kredit kartasidan boshlangan. 1982-yilning noyabr oyida esa Nottingham Building Society qurilish kompaniyasi Shotlandiya banki va British Telecom telefon kompaniyasi hamkorligida Homelink tizimini joriy etdi hamda elektron tijorat sifatida telefon-banking dan olindi. O'tgan asrning 90-yillarda ".COM" domenining yaratilishi bilan Internet global tarmog'ida elektron to'lov kartalarini avtorizatsiya qilish orqali tovar va xizmatlarning sotilishidan iborat bo'lgan veb-tijorat yuzaga keldi. Zamonaviy tadbirkorlik faoliyati aynan shu yo'nalishda rivojlana boshladi, bugungi kunda elektron tijorat nafaqat jahon iqtisodiyotining katta salmog'ini egallaydi, balki o'z imkoniyatlarini kundan-kunga oshirib ham bormoqda.

G'arbiy Yevropa banklari o'rtasidagi raqobatning tobora kuchayishi mijozlarni nafaqat saqlab qolish, balki yanada ko'proq jalb etish uchun turli yangi xizmatlar o'ylab topildi va taklif etila boshlandi. Shu asnoda XX asrning 80 yillarida bank xizmatlarining "uydan turib foydalanish" singari shakllari taklifi avjiga chiqishni boshladi. 1982 yilning noyabr oyida Nottingham Building Society qurilish kompaniyasi va Shotlandiya banki British Telecom telefon kompaniyasi bilan hamkorlikda Homelink tizimini yo'lga qo'ydi. Bu tizim ham 1983-yil o'rtalarida to'liq hajmda ishga tushirildi va shundan so'ng bu singari xizmatlarni boshqa kredit tashkilotlari ham taqdim eta boshladilar.

Bank xizmatlarini faqat telefon orqali ko'rsatish imkoniyatini birinchi bo'lib ingliz banki First Direct (1989 yil) taklif qildi. Bu bank ishi tarixida ilk marotaba faqat telefon orqali xizmat ko'rsatadigan bankning yuzaga kelganligini alohida ta'kidlash joiz, chunki bu bankning birorta ham bo'limi yo'q edi. First Direct banki o'z mijozlariga elektron kanallar orqali xizmat ko'rsatayotgan eng birinchi hamda hozirda ham juda samarali faoliyat yuritayotgan banklardan biridir.

Internet orqali o'z xizmatlarini taklif etuvchi birinchi sof internet banki 1995 yilda

paydo bo'lgan First Security Network Bank hisoblanadi. Elektron xizmatlarning birinchi yili natijalariga ko'ra uning aktivlari 110 mln dollarni tashkil qilgan. Kapitalining o'rtacha oylik o'sishi 20%ni tashkil etgan. Mijozlarining hisobvaraqlari esa o'n mingtaga oshgan. 1997 yilda to'liq virtual bankka aylangan bo'lsada, mijozlarning ishonchsizligi tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchragan. 1998 yilda AQSH ning "Royal Bank Financial Group" tomonidan sotib olingan. Bu bank o'z xizmatlarini faqat internet doirasidagina amalga oshiradi va mijozlar bilan ishlash uchun hech qanday moddiy shakldagi ofisga ega emas. Bu bank o'z mijozlariga veb-sayti orqali turli bank hisob raqamlari ochish va ularni boshqarish, tovar va xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek, shaxsiy hisob raqamidagi mablag' qoldiqlarini tekshirish imkoniyatini taqdim etadi. Bank mijozlari AQSHning 45 ta shtatida faoliyat yuritadi.

Yevropadagi birinchi Virtual bank Germaniyadagi Drezden bank guruhining sho'basini bo'lib, o'z operatsion faoliyatini 1996 yilda boshlagan "Advance Bank" hisoblanadi. Bu xildagi banklarga boshqa misollar – Bankdirect (1999 yilda asos solingan), (1999 yilda asos solingan), Compubank (1998), Netbank (1996).

2001 yilning martida Yaponiya hukumati SONY korporatsiyasining Online banking ochish uchun litsenziya bergan. Bu bankda faqatgina birinchi oyning o'zida yigirma bir ming hisobraqam ochilgan. Amerika va yaponiya virtual bankirlarining muvaffaqiyati shu bilan ifodalanadiki, 2004 yildagi har uch bankdan biri internet banking ni qo'llagan. Jahon banking ma'luotiga qaraganda, 2010 yilda online banking foydalanuvchilar soni 300 mingga oshdi.

Rossiya davlatida esa masofaviy bank xizmatlari rivojlanishi 90 yillarda boshlandi. Dastlabki yangi xizmatlarni taklif etuvchi bank sifatida Inkombank o'zining "Inkom-Telebank" tizimi bilan faoliyatini yanada samarali kechishi uchun zamin yaratdi. Lekin 1998 yildagi inqirozdan so'ng masofaviy bank xizmatlari bozori faol ishtirokchilari sifatida Avtobank va Guta-bank (Hozirgi Uralsib banki va VTB-24 bank) lar katta sahnaga chiqishdi. Rossiyada virtual banking asoschisi sifatida

“Avtobank” (Bank Uralsib)ni ko‘rsatishimiz mumkin, chunki 1998 yil may oyidan boshlab ushbu xizmatni o‘z mijozlariga taqdim eta boshlagan. Shuningdek to‘liq “virtual” banklardan birinchisi sifatida (hamda bugungi kunda Rossiyada yagona) Sverdlovskiy viloyati bozorida faoliyatini amalga oshiruvchi Bank24.ru bankini ko‘rishimiz mumkin. Bu bank avtomatlashtirilgan bank sifatida tun-u kun, 24 soat mijozlariga xizmat ko‘rsatadi va asosiy diqqat e‘tiborini sifatli xizmat ko‘rsatishga hamda o‘zining brendi va marketingiga qaratadi.

Ko‘rinib turibdiki dastlab AQSH hamda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida keng qo‘llanila boshlagan Internet-banking xizmat turi vaqt o‘tishi bilan dunyoning boshqa mamlakatlarida ham faol qo‘llanila boshladi.

Oxirgi besh yil davomida O‘zbekiston Respublikasi “.UZ” Internet-hududida tijorat veb-xizmatlarini ko‘rsatadigan saytlar soni ko‘paydi. Bugungi kunda “.UZ” domen zonasida 17400 domen ro‘yxatdan o‘tgan⁸⁸. Internet-do‘kon egalari savdo maydonlaridan foydalanish uchun ijara xaqi va xizmat ko‘rsatadigan xodimlar maoshini to‘lamaslik, reklama harajatlarini qisqartirish, dunyoning ixtiyoriy nuqtasidan do‘konga kirilishi kabi afzalliklarga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, har bir mijozga tovar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aytib berish zarurati qolmaydi, har bir tovar yoki xizmat bo‘yicha axborot bazasi shakllantirilib, tovarlar katta assortimenti joylashtiriladi va qaysi mijozga qanday tovar zarurligi tarixi yuritiladi. Ushbu tarixga asosan esa, mijozga individual yondashgan holda keyingi jarayonni avtomat ravishda rejalashtirish mumkin bo‘ladi.

Internet-do‘kon xaridorlari ushbu savdo nuqtalaridan tovarlarni arzonroq sotib olish mumkinligini, tarmoq do‘konlari kuniga 24 soat davomida ochiqligini, tovarni olmasdan va o‘z uyidan chiqmasdan turib u to‘g‘risida to‘liq axborotga ega bo‘lish mumkinligini allaqachon anglab yetishdi. Bundan tashqari, xaridor olinayotgan tovarni forumlarda muhokama qilishi, oldingi xaridorlar tomonidan chet saytlarda yozilgan

⁸⁸ «Ўзбекистон Республикаси алоқа, ахборотлаштириш ва телекоммуникация технологиялари давлат қўмитаси» расмий сайти. <http://old.ccitt.uz/ru/indicators/>

xulosalar va takliflarni o‘qishi mumkin bo‘ladi. Bu orqali esa, albatta, vaqt tejiladi va ko‘ngildagidek tovar tanlanadi. Ammo, aytish kerakki, internet-do‘konlar kamchiliklar mavjud, misol uchun, yolg‘on buyurtmalar rasmiylashtirilishi, xaker xujumlari, o‘z qo‘li bilan “tirik” tovarni ushlab ko‘rish yoki tekshirib ko‘rish mumkin emasligi, sotuvchi tomonidan tovar olib kelinishini kutish zarurligi kabilar.

Bank xizmatlari bozori elektron hujjat aylanishi tizimiga o‘tgan davrlardan boshlab bir qancha turdagi elektron xizmatlar qo‘llanila boshlandi va mijozlarga keng miqyosda taklif etildi. Kompyuter texnologiyalari hamda internetning faol qo‘llanilishi xilma xil bank xizmatlari bozorini yuzaga kelishiga zamin bo‘ldi.

Moliyaviy va xususan kredit bozorining ekotizimi o‘zgarish holatida. Fintechning yangi ishtirokchilari doimiy ravishda bozorga kirib bormoqda, an’anaviy moliyaviy xizmatlar provayderlari esa ilg‘or texnologiyalarni raqamlashtirish va o‘sib borayotgan iste’molchilar talabiga moslashishga harakat qilmoqda. Bank sektori va Fintech o‘rtasidagi hamkorlik ko‘plab imkoniyatlarni ochib berishi mumkin, lekin bu jarayonda muayyan murakkabliklar ham mavjud.

Banklarning fintech kompaniyalari bilan hamkorligining muvaffaqiyati mijozlar tajribasini yaxshilash va operatsion xarajatlarni kamaytirish maqsadida bir-birining kuchli va zaif tomonlarini tushunadigan tashkilotlarga bog‘liq. Ushbu hamkorlik, Google, Amazon, Facebook va Apple (GAFA) kabi yirik kompaniyalar yoki Alibaba va Tencent kabi firmalar tomonidan keltirilishi mumkin bo‘lgan kuchli raqobat tahdididan o‘z pozitsiyalarini himoya qilish uchun shaxsiylashtirish, tezlik va uzluksiz xizmat ko‘rsatishni ta’minlashni talab etadi.

Infratuzilmaga asoslangan texnologiya, ayniqsa ochiq amaliy dasturlash interfeyslari (API) orqali, moliyaviy xizmatlar sohasini o‘zgartiradi. Mashinaviy ta’lim, robotli jarayonlarni avtomatlashtirish (RPA), chat-botlar va boshqa innovatsion texnologiyalar yordamida ortib borayotgan iste’mol ma’lumotlarini qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlari bilan birgalikda moslashuvchanlik, samaradorlik va aniqlikni ta’minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda.

Fintech kompaniyalari tomonidan yangi raqobatning ta'siri tufayli moliya institutlariga bosimi yuqorilab bormoqda. Bunga esa quydagi omillar ta'sir qilmoqda:

Yangi biznes modellar paydo bo'lishi. Fintech kompaniyalarining paydo bo'lishi peer-to-peer (P2P) to'lovlar va kreditlash, kraudsorsing yechimlari, ijtimoiy media skoring modellari va moliya bozoriga ta'sir ko'rsatadigan boshqa innovatsiyalar kabi yangi biznes modellarining shakllanishini o'z ichiga oladi.

Tezlik va samaradorlik. Ommaviy ishlov berish va oylik yangilanishlar bilan mavjud bank mijozlari uchun fintech kompaniyalari tomonidan taqdim etilgan tez va arzon xizmatlar tijorat banklariga bosim o'tkazmoqda. Real vaqtda yangilanishlar, proaktiv ogohlantirishlar va tezkor innovatsiyalar mijozlar tajribasini yaxshilab, banklarga qo'shimcha talablarni shakllantirmoqda.

Oshkoralik (shaffoflik). Raqamli va iste'molchilarga mo'ljallangan takliflari bilan fintech kompaniyalari an'anaviy bank tashkilotlariga nisbatan ancha past xarajat tuzilmasiga ega. Bu ularga xizmatlarni arzon narxlarda taklif qilish va narxlarni aniq ko'rsatish imkonini beradi.

Shaxsiylashtirish. Raqamli tashkilotlar Amazon tomonidan qo'llaniladigan shaxsiylashtirilgan yechimlarni taqdim etishi banklar infratuzilmasi hamda moddiy texnik bazasini mustahkamlashga undamoqda. Mijoz ma'lumotlariga ega bo'lishiga qaramay, eski tashkilotlarga bosim ushbu tushunchalarni iste'molchiga shaxsiylashtirilgan va kontekstli yechimlar shaklida qo'llash imkonini beradi.

Marja bosimi va komissiyalar. Fintech kompaniyalari, banklar, filiallar va eski ofis jarayonlari bilan bog'liq qat'iy xarajatlarga nisbatan xarajatlarni kamaytirish imkoniga ega, chunki ular eski infratuzilmaga ega emas. Avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va robotlashtirilgan jarayonlarni joriy etish an'anaviy banklar uchun qo'shimcha xarajatlar evaziga mijozlarni saqlab qolish imkoniyatini beradi.

Prognozli modellashtirish. Ko'plab fintech firmalari ekonometrik tahlilni qo'llash imkoniyatiga ega. Bu ularga mijozlar profili va xatti-harakatlariga asoslanib, takliflar va aloqalarni maqsadli va shaxsiylashtirilgan tarzda ishlab chiqish imkonini

beradi.

Raqamli taqsimot. Fintech kompaniyalarining o'sishi bank rahbariyatini mahsulot va xizmatlarni taqsimlashni qayta ko'rib chiqishga undamoqda. "Doimiy ishlaydigan" raqamli qurilmalarning quvvati va arzonligidan foydalangan holda, fintech kompaniyalari dizaynning soddaligi va iste'molchilar tomonidan kutayotgan kontekstuallikni ta'kidlamoqda.

Xizmat ko'rsatilmagan yoki yetarlicha xizmat ko'rsatilmagan segmentlarga kirish. Arzonroq tuzilma bilan fintech kompaniyalari klassik bank tashkilotlari uchun noqulay bo'lgan bozor segmentlariga qulay va arzon xizmatlar taqdim etib, ularning o'rtasidagi raqobatni kuchaytirmoqda.

Operatsion samaradorlik. Fintech kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan raqamli texnologiyalar xarajat afzalliklaridan tashqari, butunlay qayta ishlab chiqilgan operatsion back-office sezilarli darajada raqobatdosh ustunlikni ta'minlaydi, ta'minot zanjirini optimallashtirishga va yangi innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kengaytirilgan ma'lumotlar tahlili. Kengroq ma'lumotlar manbalari to'plami va ilg'or tahlil usullari fintech kompaniyalariga xavflarni boshqarish va underwritingning yangi modellarini sinab ko'rish imkonini berdi. Bu esa xarajatlarni kamaytirishga, pul mablag'larining kengayishiga va samaradorlikni oshirishga olib keldi.

Konstruktiv fikrlash. Foydalanish uchun qulay foydalanuvchi interfeyslari mijozlar tranzaksiyalarini tez va qulay amalga oshiradi, ma'lumotlarga asoslangan tushunchalar esa shaxsiylashtirilgan va kontekstli takliflar bilan mos keladi. Mijozlarga o'z firmalari bilan innovatsion usullar orqali o'zaro aloqada bo'lishga yordam berish uchun hozirda kengaytirilgan va virtual haqiqat yechimlari hamda biometrik yutuqlar ishlab chiqilmoqda.

Ko'pgina fintech kompaniyalarining asosiy farqlovchilari innovatsion fikrlash, moslashuvchanlik (tez moslashish qobiliyati), iste'molchiga yo'naltirilgan yondashuv va raqamli texnologiyalar asosidagi infratuzilma hisoblanadi. Shubhasiz, an'anaviy

moliya institutlarining aksariyati bunday afzalliklarga ega emas. Ko‘pchilik fintech kompaniyalari brend xabardorligi va ishonchi sababli yetarlicha raqobatbardosh bo‘la olmaydi. Ularning kapital, muvofiqlik va tartibga solish bo‘yicha bilimlari, shuningdek, tijorat banklarining kuchli tomonlari bo‘lgan rivojlangan filiallar tarmog‘i yetishmaydi.

Muvaffaqiyatli fintechlar ko‘pincha tor funksiyalarga yoki yuqori quvvatda ishlovchi segmentlarga (yoki an’anaviy moliya institutlari tomonidan kam xizmat ko‘rsatiladigan segmentlarga) e’tibor qaratishadi. An’anaviy moliya institutlari keng mijozlar bazasiga va katta kapitalga ega bo‘lishiga qaramasdan, rivojlanishlariga to‘sqinlik qiluvchi odatiy tizimlarga ega.

4.1-jadval

An’anaviy banklar va Fintech kompaniyalarining raqobatdosh ustunliklari⁸⁹

An’anaviy banklar	xavflarni boshqarish
	Infratuzilma
	Tartibga solish
	Iste’molchining ishonchi
	Miqyosni tejash
	Brendning nomi
	Sarmoya
Fintech kompaniyalari	Manevrlik
	Innovatsiya
	Moslashuvchanlik
	Mijozning taassurotlari
	Yangi mahsulotlar
	Ma’lumotlarni qayta ishlash
Xarajatlarni pasaytirish (narx)	

An’anaviy banklar va fintech kompaniyalari o‘rtasidagi munosabatlar raqobatdan hamkorlikka o‘tmoqda. Muammo shundaki, ikkala tomonning foydali atributlarini yo‘qotmasdan, hamkorlik rivojlanishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratishdir. Asosiy to‘siqlardan biri bunday hamkorlikni osonlashtirish uchun zarur imkoniyatlarni topa olishdir.

Muvaffaqiyatli hamkorlikka yagona yondashuv mavjud emas, chunki ishtirokchilar o‘zlarining strategik maqsadlariga erishish uchun eng mos keladigan turli xil o‘zaro ta’sir modellarini tanlaydilar. Eng keng tarqalgan o‘zaro ta’sir modellari: oq

⁸⁹ muallif tomonidan tuzilgan

yorliqlash, ichki yechimlar va ilovalarni yaratish mahsulotlaridan foydalanish (API).

4.2-jadval

Fintech kompaniyalari o'rtasidagi mumkin bo'lgan hamkorlik sohalari⁹⁰

Hamkorlikdan avval	Hamkorlik davrida
Sotib olish bo'yicha yetakchilikni ta'minlash (aksiyalar)	Hamkorlikdagi muvaffaqiyatsizliklardan himoya qilish (xedjirlash) rejalarini ishlab
Aniq biznes maqsadlarini belgilash	Doimiy monitoring
Boshida kutilgan taxminlarni muvofiqlashtirish	Manfaatdor tomonlar bilan o'z vaqtida muloqot qilishga intilish
Mavjud korxonalarining infratuzilmasiga kirish	Ko'rsatkichlarni ishlab chiqish va monitoring qilish
Madaniy muvofiqlikni ta'minlash	
Intellektual mulk huquqlarining ta'riflash	

Agar ba'zi moliyaviy tashkilotlar tashkilot ichidan moliyaviy innovatsiyalarni rag'batlantirishga harakat qilsalar, ularning aksariyati tashqaridan inkubatorlar, akseleratorlar, xakatonlar va venchur kapital fondlari orqali ishlaydilar. An'anaviy moliyaviy institutlar bilan ishlashda fintech kompaniyalarini eng katta tashvishga soladigan narsa bu ularning moslashuvchan emasligi va tez harakat qilish uchun kurashidir.

Fintech sanoati hozirda infratuzilmaga, ochiqlik va mijozlarga e'tibor qaratishga ta'sir qiluvchi tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Katta ma'lumotlar, bulutli xizmatlar, sun'iy intellekt va yangi tahlil vositalari kabi texnologiyalar rivojlanishi mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yangi bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

Fintechga venchur investitsiyalari hajmi so'nggi 5 yil ichida 10 barobar oshib, yiliga 20 milliard AQSh dollari darajasiga yetdi, bu moliyaviy innovatsiyalarga misli ko'rilmagan qiziqishni tasdiqlaydi. Bir qator yirik moliya institutlari (bozor ulushini saqlab qolish maqsadida) regulyator ishtirokida blokcheyn (R3 konsorsiumi va boshqalar) asosida ixtisoslashtirilgan platformalar yaratish bo'yicha loyihalarni boshladilar.²⁹

⁹⁰ muallif tomonidan quyidagilar asosida tuzilgan: 5G in industrial operations. How telcos and industrial companies stand to benefit // Capgemini [Elektron resurs] - Kirish tartibi: <https://www.capgemini.com>

Global miqyosda fintech iste'molchilari erta qabul qiluvchilar toifasidan (2021-yilda) "erta" toifasiga (2023-yilga kelib) o'tishdi. E&Y konsalting kompaniyasining ma'lumotlariga qaraganda, global miqyosda Fitech xizmatlari 16 ta bozorda (20 tadan) "erta" iste'molchilari tomonidan qabul qilingan, natijada innovatsiya bosqichidan oshib ketgan hamda ikki mamlakatda FinTech foydalanuvchilari "kech" bosqichiga erishgan. Bular esa ushbu hududlarda aholining asosiy qismi fintech xizmatlaridan faol foydalanishini ko'rsatadi.

4.3-jadval

Fintech xizmatlarining mamlakatlar bo'yicha kirib borish darajasi⁹¹

Joy	Mamlakat	Kirish darajasi (% da)
1	Xitoy	69
2	Hindiston	52
3	Rossiya (megapolislar)	43
4	Buyuk Britaniya	42
5	Braziliya	40
6	Avstraliya	37
7	Ispaniya	37
8	Meksika	36
9	Germaniya	35
10	Janubiy Afrika	35
11	AQSH	33
12	Gonkong	32
13	Janubiy Koreya	32
14	Shveytsariya	30
15	Fransiya	27
16	Niderlandiya	27
17	Irlandiya	26
18	Singapur	23
19	Kanada	18
20	Yaponiya	14

Moliyaviy innovatsiyalarning hajmi va sur'ati har yili o'sib bormoqda. Bu esa so'nggi yillardagi eng muhim global hodisaga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar (raqamlashtirish) moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning asosi bo'lib, moliyaviy innovatsiyalarning moliya bozoriga kirib borishini rag'batlantiradi.

⁹¹ EY Global FinTech Adoption Index (2023 yil iyun) asosida muallif tomonidan tuzilgan [Elektron resurs] - Kirish tartibi: www.ey.com/FinTechIndex

Innovatsion texnologiyalar (moliyaviy innovatsiyalar) banklarga turli imkoniyatlar taqdim etadi, masalan, xarajatlarni kamaytirish, axborot almashinuvini tezlashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash samaradorligini oshirish va xizmatlarni moslashtirish. Texnologik innovatsiyalar banklarning samaradorligini oshiradi, iste'molchilarning xohish-istaklarini shakllantiradi va yangi kompaniyalar uchun bozorga kirish xarajatlarini kamaytiradi. Fintech tashkilotlari esa banklarning an'anaviy biznes modellariga raqobat bosimini kuchaytirib, qo'shimcha vositachilarni jalb qilish zaruratini yo'q qilmoqda va moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning yangi usullarini rag'batlantirmoqda. Hozirda fintech orqali taqdim etilayotgan xizmatlar hajmi an'anaviy moliyaviy operatsiyalar hajmiga nisbatan kichik bo'lsa-da, fintechning o'sish sur'ati juda yuqori. Texnologiyaning tez rivojlanishi ko'plab fintech kompaniyalarining paydo bo'lishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Moliyaviy institutlar ko'pincha fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilishni afzal ko'rishadi, ularni potentsial raqobatchilar sifatida emas, balki hamkorlar sifatida ko'rishadi.

maslahat beradigan an'anaviy moliyaviy maslahatchilardan foydalanmaydi. Fintech maslahatchilari va robot-maslahatchilar oddiy investorlarni diversifikatsiya va xavfsiz investitsiya amaliyotlari bo'yicha maslahatlariga amal qilishga ishonirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu holat xususiy kriptovalyutalarning rasmiy valyutalardan foydalanishni cheklashi va pul agregatlarini kuzatishni qiyinlashtirishi, natijada pul-kredit siyosatiga muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, virtual valyutalarning narxlarini o'zgaruvchanligi va ishonchning yo'qolishi, likvidlik provayderlari va oxirgi chora sifatida kreditorlarga zarar etkazishi mumkin. Agar moliya institutlari noan'anaviy valyutalarda tizimli investitsiyalarni amalga oshirsa, milliy va an'anaviy chet el valyutalari zaxiralariga ega oxirgi instansiya kreditorining funksiyasi samarali bo'lmay qoladi. Riskning ahamiyati shundan iboratki, foydalanuvchilar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri operatsiyalarda raqamli valyutalar xavfsiz bo'lsa-da, birjalar kabi uchinchi tomon vositachilari bilan tranzaksiyalarning muvaffaqiyatsizligi operatsion risklarni yuzaga keltiradi.

Raqamli valyutalar soliq to'lashdan bo'yin tovlash, firibgarlik va noqonuniy operatsiyalarga hissa qo'shishi mumkin, bu esa pulni yuvishga qarshi kurash va "mijozingizni bilish" qonunchiligini kuchaytirishni talab qiladi. Aqlli kontraktlar kriptovalyutalar orqali anonim himoyalangan piramida sxemalarini qo'llab-quvvatlashi va firibgarlik sxemasi fosh qilinmagan holda ham avtomatik ravishda davom etishi mumkin, bu esa monitoringni kuchaytirishni talab qiladi. Natijada, raqamli xizmatlardan foydalanish uchun Internet va telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash zarurati tug'iladi.

Fintechga bo'lgan qiziqish kengayganiga qaramay, uning mavjud moliya institutlari va ularning biznes modellariga ta'siri, shuningdek, innovatorlar uchun qaysi yangi moliyaviy texnologiyalar eng qimmatli bo'lishi hali to'liq aniq emas. Fintech kashfiyotlari mavjud moliyaviy institutlarga xarajatlarni kamaytirishga va mijozlarni jalb qilishni oshirishga yordam berishi, bu esa kelajakda daromadning oshishiga olib kelishi mumkin.

4.3. Tijorat banklarida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishni takomillashtirish istiqbollari

Hozirgi kunda mamlakatimizda bank tizimi texnologik jihatdan ancha rivojlangan bo‘lib, deyarli barcha bank xizmatlari elektron platformalar orqali ko‘rsatilmoqda. Mamlakatimizda hozirgi vaqtda deyarli har kuni ulkan yangilik va o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bu, o‘z navbatida taraqqiyotimiz sur‘atlari naqadar tezlashib, ularning natijadorligi ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Eng muhimi, bunday keng ko‘lamli islohot va yangilanishlar aniq maqsadga – “Yangi O‘zbekiston”ning rivojini yangi bosqichga olib chiqish, xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgani bejiz emas.

Zamonaviy texnologiyalar bir joyda to‘xtab turmaydi. U muntazam takomillashgani sayin, tabiiyki, sohaning qonunchilik asoslari ham mustahkamlanib boraveradi, jumladan, 2030-yilga qadar “Raqamli O‘zbekiston” konsepsiyasini ishlab chiqish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish Davlat dasturida¹¹⁷:

“Raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli ma’lumotlar, katta hajmlarni qayta ishlash va tahlil natijalarini qo‘llagan holda, an’anaviy boshqaruv shakllari bilan taqqoslaganda, turli xil ishlab chiqarish, texnologiyalar, uskunalar, saqlash, sotish, tovar va xizmatlarni yetkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin” degan fikr bildirilgan.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligini ta’minlash, jahon tajribasiga suyanagan holda milliy iqtisodiyotni jadal sur‘atlarda raqamlashtirish uchun quyidagi ishlarni

¹¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi; 2020 yil 24 yanvar, Lex.uz

bajarish lozimligi ko'rsatib o'tilgan:

- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy bazasini shakllantirish;
- milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarni 22 modernizatsiyalashda imkon qadar eng so'nggi raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- eng so'nggi raqamli texnologiyalarga asoslangan kommunikasion vositalar, mashina va uskunalarni sotib olish, o'rnatish va mahalliy kadrlarning ularda ishlash malakalarini oshirish;
- maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, to oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimigacha raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan kadrlar siyosatini ishlab chiqish va yuritish.

“Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-sonli qarorida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Ushbu qaror doirasida raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy indikatorlar majmuasining yaratilishi uchun me'yoriy-huquqiy asos ham mavjud. Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga oid milliy ko‘rsatkichlar tizimiga kelgusida qo‘shimcha ravishda quyidagi xalqaro institutlar va tashkilotlarning indekslarini kiritish, uning nufuzini oshirish va qamrov chegarasini kengaytirishga yordam beradi:

- Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (Telecommunication Infrastructure Index – TII);
- Internettarmoq tayyorligi indeksi (Networked Readiness Index (NRI) - The World Economic Forum);
- Bilimlar iqtisodiyoti indeksi (Knowledge Economy Index, KEI - European Bank for Reconstruction and Development, EBRD);
- Global o‘zaro aloqa tarmoq indeksi. Huawei yoki global ulanish indeksi

(Global Connectivity Index – GCI);

- Iqtisodiyotni raqamlashtirish indeksi (Boston Consulting Group (eIntensity));
- Raqamli evolyusiya indeksi (Digital Evolution Index – DEI -Mastercard va Taftsa universitetining Fletcher nomidagi huquq va diplomatiya maktabi);
- Raqamlashtirish imkoniyatlari indeksi (Digital opportunity index, DOI), Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) va boshqa indikatorlar.

Monitoring orqali raqamli texnologiyalar keng qo'llanilayotgan va iqtisodiy faoliyat doirasi tez rivojlanayotgan tarmoqlarni aniqlash, shuningdek, ular bo'yicha indikatorlar sonini ko'paytirish raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga oid milliy ko'rsatkichlar tizimining salohiyatini oshirishga xizmat qilishi kerak. Raqamli iqtisodiyot insonlar turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi, bu esa uning asosiy foydasidir. Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va “qora iqtisodiyot”ga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi, chunki raqamlar barcha ma'lumotlarni muhrlaydi, saqlaydi va zarur paytda tez taqdim etadi. Bunday sharoitda ma'lumotlarni yashirish, yashirin bitimlar tuzish yoki faoliyat haqida to'liq axborot bermaslik qiyinlashadi, chunki kompyuterlar hamma narsani namoyon qiladi. Ma'lumotlarning ko'pligi va tizimliliği yolg'on va nohaq ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsizdir. Natijada, “iflos pullarni” yuvish, mablag'larni o'g'irlash va samarasiz sarflash imkoni qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga qonuniy mablag'lar oqimini oshiradi, soliqlar o'z vaqtida va to'g'ri to'lanadi, budjet taqsimoti ochiq bo'ladi va ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar o'g'irlanmaydi.

Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lini tanlashi axborot texnologiyalari va elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi imkoniyatlar ochadi. “Raqamli texnologiyalar” ga o'tish butun dunyo internet tarmog'i va sifatli aloqaning rivojlanishi bilan bog'liq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyot uchta ustun ustiga ajratish mumkin:

- infrastrukturani qo'llab-quvvatlash (dastgoxlar, dasturiy ta'minot, telekommunikatsiya, tarmoqlar va boshqalar.);
- elektron biznes (tashkilotlar tomonidan kompyuter tarmoqlari orqali olib boradigan jarayonlari);
- elektron tijorat (tovarlar onlayn uzatish);
- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarining bosqichma-bosqich o'zgarib borishi bu jarayonni belgilashga turli yondashuvlarni keltirib chiqarishi zarur.

Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari rivojlanayotgan sohalar bo'lib, biz faqat ularning davlat iqtisodiyotiga ta'sirini taxmin qilishimiz mumkin. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning hayotimizning turli jabhalariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini ko'rib turibmiz. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot "Yangi O'zbekiston"ning keyingi o'n yildagi iqtisodiy o'sishining asosiy omili hisoblanadi. Investitsiya va tadbirkorlikni diversifikatsiya qilish uchun kriptoaktivlar, jumladan, smart kontraktlar, konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'urtalash va kraud-funding kabi faoliyatlarni, shuningdek, blokcheyn texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish zarur.

Avvalo, blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega malakali kadrlarni tayyorlash zarur. Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etishda davlat organlari hamda tadbirkorlik subyektlari o'rtasida yaqin hamkorlikni ta'minlash zarur. Kriptoaktivlar va blokcheyn texnologiyalari sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish lozim. Xorijiy tajribani inobatga olib, blokcheyn texnologiyalarini joriy etish uchun huquqiy baza yaratish ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu faoliyatga doir farmon va qarorlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun raqamli iqtisodiyotning mohiyatini chuqur tushunish va uning asosiy

tushunchalarini bilish zarur. Aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish ham bu jarayonning muvaffaqiyatiga katta hissa qo'shadi.

Raqamli iqtisodiyotga qiziqish jamiyat va iqtisodiyotdagi jiddiy o'zgarishlar natijasida sezilarli darajada oshdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar korxonalarga va jismoniy shaxslarga xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi, shuningdek, mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan o'zaro muloqotni tez va oson yo'lga qo'yadi.

Natijada, tarmoq resurslariga asoslangan raqamli iqtisodiyot shakllanadi. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy yuksalishning muhim omili sifatida tan olinmoqda. Bugungi kunda ularning ahamiyati tobora ortib bormoqda va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari har bir davlat uchun dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ekspertlarning fikriga ko'ra, kelgusi uch yil ichida iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyoda 22 foiz ish o'rni axborot texnologiyalari yordamida yaratilishi kutilmoqda.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot va uning bir qator samarali texnologiyalari, jumladan, elektron tijorat va elektron biznes hayotimizga tezlikda kirib kelmoqda. Shu sababli, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida O'zbekiston rahbariyati bir qator muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida mamlakatda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bo'yicha quyidagi fikrlarni bildirdi: "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida 2020-yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilishni taklif etaman". Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli farmonida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari belgilangan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni davlat boshqaruv tizimiga tatbiq qilish uchun zamonaviy axborot

texnologiyalarini rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 31-avgustda raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilovchi qaror qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3832-sonli 2018-yil 3-iyuldagi qarori ham ushbu tadbirlar qatoriga kiritilishi mumkin. Ushbu qaror asosida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar quyidagilar hisoblanadi:

- Investitsiya va tadbirkorlikni diversifikatsiya qilish maqsadida kriptoaaktivlar aylanmasi sohasida faoliyatni rivojlantirish, shu jumladan, quyidagilarni o'z ichiga oladi: mayining, smart kontraktlar, konsalting, emissiya, ayirboshlash, saqlash, taqsimlash, boshqarish, sug'urtalash va jamoaviy moliyalashtirish. Buning bilan birga, blokcheyn texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.

- Blokcheyn texnologiyalarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish sohasida amaliy ko'nikmalariga ega bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash.

- Raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish sohasida davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining yaqin hamkorligini ta'minlash.

- Kriptoaaktivlar bo'yicha faoliyat va blokcheyn texnologiyalari sohasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish va ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatadigan yuqori malakali xorijlik mutaxassislarini jalb qilish.

- Xorij tajribasini hisobga olgan holda blokcheyn texnologiyalarini joriy etish uchun huquqiy baza yaratish.

Tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash va banklararo raqobat sharoitida uni takomillashtirish masalalari tadqiqiga yangicha yondoshuvning maqsadi bo'lib tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash va banklararo raqobat sharoitida uni takomillashtirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maydonga chiqadi. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga

oshirilishi kerak:

- tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash va banklararo raqobat sharoitida uni takomillashtirish to'g'risidagi nazariy qarashlarni tadqiq qilish va tegishli ilmiy-nazariy xulosalar berish;

- tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholash va banklararo raqobat sharoitida uni takomillashtirish metodologik asoslarini tadqiq qilish hamda ilmiy xulosalarni shakllantirish;

- tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashning amaldagi holatini tahlil qilish va mavjud tendensiyalarni aniqlash;

- tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashni ilg'or xorij tajribasi asosida o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va ularni O'zbekiston bank amaliyotida qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

- tijorat banklari samaradorligini baholashda ta'sir etuvchi omillarning yo'nalishini va ko'lamini tahlil qilish, shuningdek, mamlakat tijorat banklarining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir. Zamonaviy raqamli axborot texnologiyalari va dasturiy ta'minotlardan foydalanish bank xizmatlari bozorida raqobat ustunligini ta'minlash bilan birga, ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va vaqtni tejash kabi ijobiy natijalarga ham olib keladi. Masalan, muammoli kreditlarni tahlil qilish va ularni boshqarishni avtomatlashtirish ko'plab muammoli kreditlar bilan ishlashni osonlashtiradi va qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkonini beradi. Bunga misol sifatida, kreditlarning asosiy qarz va ustama foiz mablag'larini to'lash muddatlarini ogohlantiruvchi avtomatik SMS xabarlar yuborish, muddatidan o'tgan muammoli kreditlar bo'yicha sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash va elektron tarzda yuborish jarayonlarini keltirish mumkin.

Hozirgi kunda banklar rivojlanish dasturlariga asoslangan yirik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha faol ish olib bormoqdalar. Yaqin kelajakda kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalari qonuniy tartibga solinishi kutilmoqda, bu esa ko'plab

kredit tashkilotlarining biznesni rivojlantirish strategiyalariga raqamli transformatsiyani kiritishiga olib keladi. Biroq, inson ongini raqamli tizimga o'tkazish jarayoni o'nlab yillar davom etishi mumkin. Shu munosabat bilan, banklar o'z tartibini va tashkilotini o'zgartirishni, shuningdek, xavfsizlik nazoratini ta'minlash hamda eng yangi texnologiyalardan foydalanish o'rtasida muvozanatni yaratish uchun ishonchli muhitni shakllantirishga e'tibor berishlari zarur.

Tadqiqotimiz Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida amalga oshirilayotgan amaliy loyiha raqamli texnologiyalar asosida mamlakat bank xizmatlaridan foydalanish tizimini soddalashtirishga qaratilgan. Bu loyiha doirasida aholi uchun mo'ljallangan "UzComBanksBox" mobil ilovasini ishlab chiqish, ilmiy asoslangan takliflar va innovatsion ishlanmalarni yaratish maqsad qilib olingan.

Loyihani amalga oshirish jarayonida mamlakatimizdagi tijorat banklari, fintech kompaniyalari va nobank kredit tashkilotlari taqdim etayotgan xizmatlar va obyektlar haqida ma'lumot to'plab, ushbu sohalar uchun yagona interaktiv bank xizmatlari haqida to'liq ma'lumot beruvchi mobil ilova yaratish rejalashtirilmoqda.

Ushbu yagona innovatsion mobil ilova orqali bank uchun "Raqamli gid" mahsulotini yaratish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunda bank obyekti joylashgan joy, obyekt haqida umumiy ma'lumotlar, xizmat narxlari, mahsulotning to'liq izohi ko'rsatilishi mumkin. Shuningdek, "Raqamli gid" dasturiy mahsuloti doirasida bank xizmatlariga kutilgan daromadni hisoblab chiqadigan va ma'lumotlar asosida to'lanadigan mablag'ni belgilovchi biznes kalkulyator ham ishlab chiqiladi.

Biz ilmiy tadqiqotimiz davomida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan e'lon qilingan tanlov asosida tuzilgan shartnoma doirasida tijorat banklari mahsulot va xizmatlari ma'lumotlariga tayanib, Markaziy bank ma'lumotlar bazasi asosida bank mijozlari uchun "UzComBankBox" mobil ilovasini yaratishga erishdik. Ushbu mobil ilova orqali ijaraga berilayotgan banklar tomonidan taqdim etilayotgan innovatsion mahsulotlarni umumlashtirib, "optimal mijoz – optimal bank" konsepsiyasiga muvofiq ishlash hajmini "Milliybank" AJ va "Turonbank" ATBlarda

65-70 foizga yetkazib, banklar daromadining barqarorlashuviga erishdik.

Mobil ilovada, mijozlar uchun tanlangan xizmat va mahsulotlarni eng optimal variantda taklif etuvchi bank ma'lumotlari orqali mijozlardan talab etiladigan to'lov summalarini taxminiy hisoblab chiqadigan biznes kalkulyatorini ishlab chiqamiz. Bu orqali boshlang'ich badal mablag'i, foiz stavkasi va muddatni ko'rsatish orqali olinadigan kredit, qo'yiladigan depozit va valyuta kursidan kelib chiqadigan yo'qotishlarni hisoblash imkoniyati bo'ladi. Natijada, foyda yoki ko'riladigan zararni aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, biznes kalkulyator belgilangan foiz stavkasi bo'yicha va ma'lum bir muddatdan keyin kredit yoki depozit shartnomasini bekor qilganda qoldiq summa hajmini ham aniqlay oladi. Shuningdek, biznes kalkulyator turli banklar tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar va mahsulotlarga qo'yilgan talablardan individual tarzda joylashgan joyi, o'rtacha oylik daromad ma'lumotlariga asoslangan holda optimal variantni tanlash imkoni beradi. Eng asosiysi mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan barcha bank ma'lumotlarni kunlik yangilash orqali, bank mijozlariga berilayotgan imtiyozlardan uzliksiz xabardor bo'lish imkoni ham yaratiladi. Bu bilan mijoz bankka murojaat qilib yoki bir nechta bank saytlari, mobil ilovalariga kirib qolganlari bilan solishtirishiga hojat qolmaydi.

Bank mijozlari uchun "yon daftar" qismida mijoz o'zining nomiga olingan barcha bank operatsiyalari tarixi hamda mavjud qarzdorliklar to'g'risidagi kunlik ma'lumotlardan xabardor bo'lishi mumkin. Ushbu qismda banklarning eng yaqin lokatsiyasi, ulardagi valyuta kurslari hamda xizmat narxlari haqida umumiy ma'lumot olish imkoni ham mavjud. Bunda mijoz ortiqcha ovoragarchiliklarsiz o'zi tanlagan bankning bankomatlari, filiallari hamda bank xizmatlari markazlari haqidagi ma'lumotlarni ham olishi mumkin. Obyektlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Ushbu "Yon daftar – ma'lumotnoma" bank faoliyatini tartibga soluvchi barcha qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga olib, unda bank mijoziga beriladigan imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlar doimiy ravishda yangilanib boradi. Mobil ilovadan o'zbek, rus, ingliz va xitoy tillarida foydalanish, shuningdek ushbu tillarda

ma'lumot olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, "UzComBanksBox" mobil ilovasini ishlab chiqish bank mijozlariga eng optimal bankni tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga, tijorat banklari uchun potensial mijozlarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Mijozlar daromadlari bilan bank xizmatlari haqida onlayn rejimda va uzluksiz ma'lumot olish orqali bank faoliyatining samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shadilar.

To'rtinchi bob bo'yicha xulosa

Mijoz-bank, internet, telefon yoki mobil banking kabi masofaviy bank xizmati turlari, o'zaro farqlanishiga qaramasdan, an'anaviy xizmat ko'rsatish usullariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega.

Birinchidan, xizmat ko'rsatish sifati oshadi va innovatsion bank xizmati orqali vaqt cheklovlari olib tashlanadi. Mijozlar o'z hisob raqamlarini haftasiga yetti kun, kuniga yigirma to'rt soat davomida boshqarish imkoniga ega bo'lishadi. Ikkinchidan, mijozning geografik holatiga e'tibor berilmaydi, ya'ni mijoz dunyoning istalgan nuqtasidan o'z tranzaksiyalarini o'tkazishi mumkin. Buning uchun shunchaki shaxsiy kompyuter va Internet, yoki mobil telefon va aloqa tarmog'i kerak.

Yangi bank mahsulotlarini yaratish, amaliyotga tatbiq etish yoki mavjud moliyaviy xizmatlarni masofaviy aloqa vositalari bilan integratsiyalash orqali banklararo raqobat sharoitida bankning raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi. Bu, shuningdek, bank filiallarini boshqarish bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirib, operatsion tannarxni kamaytiradi.

Fintechga bo'lgan qiziqish kengayganiga qaramay, uning mavjud moliya institutlari va biznes modellariga ta'siri, shuningdek, innovatorlar uchun qaysi yangi moliyaviy texnologiyalar eng muhim ekani hozircha to'liq aniqlanmagan. Biroq, fintech kashfiyotlari moliyaviy institutlarga xarajatlarni kamaytirishga va mijozlarni ko'proq jalb qilishga yordam beradi, bu esa kelajakda daromadlarning oshishiga olib kelishi mumkin.

Ko'pgina fintech kompanialarining asosiy farqlovchilari innovatsion fikrlash, moslashuvchanlik (moslashish tezligi), iste'molchiga qaratilgan istiqbol va raqamli texnologiyalar asosida qurilgan infratuzilma hisoblanadi. Biroq, ko'pchilik an'anaviy moliya institutlari bu afzalliklarga ega emas. Fintech kompaniyalari brend xabardorligi va ishonchi tufayli kuchli raqobatga duch kelmasligi mumkin, ammo ularda kapital, muvofiqlik va tartibga solish bo'yicha bilimlar yetishmaydi. Shuningdek, tijorat banklarining kuchli tomonlari, masalan, rivojlangan filiallar tarmog'i ham ularning raqobatbardoshligini cheklaydi. Shuning uchun, fintech kompaniyalari o'zlarining innovatsion yechimlari orqali an'anaviy banklar bilan raqobatlashishda o'z imkoniyatlarini oshirishga harakat qilmoqda deya olamiz.

Xulosa va takliflar.

Banklarning transformatsiyasida moliyaviy innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar va takliflar ishlab chiqildi. Moliyaviy innovatsiyalarni aniqlash, innovatsiyalar bilan bog‘liq kutilmagan oqibatlarni kamaytirish, moliyaviy bozordagi risklarni boshqarish va boshqa jarayonlarni moslashtirish uchun kelgusi ishlanmalar zarur. Bizningcha, moliyaviy innovatsiyalarni tijorat banklarida amalga oshiriladigan faoliyat va ularning moliyaviy tabiati nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish lozim.

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “moliyaviy innovatsiyalar” tushunchasi fan-texnika taraqqiyotiga muvofiq ravishda yangi moliyaviy operatsiyalar, vositalar, texnologiyalar, biznes modellari va institutlar orqali moliyaviy bozorlarni yanada samarali, xavfsiz va moslashuvchan qilib, moliya bozori samaradorligiga hissa qo‘shuvchi iqtisodiy va moliyaviy tizim sifatida talqin etiladi.

davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklarda chiqarilgan bir dona plastik kartaga to‘g‘ri keladigan to‘lov miqdori, shuningdek, o‘rnatilgan to‘lov terminallari orqali amalga oshirilgan o‘rtacha to‘lov miqdori xususiy banklar bilan solishtirganda ancha past bo‘ladi.

kichik banklarda o‘rnatilayotgan to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar sonining o‘zgarishi masofaviy bank xizmatlaridan olinayotgan daromadlarga ta’siri, butun bank tizimidagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar va yirik banklardagi ko‘rsatkichlardan ham yuqoriligini ko‘rsatadi.

tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarining aktivlarga va kapitalga nisbatan rentabelligi pasayib borayotgani aniqlangan. Yirik banklarda masofaviy xizmatlarning aktivlarga nisbatan rentabelligi past bo‘lsa, kichik banklarda bu ko‘rsatkich yuqoridir. Shuningdek, kichik banklarda masofaviy xizmatlarning kapitalga nisbatan rentabelligi o‘zgarish chastotasi kengaymoqda.

tijorat banklarida biznes uchun korporativ kartalarni chiqarish (KK), mobil-ekvayring (ME), internet-ekvayring (IE) va boshqa moliyaviy innovatsiyalar (MI)dan

foydalanish o'rtasida maqbul nisbatni ($KK:ME:MI=0,45;0,21;0,19;0,15$) ta'minlash orqali innovatsion xizmatlar ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish zarur.

tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan innovatsion mahsulotlarni umumlashtirib, mijozlarga birlashtirilgan holda taqdim etish orqali "optimal mijoz – optimal bank" konsepsiyasiga muvofiq ishlash hajmini 65-70 foizga yetkazish, banklar daromadining barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlari samaradorligiga monetar omillarning ta'sirini baholash orqali endogen risklarning bank daromadlariga prognoz qilish metodlari ishlab chiqildi. Ushbu metod natijalariga ko'ra, iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining bir foizga oshishi bankning masofaviy xizmatlaridan ko'radigan daromadini 0,06 foizga oshiradi. Shuningdek, pul massasi o'zgarishining bankning innovatsion mahsulotlaridan olinadigan daromadiga ta'siri mavjud emasligi aniqlangan.

Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimni yaxshilash, ularni samarali joylashtirish va bu tizimlarning provardida bank daromadlariga ta'sirini empirik baholash lozimligi ko'rsatildi. Xususan, Turonbank ATB tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokiosklar sonining bir foizga oshishi esa bir oylik lag bilan bankning masofaviy xizmatlaridan oladigan daromadlarini 1,23 foizga oshirsa, "O'zmilliybank" AJ tomonidan o'rnatilgan bankomat va infokiosklar sonining bir foizga oshishi esa daromadlarini 1,79 foizga oshirishi ekonometrik strukturaviy vektorli avtoregressiya (SVAR) model orqali aniqlandi;

Tijorat banklarida biznes uchun korporativ kartalarni chiqarish, mobil-ekvayring, internet-ekvayring va boshqa mahsulotlarni joriy etish orqali innovatsion xizmatlar ko'lamini va sifatini kengaytirish zarur.

Tijorat banklari tomonidan aholiga qulay innovatsion mahsulotlar taqdim etish, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonini oshirish va bankning masofaviy bank xizmatlari samaradorligini yaxshilashga yordam beradi. Xususan, O'zmilliybank A.J.da masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar sonining bir

foizga oshishi, keyingi oyda bankning masofaviy xizmatlardan oladigan daromadini 0,21 foizga oshirishi isbotlangan. Xalqaro moliya institutlari va milliy tartibga soluvchilar tashkilotlarga transchegaraviy xizmatlar ko'rsatishga ruxsat berish yondashuvlariga alohida e'tibor berishadi. Jahon moliya bozorida moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning ekstraterritorial xususiyati tartibga soluvchi arbitraj uchun sharoit yaratadi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида”ги ЎРҚ-582 Қонуни, 2019 йил 11 ноябрь.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-580 Қонуни, 2019 йил 7 ноябрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида”ги ПФ-5992-сонли Фармони.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 февралдаги “Пул муомаласини янада такомиллаштириш ва банк пластик карточкаларидан фойдаланган ҳолда ҳисоб-китобларни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2777-сонли Қарори.
7. Ш.М.Мирзиёев “Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси” – Тошкент: Ўзбекистон, 2020.
8. Altunbaş Y., Gardener E.P., Molyneux P., Moore B. Efficiency in European banking, *European Economic Review*, 45.10 (2001), pp. 1931–55;
9. Altunbas Y. Efficiency and Risk in Japanese Banking, *Journal of Banking and Finance*, 24.10, (2000), pp. 1605-1628;
10. Altunbas Y., Evans L., Molyneux P. Bank Ownership and Efficiency, *Journal of Money, Credit and Banking*, 33.4, (2001), pp. 926-954.
11. Antunes J., Hadi-Vencheh A., Jamshidi A., Tan Y., and Wanke P. “Bank efficiency estimation in China: DEA-RENNA approach,” *Ann Oper Res*, vol. 315, no. 2, pp. 1373–1398, (2022);
12. Ashta A. Biot-Paquerot G. FinTech evolution: Strategic value management issues in a fast changing industry // *Briefings in entrepreneurial finance*. Volume 27, Issue 4. July 2018. – 301-311 p.
13. Assaf A., Berger A.N. and others, Does efficiency help banks survive and thrive during financial crises?, *Journal of Banking and Finance*, 106, (2019), pp. 445–470;

14. Aduda, J. & Kingoo, N., 2012, 'The relationship between electronic banking and financial performance among commercial banks in Kenya', *Journal of Finance and Investment Analysis* 1(3), 99-118.
15. Aspromourgos T. *On the origins of classical economics: distribution and value from William Petty to Adam Smith* (Routledge, 1995);
16. Abraham Charnes, William W Cooper, and Edwardo Rhodes, 'Measuring the Efficiency of Decision Making Units', *European Journal of Operational Research*, 2.6 (1978), 429–44.
17. Artz, K.W., Norman, P.M., Hatfield, D.E. & Cardinal, L.B., 2010, 'A longitudinal study of the impact of R&D, patents, and product innovation on firm performance', *Journal of Product Innovation Management* 27(5), 725-740.
18. Azlarova A.A., Abduraxmanova M.M. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda tijorat banklari xizmatlarining o'rni // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2019
19. Balachandher Krishnan Guru, Santha Vaithilingam, Norhazlin Ismail, and Rajendra Prasad, (2001) "Electronic Banking in Malaysia: A Note on Evolution of Services and Consumer Reactions";
20. Bastar A., Eliyana F., Syabarrudin A., Emur A. Digitalization in banking sector: the role of intrinsic motivation // *Heliyon*. Volume 6, Issue12, December 2020
21. Belousova V., Karminsky A., Myachin N., Kozyr I. Bank Ownership and Efficiency of Russian Banks, *Emerging Markets Finance and Trade*, (2019), pp 1-8.
22. Berger A.N. and Humphrey D.B. The dominance of inefficiencies over scale and product mix economies in banking, *Journal of Monetary Economics*, 28.1, (1991), pp. 117–148;
23. Berger A.N., Molyneux P., Wilson J.O.S. *The Oxford Handbook of Banking*, Oxford, OUP, (2015). pp 1040;
24. Berger A.N., Loretta J.M. Inside the Black Box: What Explains Differences in the Efficiencies of Financial Institutions?, *Journal of Banking and Finance*, 7.21, (1997), pp. 895-947;
25. Berger A.N., Leusner J.H., Mingo J.J. The Efficiency of Bank Branches, *Journal of Monetary Economics*, 40.1, (1997), pp. 141-162;
26. Cainelli, G., Evangelista, R. & Savona, M., 2006, 'Innovation and economic performance in services: A firm-level analysis', *Cambridge Journal of Economics* 30(3), 435-458.

27. Chanaka Jayawardhena, Paul Foley, “Changes I the banking sector- the Case of Internet banking in the UK”, Internet Research; Electronic Networking Application and Policy, pp. 19-30.;
28. Cobb P.H., Douglas C.W. ‘A Theory of Production’, American Economic Review, 18 (1928), 139–62.
29. Chien-Chiang Lee, Chin-Wei Wang, Shan-Ju Ho. Financial innovation and bank growth: The role of institutional environments // The North American Journal of Economics and Finance. Volume 53, July 2020, 101195.
30. Chenguag Wang, Cuixia Qiao, Rahil Irfan Ahmed, Dervis Kirikkaleli. Institutional Quality, Bank Finance and Technological Innovation: A way forward for Fourth Industrial Revolution in BRICS Economies // Technological Forecasting and Social Change, Volume 163, February 2021, 120427.
31. Dyachenko O. 2018. Finansovaya ekosistema: vse v odnom. Natsionalniy bankovskiy jurnal (NBJ). 2018. 5:
32. Debreu G. ‘The coefficient of resource utilization’, Econometrica, 1951
33. Deyoung, R., Lang, W.W. & Nolle, D.L., 2007, 'How the Internet affects output and performance at community banks', Journal of Banking & Finance 31(4), 1033-1060.
34. David Ahern, ‘Return On Assets: How To Find Banks That Generate Profits | Seeking Alpha’, 2017
35. Dodiev F.O‘. Yusupova D.R. O‘zbekistonda banklar faoliyatini innovatsion rivojlantirish // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy jurnali. №5, 2020 y.
36. Dong Y., Firth M., Hou W., Yang W. Evaluating the Performance of Chinese Commercial Banks: A Comparative Analysis of Different Types of Banks, European Journal of Operational Research, 252.1, (2016), pp. 280-295;
37. Farrell M.J. ‘The measurement of productive efficiency’, Journal of the Royal Statistical Society: Series A (General), 120.3 (1957), 253–281.
38. Fries S., Taci A. Cost efficiency of banks in transition: Evidence from 289 banks in 15 post-communist countries, Journal of Banking & Finance, 29.1, (2005), pp. 55-81;
39. Gopalakrishnan, S., 2000, 'Unraveling the links between dimensions of innovation and organizational performance', The Journal of High Technology Management Research 11(1), 137-153.
40. Goyal J., Singh M., Singh R., Aggarwal A. Efficiency and technology gaps in Indian banking sector: Application of meta-frontier directional distance function DEA approach // The Journal of finance and data science, Vol. 5 (2019), 156-172 p.

41. Haralayya B. Aithal P.S. “Study on Theoretical Foundations of Bank Efficiency,” *Journal of Advanced Research in Operational and Marketing Management*, vol. 4, no. 2, pp. 12–23, (2021);
42. Hernando, I. & Nieto, M.J., 2007, 'Is the Internet delivery channel changing banks performance? The case of Spanish banks', *Journal of Banking & Finance* 31(4),
43. Hughes J.P., Lang W., Mester L.J., Moon C.G. Efficient Banking under Interstate Branching, *Journal of Money, Credit and Banking*, 28.4, (1996), pp. 1045-1071;
44. Islam A., Rahman S. “The Effect of Financial Innovation and Bank Competition on Firm Value: A Comparative Study of Malaysian and Nigerian Banks,” *The Journal of Asian Finance, Economics and Business*, vol. 8, no. 6, (2021), pp. 245–253;
45. Jumaev N.X., Tojiev R.R. Zamonaviy sharoitlarda bank likvidiligini boshqarishning nazariy jihatlari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018 y.
46. Khalifaturofi’ah S.O. “Cost efficiency, innovation and financial performance of banks in Indonesia,” *Journal of Economic and Administrative Sciences*, (2021);
47. Koopmans T.C. ‘An Analysis of Production as an Efficient Combination of Activities’, *Activity Analysis of Production and Allocation*, 1951.
48. Kumbhakar S.C. Production Frontiers, Panel Data, and Time-Varying Technical Inefficiency, *Journal of Econometrics*, 46.1-2, (1990), pp 201-211;
49. Kumbhakar S.C.and Peresetsky A. Cost Efficiency of Kazakhstan and Russian Banks: Results from Competing Panel Data Models, *Macroeconomics and Finance in Emerging Market Economies*, 6.1, (2013), pp 88-113;
50. Kumbhakar S.C., Lovell C.A.K. *Stochastic Frontier Analysis*, Cambridge, CUP, (2000), pp 99-118;
51. Kurmanova D. A. Finansovye texnologii na roznichnom rinke bankovskix uslug // *Vestnik UGNTU. Nauka, obrazovanie, ekonomika. Seriya: Ekonomika*, 2019, №2.
52. Jumaev, N.X., Nurmuratov, A.M., 2019. Osnovnie napravleniya modernizatsii sistemi valyutnogo regulirovaniya v Uzbekistane v usloviyax liberalizatsii ekonomiki. // *Innovatsionnie nauchnie issledovaniya v sovremennom mire: teoriya, metodologiya, praktika* Ufa, 06 maya 2019
53. Jiménez-Jiménez, D. & Sanz-Valle, R., 2011, 'Innovation, organizational learning, and performance', *Journal of Business Research* 64(4),

54. Lee C.C., Li X., Yu C.H. Zhao J. “Does fintech innovation improve bank efficiency? Evidence from China’s banking industry,” *International Review of Economics & Finance*, vol. 74, (2021), pp. 468–483;
55. Lee C.C., Wang C.W., Ho S.J. “Financial innovation and bank growth: The role of institutional environments,” *The North American Journal of Economics and Finance*, vol. 53, (2020), pp.101-135.
56. Laforet, S., 2013, 'Organizational innovation outcomes in SMEs: Effects of age, size, and sector', *Journal of World Business* 48(4), (2012), pp.490-502.
57. Lugamanova I.F., Yarullin R.R. Razvitie finansovix innovatsiy v bankax // *Mejdunarodniy nauchniy jurnal «Innovatsionnaya nauka»*, №3/2016
58. Lavrenteva Ye. Ye. Innovatsii kak faktor konkurentosposobnosti bankov // *Innovatsii* № 10 (168), 2012.
59. Matej Marinc. *Banks and information technology: complexity, flexibility, and interconnectedness*, 2011,
60. Mamadiyarov Z.T. Raqamli iqtisodiyotda masofaviy bank xizmatlarining evolyusion rivojlanishi: mulohazalar va tahlillar // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020
61. Nguyen T.P.T., Nghiem S.H., Roca E., Sharma P. “Efficiency, innovation and competition: evidence from Vietnam, China and India,” *Empir Econ*, vol. 51, no. 3, pp. 1235–1259, (2016);
62. Rym Ayadi, *Banking Business Models: Definition, Analytical Framework and Financial Stability Assessment* (Springer, 2019).
63. Ricardo D. *Principles of political economy and taxation* (G. Bell and sons, 1891).
64. Rosenbusch, N., Brinckmann, J. & Bausch, A., 2011, 'Is innovation always beneficial? A meta-analysis of the relationship between innovation and performance in SMEs', *Journal of Business Venturing* 26(4), 441-457.
65. Rahia S. et al. Integration of unified theory of acceptance and use of technology in internet banking adoption setting: Evidence from Pakistan // *Technology in society*, Vol. 58 (2019), 101120, 2 p.
66. Saeid Khajeh Dangolania. The impact of information technology in banking system (A case study in bank Keshavarzi Iran) // *Procedia - social and behavioral sciences*, Vol. 30, 2011. – 13-16 p.
67. Sharma A. Kansal A. Technological innovations in banking sector: impact, behaviour and services // *International journal of information & computation technology*. Volume 4, Number 9, 2014. – 886 p.

68. Sviridov O. Yu., Badmaeva B. S. Razvitie bankovskix ekosistem na osnove sovremennix sifrovix texnologiy / O. Yu. Sviridov, B. S. Badmaeva // Gosudarstvennoe i munitsipalnoe upravlenie. Uchenie zapiski. — 2019. — № 3.

69. Slonimskaya M.A Setevie formi organizatsii ekonomicheskoy deyatel'nosti: konsepsii i modeli razvitiya Belorusskiy ekonomicheskij jurnal. 2019. № 1 (86). S. 106-120.

70. Wahyudi S.T., Sari K., Nabella R.S., Zubaidah D.D. “Improving Bank Efficiency and Reducing Asymmetric Information through Innovation on Extensible Business Reporting Language,” in Modeling Economic Growth in Contemporary Indonesia, Emerald Publishing Limited, (2022), pp. 299–317.

71. Xoshimov, E.A., 2020. Problemi monetarnoy politiki v usloviyax sifrovizatsii. Studies, 16, pp.1203-1238.

72. Xudoyberdiyev M.U., Yodgorova Sh.X., Majidova I.I. Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishda tijorat banklari tomonidan moliyalashtirish muammolari // Iqtisod va moliya - Ekonomika i finansi. №8, 2019.

73. Zhao J., Li X., Yu C.H., Chen S., Lee C.C. “Riding the FinTech innovation wave: FinTech, patents and bank performance,” J Int Money Finance, vol. 122, p. 102552, (2022);

74. Zhao K., Pi J., Zhang T. “Evaluation of Innovation Efficiency on Chinese Commercial Banks under the Internet Finance: A DEA-Malmquist Index-Based Approach,” Security and Communication Networks, vol. 2022, (2022);

75. Zhong K., Li C., Wang Q. “Evaluation of bank innovation efficiency with data envelopment analysis: From the perspective of uncovering the black box between input and output,” Mathematics, vol. 9, no. 24, p. 3318, (2021).

76. Антюфьев А.Г., Табачный Е.М. Банковские инновационные продукты российских коммерческих банков // Наука и образование сегодня, 2019, №5

77. Атаниязова М. Тижорат банкларининг инновацион фаолияти хусусидаги илмий-назарий қарашлар ва уларга муаллифлик муносабатлари // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. №1, 2015 й.

78. Абдуллаева Ш.З. Банк рисклари шароитида тижорат банкларининг кредит портфелини диверсификациялаш. И.ф.д. илм. дар. ол.уч. дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 46 б.;

79. Бердияров Б.Т. Тижорат банклари актив операцияларининг даромадлиги. И.ф.н. илм. дар. ол.уч. дисс. автореф.. – Т.: БМА. 2002. – 21 б.;

80. Жумаев Н.Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. илм. дар. ол.уч. дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 35 б.;

81. Жиянова Н.Э. Тижорат банклари активлари ва пассивларини самарали бошқариш йўналишлари. Номзодлик диссертацияси. - Т.: 2010.

82. Ильюкевич А.Н., Костюк Я.С., Пастарнак К.Г. Информационные технологии в банковской сфере. Электронная библиотека БГУ. 2016. – 204-206 с.

83. Каримов Н.Ғ. Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестицияларни молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш муаммолари. докторлик диссертацияси. – Тошкент, 2008.

84. Мамадияров З.Т. Ўзбекистонда масофавий банк хизматлари ва уларни ривожлантириш истиқболлари // “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, 2019 й.

85. Омонов А.А. Тижорат банкларининг молиявий ресурсларини бошқариш. - Тошкент: Иқтисод молия, 2010. - 292 б;

86. Раҳматов Ҳ.Ў. Иқтисодиётни диверсификациялаш шароитида тижорат банк активлари самарадорлигини ошириш масалалари. И.ф.д. илм. дар. ол.уч. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 66 б.

87. Рудакова О.С. Банковские электронные услуги. Учебное пособие для вузов. М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 2015. 261 с.

88. Саттаров О.Б. Ўзбекистон Республикаси банк тизими барқарорлигини таъминлаш методологиясини таъминлашни такомиллаштириш, И.ф.д. илм. дар. ол.уч. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 42 б.

89. Убаева Ш.Л. Тижорат банклари барқарорлигини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш. И.ф.н. илм. дар. ол.уч. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 53 б.;

90. Қоралиев Т.М., Ортиқов У. Банк ресурсларини бошқариш. Тошкент: Молия, 2009. 123 б.

91. Ханнаев Ш.Қ. Тижорат банклари фаолияти самардорлигини баҳолашни такомиллаштириш. И.ф.н. илм. дар. ол.уч. дисс. автореф. –Тошкент, 2020. – 63 б.

92. Чеботарева А.Р. ‘Результативность и эффективность деятельности предприятия: аспекты их определения’, Актуальные проблемы и перспективы развития потребительского рынка, 381.

93. Чхутиашвили Л.В. Банковские продукты: виды, технология создания, способы внедрения // Финансовая аналитика: проблемы и решения, 2010, №2.

94. www.cbu.uz
95. www.nbu.uz
96. www.turonbank.uz
97. www.cqb.uz
98. www.trastbank.uz
99. www.imf.org
100. www.bis.org